

Таҳририят кенгаси:
 Х.Б.Юнусов – СамД(ВМЧБУ) ректори,
 профессор (ранс)
 Ж.А.Азимов – ЎЗР ФА академиги (аъзо)
 Б.Т.Норқобилов – Ветеринария ва чорвачиликни
 ривожлантириш кўмитаси
 раиси (аъзо)
 А.И.Ятусевич – РФА академиги (аъзо)
 Е.Д.Джавадов – РФА академиги (аъзо)
 Ю.А.Олдашбеков – РФА академиги (аъзо)
 Д.А.Девришов – РФА мухбир аъзоси (аъзо)
 С.В.Шабунин – РФА академиги (аъзо)
 К.В.Племяшов – РФА мухбир аъзоси (аъзо)
 С.В.Позябин – профессор (аъзо)
 Ш.А.Джабборов – профессор (аъзо)

Таҳрир хайъати:
 Х.Салимов – профессор
 К.Норбоев – профессор
 А.Даминов – профессор
 Р.Б.Давлатов – профессор
 Б.Бакиров – профессор
 Б.М.Эшбуриев – профессор
 Н.Б.Дилмуров – профессор
 Ф.Акрамова – б.ф.д., профессор
 Б.А.Эмуродов – профессор
 А.Г.Гафуров – профессор
 Н.Э.Олдашев – профессор
 Х.Б.Ниёзов – профессор
 Ю.Салимов – профессор
 Б.Д.Нарзиев – профессор
 Р.Ф.Рӯзикулов – профессор
 Г.Мамадуллаев – в.ф.д.
 Д.Н.Федотов – ВДВМА доцент
 Х.К.Базаров – доцент
 Т.И.Тайлақов – доцент
 Б.А.Кулиев – доцент
 Ф.Б.Ибрагимов – доцент
 З.Ж.Шопулатова – доцент
 Н.Б.Рӯзикулов – доцент
 Д.Д.Алиев – доцент
 Ш.Х.Курбонов – доцент
 Ж.Б.Юлғичев – доцент
 О.Э.Ачилов – доцент

Бош муҳарир вазифасини бажарувчи:

Абдунаби АЛИҚУЛОВ

Муҳарир:

Дилшод ЮЛДАШЕВ

Дизайнер:

Хусан САФАРАЛИЕВ

Лойиҳа ташаббускори ва раҳбари:

Ветеринария ва чорвачиликни
 ривожлантириш кўмитаси

Муассислар:

Ветеринария ва чорвачиликни
 ривожлантириш кўмитаси,
 "AGROZOOVETSERVIS"

маъсулияти чекланган жамияти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигига 2018 йил
 2 февралда 0284-ракам билан рўйхатга олинган

Журнал 2007 йил сентябрдан чоп этилмоқда

Манзил: 100070, Тошкент шаҳри, Усмон Носир, 22а.
Таҳририят манзили: 100022, Тошкент шаҳри,

Кўшибеги кўчаси, 22-үй

Тел.: 99 307-01-68,

Телеграмм учун 99 307-01-68.

E-mail: zooveterinariya@mail.ru

www.Vetmed.uz

Адади 3450. Нашр индекси: 1162

Босишига руҳсат этилди: 07.07.2025.

Бичими 60x841/.а. Офсет усулида чоп

етилди. 4,25 б.т. Буюртма № .

Баҳоси келишилган нарҳда.

© Veterinariya meditsinasi, #06 (211) 2025 "PRINT-
 MAKON" МЧК

босмахонасида чоп этилди.

Чилонзор тумани, 25-мавзе,

47-үй, 45-хонадон.

МУНДАРИЖА

Фидойилар

А.Алиқулов – Даромаду хурмат – ақл- заковату меҳнатга
 яраша 3

Лойиҳа

Х.Юнусов – Мега лойиҳа – Ўзбекистонда ветеринария,
 биотехнология ва чорвачилик соҳасини ривожлантириш учун
 илмий кадрларни интенсив тайёрлашга имконият! 7

Паразитар қасалликлар

O.S.Davidov, R.M.Uraqova, B.A.Elmurodov, O.Plyasov –
 Asalarilar tropilelapsozini davolash va oldini olishning usuli
 hamda vositalari 8

Н.Э.Юлдашев; М.И.Сайфуллаева; X.Ҳ.Жўрақулов – Тошкент
 вилояти шароитида қўйлар монезиозининг тарқалиш даражасини
 ўрганиш натижалари 10

М.И.Хушназарова, Ф.Э.Курбанов, А.Х.Хушназаров –
 Балиқлар сапролегниоз ва триходинозини даволашда
 кўлланилган воситалар самарадорлиги 13

Юқумли қасалликлар

A.X.Bazarov, X.K.Bazarov, N.I.Mamatkulova – Stafilokokklarning
 uy hayvonlaridan ajralish chastotasi va ajratilgan shtammlarni
 identifikasiyalash 15

Юқумсиз қасалликлар

U.A.Raxmonov, K.N.Norboyev, X.B.Yunusov., S.B.Eshburiyev –
 Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar gepatodistrofiyasining oldini olishni
 takomillashtirish 17

Ҳайвонлар ва паррандаларнинг нормал ва патологик анатомия ва патфизиологияси

A.A.Djalolov, F.S.Pulotov, A.Sh.Ismoilov – Qo‘ylar junxo‘rlariga
 qarshi Cypral ec preparatining insektitsidlik samaradorligi 20

N.P.Dauletbaev, R.M.Tashtemirov – Qoraqalpog‘iston
 respublikasida kurtkalarning tarqalishi va qonining morfologik
 xususiyatlari 22

Жарроҳлик

J.B.Yulchiyev – Urg‘ochi mushuklarni sterilizatsiya qilishning
 jinsiy organlar va sut bezi o’smalari o’sishiga ta’siri 25

Ветеринария доришунослиги (фармокопеяси) ва токсикологияси

Y.Salimov, O.E.Nematullayev, Sh.S.Doniyorov – Introvit-es-
 100-oral preparatining broyler jo‘jalar organizmiga terapevtik
 ta’siri 28

Ветеринария-санитария экспертизаси

Z.I.Plyosov, X.B.Yunusov, F.B.Ibragimov – Tuxum yo‘nalishidagi
 tovuqlar tuxum mahsulдорлиги va sifat ko‘rsatkichlariga innoprovet
 probiotigining ta’sirini veterinariya-sanitariya jihatdan baholash ... 29

Зоогигиена

X.T.Yuldashev, F.E.Kurbanov – Har xil zotdagi karpsmon baliqlar
 gemotologiyasi 32

R.G.Pardayev – Turli zot va zotdorlikdagi sigirlar yelinining
 morfologik belgilari 34

Editorial council

Kh.B.Yunusov - Rector of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology, professor(chairman)
J.A.Azimov - UzAS academician (member)
B.T.Norkobilov - Chairman of the Veterinary and Animal Husbandry Development Committee (member)
A.I.Yatusevich - RAS academician (member)
E.D.Djavadov - RAS academician (member)
Yu.A.Yuldashevbaev - RAS academician (member)
D.A.Devrishov - RAS correspondent member (member)
S.V.Shabunin - RAS academician (member)
K.V.Plemyashov - RAS correspondent member(member)
S.V.Pozyabin - professor (member)
Sh.A.Jabborov - professor (member)

Editorial board

H. Salimov - professor
K. Norboev - professor
A. Daminov - professor
R.B. Davlatov - professor
B. Bakirov - professor
B. M. Eshburiev - professor
N.B. Dilmurodov - professor
F. Akramova - doctor of biology, professor
B.A. Elmurodov - professor
A.G. Gafurov - professor
N.E. Yuldashev - professor
Kh.B. Niyazov - professor
Yu. Salimov - professor
B. D. Narziev - professor
R. F. Ruzikulov - professor
G. Mamadullaev - v.f.d.
D.I. Fedotov - associate professor of VSAVM
Kh.K. Bazarov - associate professor
T.I. Taylaqov - associate professor
B.A. Kuliev - associate professor
F.B. Ibragimov - associate professor
Z.J. Shopulatova - associate professor
N.B. Ruzikulov - associate professor
D.D. Aliev - associate professor
Sh.Kh. Kurbanov - associate professor
J.B. Yulchayev - associate professor
O.E. Achilov - associate professor

Acting Chief Editor:

Abdunabi ALIKULOV

Editors:

Dilshod YULDASHEV

Designer:

Husan SAFARALIYEV

Published since September 2007

Initiator and leader of the project:

State Committee of Veterinary and Livestock development of the Republic of Uzbekistan

Founders:

State Committee of Veterinary and Livestock development of the Republic of Uzbekistan,
“AGROZOOVETSERVIS” Co., Ltd.

Registered in Uzbekistan Press and News agency by 0284

Address: 22, Usmon Nosir, Tashkent, 100070.

Editorial address: 4, Kushbegi, 22, Tashkent, 100022

Tel.: 99 307-01-68,

99 307-01-68

E-mail: zooveterinariya@mail.ru
www.Vetmed.uz

circulation: 3450. Index: 1162

Permitted for print: 07.07.2025. Format 60x84 1/8
Printed by Offset printing 4,25 press works Order #
Free price.

© “Veterinariya meditsinası”, #06 (211) 2025

Printed by “PRINT-MAKON”
Co., Ltd., Tashkent city.
47/45, Chilanzar 25 quarter.

Devotees

A.Alikulov – Income and honor – commensurate intelligence and labor..... 3

Project

H.Yunusov – Mega project – an opportunity for rigorous training of scientific personnel for the development of veterinary medicine, biotechnology and animal husbandry in Uzbekistan! 7

Parasitic diseases

O.S.Davidov, R.M.Urakova, B.A.Elmurodov, O.Ilyasov – Methods and means of treating and preventing tropilelapsis of bees 8
N.E.Yuldashev, M.I.Saifullaeva, H.H.Jurakulov – Results of the study of the prevalence of sheep monesiosis in the conditions of the Tashkent region 10
M.I.Khushnazarova, F.E.Kurbanov, A.Kh.Khushnazarov – Effectiveness of the means used in the treatment of saprolegniosis and trichodinosis of fish 13

Infectious diseases

A.Kh.Bazarov, H.K.Bazarov, N.I.Mamatkulova – Frequency of isolation of staphylococci from domestic animals and identification of isolated strains 15

Non-infectious diseases

U.A.Rakhmonov, K.N.Norboev, X.B.Yunusov, S.B.Eshburiev – Improving the prevention of hepatodystrophy in egg-laying chickens 17

Normal and pathological anatomy and pathophysiology of animals and birds

A.A.Djalolov, F.S.Pulotov, A.Sh.Ismoilov – Insecticidal efficacy of Cypraecc against sheep woolly worms 20
N.P. Dauletbaev, R.M. Tashtemirov – Distribution of turkeys in the Republic of Karakalpakstan and morphological characteristics of their blood 22

Surgery

J.B. Yulchiyev – Effect of sterilization of female cats on the growth of genital and mammary tumors 25

Veterinary pharmacology (pharmacopoeia) and toxicology

Y. Salimov, O.E. Nematullayev, Sh.S. Doniyorov – Therapeutic effect of Introvit-es-100-oral on the body of broiler chickens 28

Veterinary and sanitary examination

Z.I. Ilyosov, X.B. Yunusov, F.B. Ibragimov – Veterinary-sanitary assessment of the effect of the probiotic INNOPROVET on egg production and quality indicators of laying hens 29

Animal Hygiene

X.T. Yuldashev, F.E. Kurbanov – Hematology of carp fish of different breeds 32

R.G. Pardayev – Morphological signs of the udder of cows of different breeds and breeding 34

ДАРОМАДУ ҲУРМАТ – АҚЛ-ЗАКОВАТУ МЕҲНАТГА ЯРАША

Дон кўп бўлсин, нон кўп бўлсин, тинчлик сақлансин, хамма кувончлару байрамлар ярашаверади. Жомбойда ғаллазорни оралаб ана шулар хақида ўйладим. Раҳматли отамнинг бир бўлак нонни ушлаб “Болам бу неъмат шу қадар улуғки, уни уволи ҳам савоби ҳам бекиёс. Шу боис нонни ерга ташлама, кадрига ет, дон пишиб стилгунча, унга айланиб нон бўлгунча қанча йўлни босиб ўтади, мисоли тириклик сингари”, деганди. Бугун ўлкамизнинг барча туманларида ғалла ўрим-йигими давом этмоқда.

Туман ветеринария ва чорвачиликни ривожланти-



риш бўлими бошлиғи Ботир Душановнинг эътироф этиича, бу йил Жомбой далаларидаги дон ҳосилдорлиги ёмон эмас. Айрим пайкаллар гектар бошига 80 центнерга қадар ҳосил беряпти. Комбайнчи Сомон ҳайф бўлмасин, ғаллани имкон қадар тагидан ўрсин, дея фермер комбайнчининг ёнида, пайкал ўриб бўлгунча техникадан пастга тушмаяпти.

– Дон ҳам сомон ҳам барака, ана шу ҳосил қишлоқ аҳлини, чорвадорларни бой қиласди. Ҳозир бир кило буғдой икки ярим минг, агар уни гидропоника усулида ўстирса бир кило буғдойдан олти карра кўп ем чиқади. Шу тариқа бир кило ем таннархи 500 сўмга айланади, – дейди Ботир Душанов. – Чорвадорларга гидропоника усулида озука тайёрлашни, буғдой ниҳолларини сомон билан янчиди молларга беришни тарғиб этаяпмиз. Бу албатта чорва маҳсулдорлигини ошириб, таннархини кескин камайтиради. Фақат меҳнат қилиш керак.

Оқолтин туманида ҳам иш қизгин. Бир томонда ғалла ўрими, яна бир томонда эпизоотик тадбирлар. Туман ҳокими Ҳусниддин Сувонов эрта тонгданоқ далада, йигилишни ҳам фермерларнинг пайкалига кўчирган.

Мақсад деҳқончилик соҳасидами, чорвачилиқдами, муаммоларни жойида ҳал этиш, шу тариқа ҳалқ билан мулоқот ҳам амалга оширилмоқда. Туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими бошлиғи Маҳмуд Қурбоновнинг эътироф этиича, кейинги йилларда чўлқуварлар чорва наслини яхшилашга жиддий эътибор қаратган. Тумандаги 63 нафар фермер наслли корамолчилик билан банд ва уларга 7 та ветучасткадаги мутахассислар доимо кўмақдош.

– Биз аҳоли ихтиёридаги чорвани даволаш, сигир ва гунажинларни сунъий уруғлантириш хизмати қатори одамларнинг ветеринария бўйича саводхонлигини оширишга ҳам интиляпмиз. Айниқса “Андижон” ветучастка мудири Сирожиддин Тугалов зиммасига юклатилган вазифаларни уздалашда ҳамкасларига ўрнак бўляпти, – дейди Маҳмуд Қурбонов. – Мана кўриб турганингиздек 12 метрлик ва барча кулайликлар билан жиҳозланган контейнер ишхона сифатида Сирожиддинга берилган. Бу қўмита раисининг тухфаси. Ҳадемай бошқа ветучастклар ҳам мана шундай ишхонага эга бўлади ва ана шунда фаолиятимиз янада жонланади.

Маҳмуд Қурбонов туманда ташаббускор фермерлар кўплигини айтиб, Баҳодир Пардаевнинг фаолиятига алоҳида тўхталди.

– 20 бош туйқуш бокиб қозоқларнинг эътиборига тушди ва у ҳар ой бир марта Қозогистонда бориб туйқушларни парваришлаш бўйича “мастер-класс” ўтиб келяпти. Бир йиллик сабоқнинг нархи ҳам ёмон эмас, 50 минг АҚШ доллари. Қойилми, албатта қойил. Бундан ташқари Баҳодир ака зовурдан самарали фойдаланган ҳолда ўрдагу гозларни кўпайтиришга ҳам киришган. Биз эса ана шу жоноворларни касалликка чалинтирасликка интиляпмиз.

– Яна бир ҳайрли гап. Яқинда эко фаоллардан бири оёғи синган лайлакни ишхонамизга олиб келди. Даволадик, жонивор оқсайдио, аммо учадиган бўлди. Ҳозир юқори кучланишили электр устунлардан бирининг тепасига уй қурган. Ҳар гал ўша жойдан ўтганда ветврач бўлганимиздан қувониб кетаман. Негаки, боболар айтганидек, дунёда жуда арзимас туюлсада, ҳар бир яхшиликнинг мукофоти бор-да. Лайлакни даволадик, шу ишимиз Аллоҳга ёқканки, ишимизда унум бор, барака бор. Раҳмат эшитяпмиз. Шу боис ишхонамга келган битирувчи талаabalарга, шогирдларга такрор ва такрор айтиман: “Яхши ўқинглар, ветврачни оёғи боқади, шу касбни пухта эгаллаган киши билингки, элдан дуо ҳам олади, чўнтағи пулга ҳам тўлади.” Аслида ҳам шундай-да.





Сирдарё туманиндағы Орзу маҳалласыда яшовчи Иброхим Муродовнинг 4 бөш сиғири, баш бузоги бор. У бузоқларини сунъий уруғлантиришдан пайдо бўлган, деди. Бунинг учун “Янги ҳаёт” ветучастка мудири Бердиёр Норқўзисвга яна бир карра раҳмат айтишни ҳам унутмади. Мутахассислар Муродовнинг молхонасига кириб жониворларни яна бир карра кўздан кечириши. Ўй дафтарида қайси мол эмланган, қайси мол сунъий уруғлантирилган барчаси баён этилган экан. Бу гал дафтарга янги ёзувлар киритилди. Мухими, уй эгаси ветврачларни бир пиёла чойга таклиф қилди. Бу шу қадар самимий таклиф эдик, худди ота-онасини меҳмонга чақирган тантан ўғилнинг меҳру муҳаббатига ўхшарди. Кўнгиллар қувонди. Раҳмат, келгуси сафар, дедик ва туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими бошлиғи Собир Мусабоевнинг таклифи билан 41 йилдирки, ветврачлик ортидан рўзгор тебратиб келаётган “Турон” ветучастка мудири Илҳом Кўлдошевнинг қишлоғига йўл олдик. Маълум бўлишича, Илҳом ака Чиноз зооветеринария техникумига ҳужжат топширган маҳаллар мўйлови эндинига сабза урган йигитча эди. Ўқида ялқовлик қилмади, касаллик ҳакидаги китобларни, журналларни қайта ва қайта ўқиди, сўнг билганларни иш жараённида кўллаб малака ошириди. Бугун Сирдарё туманида ундан ўтадиган мутахассис йўқ. Институтни битирмаган бўлсада, кўзи ўтқир, қўли енгил, жониворнинг нафас олишига, туркига караб дардини англайди, даволашга киришади. Шу боис қишлоқ одамлари бальзан нафакат моли, балки ўzlари касал бўлса ҳам Илҳом акага кўнгироқ қилади, чақиради, буни лоф деманг, шунчаки ҳақиқат. Масалан, шу қишлоқда яшовчи Зокир Тоғаевнинг 2 бөш сиғири ва икки бөш бузоги Илҳом аканнинг саъй-ҳаракати билан пайдо бўлган. Бу чорва пойтахтдаги Наслчилик марказидан келтирилган зотдор бука уруғлари ва шунга асосланган сунъий уруғлантириш услубининг мевасидир.

Илҳом ака ветфельдшер Чори Менглиев билан ишга киришди, дастлаб сиғири бузоқлар эмланди ва сўнг уларнинг кулоғига бирка тақиленди. Чунки туманда ҳайвонларни хисобга олиш жараёни – биркалаш узлуксиз давом этмоқда.

Пахтаки туманиндағы “Сотиболди” ветучаткаси мудири Нурилла Бобожонов ҳавасманд йигит. Кўлидан иш келдиган чорвадорни кўрса соатлаб гаплашади, унга чорва наслини яхшилаш бўйича жўяли маслаҳатлар беришни ҳам боплади. Яна у ғунажинми, сиғирми бир қарашда бўғоз ё бўғоз эмаслигини билади, бу борада унда ички сезги бор. Шу боис шу худудда яшовчи каттаю кичик Нурилла дўхтири тез-тез сўроқлаб туришади. Масалан, “Тараққиёт” маҳалласидаги “Асқар Бах-

тиёрович” фермер хўжалиги аъзолари фермага ветврач келганда ҳовлисигаги корамолларни ҳам кўздан кечириши илтимос қилишади. Нурилла акада эса йўқ, деган сўз йўқ. Сидқидилдан ишни қиласиди “буёғи қанча бўлади, дўхтири” дейиши, Нурилла ака жилмайганча “химматингиз”, дейди. Ана шу бир оғиз сўз мол эгасига ёқиб тушади, ветврачга эса том маънода барака келтиради.



Нурилла Бобожоновни туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими бошлиғи Даврон Раҳимов, чорвашунос Хуршида Ражабова, фермер Илҳом Зулпоновлар билан бирга расмга олдик. Сизларга кўз тегасин, ишингизга омад, рўзгорга барака, дедик.

– Мана шундай мутахассислар борлиги, уларнинг фаоллиги туфайли аҳолидан норозилик тушмаяпти, эпизоотик барқарорлик таъминланган. Бундан ташқари туманимизда идентификация ишлари ҳам тезкорлик билан давом этмоқда. Насиб этса, чорвачилик ва шунга мос равишда ветеринария йўналишидаги барча ишларимизни компьютерлар миясига жойласак ишимиз янада енгиллашади. Бу ўз навбатида чорва бош сониу наслини яхшилашга ҳам хизмат қиласи, – дейди Даврон Раҳимов. – Мазкур фермер хўжалигига эса йил якунига бориб насли ғунажинлар бош сони икки карра кўпаяди. Чунки Зулпоновлар Халқ банкидан 400 миллион сўм қарз олиб хориждан зотдор қорамоллар келтиришни мўлжаллашган. Бу ҳам туманимиз учун яна бир ютук.

Хоразмлик ғайратли йигит Шерзод Абиловни вилоят ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармаси бошлиғи лавозимига тайинлашганда кўпчилик унинг тез орада чорвадору ветврачлар орасида эътибор қозонишини тасаввурига ҳам сифдирмаганди. Чунки зукколар айтганидек, омадингиз келиб раҳбарлар ишонч билдирса, кўмита раисининг сұхбатидан, вилоят

хокимининг сўровидан ўтсангиз бас, раҳбарлик курсисига ўтираверасиз, аммо бу жойда хурмат топиш буткул бошқа масала. Айниқса, тупроғи оғир, сув тақчилиги жуда сезиладиган худуд саналмиши Хоразмда. Негаки, Хоразмда билимдон ҳам, талабчанликни ҳазм қила олмайдиган кишилар ҳам жуда кўп. Аммо руҳлантира олсангиз хоразмликлар сизни бошига кўтаради, муаммоларни эринмай ўрганди, каттани aka деди, кичикни ука деди, одамлар кўнглига ширин сўзи, бутунлиги билан йўл топди, маҳаллабай, хонадонбай ишлашни том мънода иш услубига айлантириди. Бу жараёнда уни вилоят ҳокими ҳам қўллаб-қувватлади. Шу тариқа тизимда ишлаётган мутахассислар учун керакли асбоб-ускуна-



ларни кўпайтиришга жиддий киришилди. Энг фаол ва узок йиллардан буён меҳнат қилаётган ветврачларни хизматига яраша тақдирлаш тизими ҳам жорий этилди. Шу боис бошқарма бошлигининг хурмати ошди. Қисқа даврда ўнлаб ветучастка мудирлари пуркагичлар, скuterлар ва замонавий ускуналарга эга бўлишиди. Бугун мутахассислар малакасини оширишга ҳам жиддий эътибор қаратилмоқда. Устоз-шогирд тамоилиси сиғир ва ғунажинларни сунъий уруғлантириш тизимида ҳам, корамолларни идентификациялашда ҳам юкори самара бермоқда. Биз бу жараённи **Жавлон Рўзметов** раҳбарлик қилаётган Янгиариқ туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими фаолияти билан танишганда яққол сездик.

Маълумотларга назар ташлайдиган бўлсак, туманда жами 24 минг 914 та хонадон бор ва уларнинг асосий қисмida чорва ҳайвонлари ҳамда паррандалар

боқилмоқда. 12 та ветучасткада ишлаётган мутахассислар фермерлар қатори аҳоли ихтиёридаги ҳайвонларни ҳам муттасил кузатиб, хавфли касалликларга қарши эмлаб чиқишишмоқда. Идентификация жараённига бўлимда ишлаётган барча ходимлар жалб этилган ва бугунгacha чорвадор фермерларнинг қорамоллари биркалаб чиқилди ҳамда барча маълумотлар электрон макони киритилди. Илгари озуқа экинлари етиштириш масаласига баъзи мулкдорлар етарлича эътибор беришмас, соликдан қарздор бўлса ҳам, тўлайман-да, қочиб кетаяпмани, дея бепарво юрадиганлар кўп эди. Солик тўлашдан қочадиган фермер экинзоридан ҳам мулкидан ҳам, маҳрум бўлади, унинг масаласи билан МИБ шугулланади, дейилгач қарздорларнинг пайтавасига қурт тушди. Чорвадор фермерлар ёппасига уйғонди гўё. Экинзорга бўлган муносабат ҳам кун сайин ўзгариб бормоқда. Ветврачлар эса чорвачиликка кўл урган, ҳайвонлар наслини яхшилашга итилган фермерларга энг яқин кўмакчи. Масалан, Қаҳрамон Собиров, Ниёзмат Абдуллаев, Жамшид Рўзметов сингари ветучастка мудирлари меҳнат қилаётган ҳудудларда иш самардорлиги юқори бўляяпти.

— Бошқарма бошлиғи томонидан берилган 2 та скутер, 2 та етаклама пуркагич, 12 та осма пуркагичлар иш самардорлигини янада оширишга туртки берди. Бугун фермаларни дезинфекция килишда мутлақо кийналганимиз йўқ. Туманимиз ҳокими Зафарбек Баҳодирович Матназоровнинг кўллови ва туман депутатларининг руҳсати билан маҳаллий газнадан 100 миллион сўм ажратилди ва биз бу маблагни ишхонани таъмирлашга йўналтиридик, — дейди Жавлон Рўзметов. — Айни пайтда 4 та эмлаш гурухига бирлашган 30 нафардан ортиқ мутахассислар эрта тонгдан то кечга қадар хонадонма-хонадон юриб ишляяпти. Яна бир хушхабар. Куни кеча бошқарма бошлиғи Шерзод Абилов янгиариқлик ветврачлар учун яна 10 скутер берилади, деди. Бу гапни этитган жамоамиз аъзолари ўрнидан туриб карсак чалиб юборишиди. Рости илгари бундай мукофоту совғалар тушга-ям кирмаган-да. Бугун эса керакли асбоб-ускуналарни сўрамасак ҳам ўзлари беришяпти. Фақат муаммога ўрин қолдирмасдан ишлаш керак. Шу боис чилланинг жазирамаси ҳам фаолиятимизга ҳалакит бергани йўқ, чорвадорлар билан туну кун биргамиз.

Абдунаби Алиқулов



МЕГА ЛОЙИХА – ЎЗБЕКИСТОНДА ВЕТЕРИНАРИЯ, БИОТЕХНОЛОГИЯ ВА ЧОРВАЧИЛИК СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УЧУН ИЛМИЙ КАДРЛАРНИ ИНТЕНСИВ ТАЙЁРЛАШГА ИМКОНИЯТ!

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетида 2023 йил июнь ойида “Ўзбекистонда ветеринария, биотехнология ва чорвачилик соҳасини ривожлантириш учун кадрларни интенсив тайёрлаш илмий бизнес инкубатори” мега лойиҳасига старт берилган эди. Ушбу лойиҳа илмий кадрлар тайёрлашнинг самарали тизимини йўлга кўйиш, илмий ишланмаларни тижоратлаштириш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш, талабалар амалиётини ташкил этиш ҳамда тўлиқ ўз-ўзини молиялаштириш механизмини яратиш мақсадида барча имкониятларни ўзида мужассамлаштирган.

Лойиҳа доирасида замонавий тажриба вивария клиникаси, ўкув ва илмий лабораториялар базаси шакллантирилди. Замонавий технологик асбоб-ускуналар билан жиҳозланди ва ветеринария, чорвачилик, биотехнология, агротехнология, агроиктисодиёт соҳаларида юқори малакали кадрлар тайёрланиб келинмоқда. Асосийси, университетда илмий салоҳият **48,2 %** дан **54,4 %** га кўтарилди. Шунингдек, университетда бакалавр, магистр талабаларининг дарс жараёнларидан лойиҳалардан тўлиқ фойдаланилди. Натижада, инновацион фан-таълим, илм ва ишлаб чиқаришнинг узвий боғлиқлиги таъминланди.

Лойиҳанинг асосий вазифалари эса, ташкилотлар ва аҳолига хизмат кўрсатадиган замонавий илмий инновацион марказ ташкил этилиб, ветеринария, чорвачилик, биотехнология, агротехнология ва агроиктисодиёт соҳаларида фаолият олиб бораётган изланувчиларни жалб қилиш, илмий кадрлар тадқиқотлари натижаларидан олинган ишланма ва илмий янгиликларни ишлаб чиқариш амалиётига жорий этиш, буюртмачилар билан манфаатли ҳамкорликлар ўрнатиш, республиканинг қишлоқ хўжалик кластерлари учун юқори малакали илмий кадрлар тайёрлаш ҳамда университетнинг молиявий мустақиллигини босқичма-босқич таъминлаб, илмий салоҳиятни кескин кўтаришдан иборатdir.

Университетнинг Нукус ва Тошкент филиаллари учун ветеринария ва чорвачилик соҳалари бўйича юқори малакали илмий кадрлар тайёрлаб бериш, илмий кадрларни илмий тадқиқотлари натижалари бўйича олинган ишланма ва илмий янгиликларини ишлаб чиқариш амалиётига жорий этиш, юқумсиз ва инвазион касалликларга тезкор

диагноз қўйишни ташкил этиш ва ушбу касалликларнинг олдини олиш ва даволашибнинг замонавий, самарали усусларини ишлаб чиқиш, ҳайвонот ва ўсимликлар дунёсидан олинадиган озиқ-овқат маҳсулотларининг сифатини доимий назорат қилиш орқали инсонлар учун хавф туғдирувчи омилларни юқори аниқликда илмий таҳлил қилиш ва амалиётга илмий асосланган тавсиялар бериш орқали кўзланган натижаларга эришилмоқда.

Лойиҳа ташкил этилган вактда илмий-тадқиқот ишларини олиб бораётган тадқиқотчилар 34 нафарни ташкил этган (21 нафари фалсафа доктори (PhD), 13 нафари фан доктори (DSc).

Буғунги кунда эса лойиҳа доирасида 40 нафар тадқиқотчилар (24 нафари фалсафа доктори (PhD), 16 нафари фан доктори (DSc), “Устоз-шогирд” тизимида 5 нафар магистратура мутахассислиги ҳамда 7 нафар бакалаврият босқичи талабалари ўз илмий-тадқиқот ишларини 14 тур қишлоқ хўжалик ҳайвонлари (хусусан: от, тuya, йирик шоҳли моллар, кўй, эчки, асалари, курка, товук, ўрдак, бедана, түяқуш, күён, балиқ ва лаборатория ҳайвонлари) устида ўз тажрибаларини замонавий тадқиқот усусларидан фойдаланган ҳолда олиб боришилмоқда.

Эътиборлиси, туман ва вилоят бошқармаларида фолијат кўрсатаётган соҳа мутахассислари Мега лойиҳа доирасида илмий тадқиқот ишларини олиб бориб, илмий даражага эга бўлмоқда ҳамда ўз хизмат вазифаларини бажаришда илмий ёндашув кўнгикмаларини бевосита жорий этиб келишилмоқда.

Бундан ташқари, лойиҳа доирасида Самарқанд вилоятининг кластер ва фермер хўжаликларига лойиҳа иштирокчилари малакали хизмат кўрсатиб келмоқда. Жумладан, лойиҳа раҳбари ва иштирокчилари томонидан З та “Бузоқларнинг вирусли диарея, рота ва коронавирусли инфекцияси, колибактериоз ва протеозига қарши фаголизлантирилган, ассоциациялашган вакцина ва уни кўллаш усули”, “Қорамоллар инфекцион ринотрахеит, вирусли диарея, парагрипп-3, респиратор синцитиал инфекциясининг олдини олиш учун тирик лиёфилланган вакцина ва уни кўллаш усули”, “Бузоқларда вирусли энтеритнинг олдини олиш учун трансовариал иммуно-глобулинлар аралашмасини олиш усули” бўйича патент олинди.





Лойиҳа доирасида 2023 йилдан хозирги вақтга кадар изланувчилар томонидан олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари натижалари асосида 7 та монография, 12 та тавсиянома, Ҳалқаро Scopus базасидаги журнallарда 16 та, Web of science журналларида 13 та, Google Scholar тизимидағи ва Impact factor юқори журналларда 232 та, ОАК рўйхатидаги республика илмий журналларида 128 та, 5 та муаллифлик гувоҳномалари, 3 та патент, Ҳалқаро конференцияларда 172 та, республика илмий-амалий конференцияларда 125 та, ОТМ конференцияларда 75 та мақолалар чоп этилди.

Шунингдек, илмий фаолият билан шуғулланувчи изланувчилардан 2 нафари фан доктори (DSc) ҳамда 4 нафари фалсафа доктори (PhD) диссертацияларини химоя килишиди.

Лойиҳа иштирокчиларининг 15 нафари Беларуссия, Россия, Туркия ва Қозоғистон давлатларида қисқа муддатли стажировка ҳамда малака ошириб келишиди.

Жорий йилнинг 14 май куни “МЕГА ЛОЙИҲА: Ветеринария, чорвачилик ва биотехнологиялар соҳасида юқори малакали илмий кадрларни жадал тайёрлаш” мавзусида республика илмий-амалий конференцияси бўлиб ўтди.

Бугунги кунда “Мега лойиҳа” доирасида илмий-тадқиқот ишларини олиб борган изланувчиларнинг 7 нафари фалсафа доктори (PhD), 4 нафари фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун илмий-тадқиқот ишларини якунлаб, кафедра мұхоказасига қўйиш учун тегишли тартибда хужжатларни расмийлаштириш боскичига ўтди.

Асосийси, мега лойиҳадан қўзланган мақсад, глобал масалалардан бири бўлган озиқ-овқат ҳавфсизлиги, чорвачилик ва биотехнология соҳалари бўйича мутахассис – юқори малакали илмий кадрлар тайёрлаш, шунингдек, чорвачилик соҳасида сифат назоратини кучайтириш,

экспортга йўналтирилган ракобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, чорвачилик ва ветеринария соҳасида инфратузилма хизматларини ўз ички имкониятларидан келиб чиқсан ҳолда ривожлантириш каби энг устувор вазифаларни илмий асосда амалга оширишда илмий – тадқиқот ишларини холис тажриба ва синовдан ўтказишдан иборатдир.

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетида “Илмий-инновацион марказ”, “Биотехнология”, “Озиқ-овқат технологияси”, “Ветеринария фармакологияси ва токсикологияси”, “Ветеринария гематологияси”, “Сутчиллик иши”, “Патоморфология”, “Генетика ва селекция”, “Озуқаларнинг зоотехник таҳлили ва зоогигиена”, “Ветеринария микробиологияси, вирусологияси ва иммунология”, “Ветеринария санитария экспертизаси” ўкув-илмий лабораториялари республикамиздаги “Кластер” ва фермер хўжаликларига хизмат кўрсатишга тайёр.

“Ўзбекистонда ветеринария, биотехнология ва чорвачилик соҳасини ривожлантириш учун илмий кадрларни интенсив тайёрлаш бизнес инкубаторини ташкил этиш” МЕГА ЛОЙИҲАсига 2025 йил 1 июлдан янги иштирокчиларни кутиб қоламиз.

**Худайназар Юнусов,
СамДВМЧБУ ректори,
биология фанлари доктори, профессор,
“Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган
чорвадор” фахрий унвони соҳиби**



ASALARILAR TROPILEAPSOZINI DAVOLASH VA OLDINI OLISHNING USULI HAMDA VOSITALARI

Аннотация

В статье подчеркивается важность развития пчеловодческих хозяйств в нашей стране, обеспечения продовольственной безопасности, повышения качества экспорта медовой продукции, удовлетворения спроса населения на качественный мед и медовую продукцию. Продукты пчеловодства: Трактуются, что мед, цветочная пыльца по своим свойствам являются пищевым, лечебным и косметическим средством, а прополис, пчелиный яд, маточное молочко — это натуральные продукты, выполняющие функцию мощного биостимулятора, широко применяемого в медицине и косметологии. Кроме того, в основу положены принятые Президентом нашей Республики постановления о развитии пчеловодческой отрасли, производству меда и медовой продукции, внедрению современных инновационных методов в следующие годы. Однако одним из факторов, влияющих на развитие пчеловодческой отрасли, является то, что на сегодняшний день остро стоит проблема заболевания пчел тропилепсозом. Одновременно были проанализированы исследования, проведенные по мерам лечения и профилактики тропилепсоза в пчеловодческих хозяйствах.

Kalit so'zlar: Asalari, kasallik, tropileapsoz, xo'jalik, qo'zg'atuvchi, kana, Tropilelaps clarea, ari lichinkasi, chumoli kislotasini davolash, amiakar, flutsin, valin.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston asalarilarni ko'paytirish va boqish bo'yicha tarixiy markazlardan biri bo'lib, quyoshli tabiatni asalarichilikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda asalarichilik sohasini rivojlantirish, asal va asal mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaliviy va innovatsion uslublarini joriy etish uchun sohani tartibga solish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini ta'minlash choralarini ko'rilmogda.

Jumladan, respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017-yil 16-oktabrdagi PQ-3327-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 12.06.2023-yildagi asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jalik ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari asalarichilik tarmog'ini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Asalari bejizga yetti xazinaning biri deyilmaydi. Uning asali, zahri, suti propolisi, gulchangi ko'pgina xastaliklarga davo, mumi esa sanoatimizda muhim xomashyo hisoblanadi. Asalarilar o'simlik gulini chetdan changlantirishi natijasida ularning turlarini sog'lomlashtirish va yuqori mahsuldar navlarni vujudga keltirishga sharoit yaratadi va hosilni ma'lum darajada oshiradi. Yer yuzida insoniyatga ma'lum bo'lgan o'simliklarning 80% ga yaqini oralig' changlanish natijasida tugun tugadi, meva, urug', hosil qiladi. Oralig' changlanishga muhtoj barcha o'simliklarning beshdan to'rt qismi hasharotlar yordamida changlanadi. Umuman asalarilarining insoniyatga foydasi beqiyosdir. Biroq hozirgi kunda bu noyob hasharotga salbiy ta'sir ko'rsatuveli omillardan asrash dolzarb mummolardan biri hisoblanadi. Jumladan, asalarilar orasida hozirgi kunda ko'p uchravotgan parazit kana chaqiruvchi Tropileapsoz kasalligi asalarichilikka katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Annotation


The article emphasizes the importance of developing beekeeping in our country, ensuring food security, improving the quality of honey exports, meeting the population's demand for high-quality honey and honey products. Beekeeping products: It is interpreted that honey and flower pollen are food, medicinal and cosmetic products by their properties, and propolis, bee venom, royal jelly are natural products that act as a powerful biostimulant, widely used in medicine and cosmetology. In addition, the basis is the decrees adopted by the President of our Republic on the development of the beekeeping industry, the production of honey and honey products, the introduction of modern innovative methods in the coming years. However, one of the factors influencing the development of the beekeeping industry is that today the problem of bee tropilepsosis is acute. At the same time, studies were analyzed on measures for the treatment and prevention of tropilepsosis in beekeeping farms.

Tadqiqot maqsadi. Hozirgi kunda asalarilarda uchrayotgan Tropileapsoz kasalligini davolash va oldini olishdan maqsad respublikamiz asalarichilik xo'jaliklariga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat.


Tadqiqot vazifalari. Asalari kasalliklari tarqalishini aniqlash, laboratoriya diagnostik tekshirish, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini amaliyotga tadbiq etish.

Tropileapsoz - qo'zg'atuvchisi Tropilelaps clarea kinası och sariq jigarrang, o'lchami (0,9-1) x (0,5-0,6) mm. Ust qismi qisqa qattiq to'plamlar bilan qoplangan; orqa chekka to'plamlar uzun va elastik. Og'iz apparati ari nasli bilan oziqlanishiga imkon beradi, katta asalarilarning segmentlararo bo'laklarini teshishga qodir emas. Urug'langan urg'ochi lichinka bilan hujayra devoriga 3-4 tuxum qo'yadi. 24 soatdan keyin tuxumdan protonimfa chiqib keyin deytonimfaga, so'ngra katta kanaga aylanadi. Hujayradagi erkak va urg'ochilarining nisbati 1:1. Hujayralardan chiqqan yosh urg'ochilar 1-2 kun ichida tuxum qo'yishga qodir bo'ladi. Butun rivojlanish davri 8-9 kun davom etadi. Kanalarning asosiy ari zoti bo'lgan hujayralar ichida joylashgan bo'ladi va katta asalarilarda arzimas miqdordagi parazitlar topiladi. Kana aridan transport vositasi sifatida foydalananadi va zararlanish natijasida asalari zotlarining o'limiga olib keladi.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlarimizni Samarqand viloyati Toyloq tumaniga qarashli "Orzu, Olim, Dilmurod asallari" fermer xo'jaligi misolida olib borildi. Ushbu hududdagi asalarichilik xo'jaliklarida Tropileapsoz kasalliklarining uchraganligi sababli epizootologik tekshirish ishlari olib borildi, veterinariya-sanitariya va profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Asalarichilik xo'jaliklarida ari oilalari orasida hozirgi kunda kana chaqiruvchi kasalliklar yangi paydo bo'lgan tropileapsoz kasalligi tez-tez uchrab turishi aniqlandi va amaliy yordam sifatida oldini olish choralarini amalga oshirildi.



1-расм. Тропилелапсоз қўзгатувчиси *Tropilaelaps clarea*



2-расм Асалари ғумбакларida *Tropilaelaps clarea* канасининг ривожланиш боскичи

Tropilelapsoz kasalligi tadqiqot jarayonlarida xarakterli klinik belgilari hamda patologik materialning laboratoriya tekshiruvlari natijalariga qarab tashhis qo'yildi. Ya'ni tropilaelaps kanasi uyaga kirish joyi yaqinida va uyalar tubida lichinkalar, g'umbaklar va yovvoyi asalarilar topilishi katta arilarni ko'p zararlantirmasligi asosan ona ari qo'yayotgan tuxumlarni, lichinkalarni zararlashiga ahamiyat qaratildi. Kana arilarning tuxumlari va lichinkalari bilan oziqlanganidan so'ng ramka mumkataklarida (gniliz) chirish xosil bo'lishi aniqlandi. Trapilaelapsoz kasalligi varroatoz bilan aralash kechib, bunda ishchi arilar varroatoz bilan zararlansa, trapilaelapsozda esa ona ari qo'yayotgan tuxumlari va lichinkalari zararlanish natijasida nobud bo'lishi aniqlandi. Trapilaelapsoz bilan zararlangan asalar oilalarida lichinkalarning rivojlanishi kechikadi yoki rivojlanmay qolishi kana bilan zararlangan g'umbaklarni olib tashlashga qaramay, arilar kaloniyasi tezda zaiflashib o'lishi asalarilar oilalariga katta iqtisodiy zarar keltirishi aniqlandi.

Tropilelapsozga diagnoz qo'yishda. Epizootologik ma'lumotlar, klinik belgililar, arilar tanasi va ramka mumkataklarida joylashgan ari lichinkalari sinchiklab tekshirildi, mikroskopik tekshirish o'tkazilib, morfologiyasi, morfosistematiqasi o'rGANilib kana turi aniqlandi. Ajratib olingan kana turlari taqqoslanib yakuniy diagnoz qo'yildi.



3-расм. Кана зарарланган мумкатаклар



4-расм. Кана билан зарарланган личинкалар.

Kasallikni davolash va oldini olish choralar. Trapilaelapsozining oldini olish va qarshi kurashishda trapilaelaps kanasiga qarshi kurashish va davolashda to'rburchak salfetka 4-5 qavat qilib tayyorlanadi va salafan paketchaga solinadi. Salfetkaga solingan salafanning arilar uyasiga qo'yilayotgan tomoni, ya'ni osti pichoqcha bilan yoriladi. Qo'llanayotgan preparatlarning ari uyasiga hidi chiqishi uchun. Asalar uysi qutilardagi ramkalarga (1 ta ramkaga 1 ml hisobida) ya'ni har bir oilaga mos ravishda 85 foizli chumoli kislotasidan tayyorlangan salafan paketcha ichiga shprits bilan shimdirlidi va ari uyasiga qo'yiladi. Ushbu preparat bilan 5-6 kunda bir marta ishlov berish tavsiya etiladi. So'ngra preparatning samaradorligiga qarab ishlov muddati uzaytiriladi. Asalarilar

parvarishlanayotgan hududdagi 7 km radius joy nazoratga olinishi lozim. Atrofda asalarichilik xo'jaliklari bor-yo'qligi aniqlanadi. O'sha xo'jaliklar ham zararlanganmi yo'qmi ma'lumotlarni aniqlash zarur. Kasallangan asalari uyalarini boshqa erlarga ko'chirib o'tkazish taqiqlanadi.

Tadqiqot natijalari. Samarqand viloyatidagi asalarichilik xo'jaliklarda olib borilgan tadqiqotlarda asalarilarda uchraydigan tropilelapsoz kasalliklarining epizootologik hotlati aniqlandi diagnostik tekshirish usullari o'tkazildi va ushbu kasalliklarga qarshi chora-tadbirlar, tadqiqotlar amalga oshirildi, asalarichilik xo'jaliklari amaliy yordam ko'rsatildi hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa: Tropilelapsoz bugungi kunda asalarilarning eng xavfli kasalligi bo'lib, kanalar asalari lichinkalari asalarilarining yetilayotgan g'umbaklari bilan oziqlanadi, parazitlik qilib yashaydi. Agar kasallikka qarshi kurashilmasa asalari oilasi nobud bo'lishi bilan birga asalarilar avlodni yo'qolib ketadi. Asalari kasalliklari oldini olishning eng asosiy yo'llaridan biri – bu veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazib turish, asalarilarga bahorda tarkibida vitaminli preparatlarni qo'shimcha oziqa sifatida berish. Asalarilarni parvarishlash tadbirlari to'g'ri tashkil etilgan joylarda asalarilar juda kam kasallanadi. Asalarlardagi ko'pgina kasalliklar deyarli bir xil belgiga egadir. Shuning uchun ham faqat mutaxassislargina kasallikni aniqlay olishlari va unga qarshi davo choralarini qo'llashlari mumkin. Kasallikni aniqlash,

unga to'g'ri va tezkor tashhis qo'yish muhim ahamiyatiga ega. Shuning uchun ham kasallikning dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilanoq, kasallangan asalarilardan va uning naslidan namuna olib, yaqin oradagi veterinariya laboratoriyalari ga murojaat qilish lozim.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning PQ-3327 sonli qarori "Asalarichilik tarmog'i yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 16-oktabr.

2. O.S.Davidov, B.A.Yelmurodov, R.M.Uraqova, M.A.Raximov "O'zbekistonda asalarilar tropilelapsoz kasalligining tarqalishi va unga qarshi kurash choralar" // "Veterinariya meditsinası" 12-sarı. 2022-y. 19-21-B.

3. Elmurodov B.A., R.M.Uraqova, O.S.Davidov, M.A.Raximov, O.A.Djurayev "Asalarilarda tropilelapsuz davolash va oldini olish" bo'yicha tavsiviyoma. – Samarqand-2023y.

4. Uraqova R.M. "Asalarilarning varroatoz va trapilelapsoz kasalligining klinik belgilari hamda ularga qarshi kurash chora-tadbirlari"// "Veterinariya meditsinası", 3-sarı. 2024 y. 16-18. -B.

5. Nasimov Sh.N., Gerasimchik V.A., Mamatova Z.B., Xabibov F.A. "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021.62-72 B.

6. Haqberdiyev, P.S., Qurbanov F.I., Qarshieva V. BAliq va asalari kasalliklari. Uslubiy o'quv qo'llanma. – Samarqand. 2018.

7. [хттп://www.смарт-маркет.уз/продуст-детайл/679040](http://www.смарт-маркет.уз/продуст-детайл/679040)

8. [хттп://урваетер32.ру/индех.пхл/подведомственные-организации-2/1734-рекомендации](http://урваетер32.ру/индех.пхл/подведомственные-организации-2/1734-рекомендации)

9. [хттп://бекеенперс.уз/основные-болезни-пчел-и-икх-лечебие](http://бекеенперс.уз/основные-болезни-пчел-и-икх-лечебие)

УДК: 619:636.3:576.89

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ҚҮЙЛАР МОНЕЗИОЗИННИНГ ТАРҚАЛИШ ДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШ НАТИЖАЛАРИ

Юлдашев Н. Э¹, в.ф.д., профессор,
Сайфуллаева М. И², мустақил изланувчи,
Жўракулов Х. Х³, таянч докторант,
Тошкент давлат Аграр Университети¹,
СВМЧБУ Тошкент филиали²,
Ветеринария илмий-тадқиқот институты³

Аннотация

Уишибу мақолада қўйлар орасида гельминтларнинг Cestoidaea синфи ва monesia авлоди мансуб бўйинги гельминтлар чакирадиган гельминтоз-монезиознинг тарқалиши бўйича 2023-2025 йилларда Тошкент вилоятida ўтказилган гельминтотропологик текшириши натижалари келтирилган. Мақолада жами 4276 бош, шу жумладан, Оҳангорон туманидан 176 бош, Бўстонлик туманидан 180 бош, Паркент туманидан 700 бош, Юқоричирик туманидан 174 бош, Оқкўрген туманидан 165 бош, Зангигита ва Янгиёйл туманларида 118 бошдан ва Қиброй туманидан 152 бош қўйларнинг тезак намуналари гельминтоовоскопиянинг фюллеборн усуги билан текширилганлиги, текширилган қўйларнинг 13,3 фоизида монезиялар аниқланганлиги қайд этилган. Шунингдек, вилоятда гельминтологолик текширишилар олиб борилган, ҳар бир туман бўйича қўйларнинг монезиялар билан зарарланганлиги тўхрисидаги маълумотлар келтирилган. Мақолада олиб борилган хусусий тадқиқотлар билан бирга Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги ва республикамизда қўйлар монезиознинг тарқалиши бўйича олиб борилган илмий маълумотлар ҳам таҳдид қўлинган.

Калим сўзлар: қўй, тезак намунаси, гельминтоовоскопия, фюллеборн, гельминт, синф, авлод, монезиа.

Мавзунинг долзарблиги. Республикаимизда кейинги йилларда агросаноат мажмуининг асосий тармоқларидан бири бўлган чорвачиликни ривожлантириш борасида кенг камровли чора-тадбирлар амалга

оширилмоқда. Мазкур йўналишда олиб борилган резжали чора-тадбирлар натижасида чорва молларининг юқумли, юқумсиз ва инвазион касалликларга чалинишига сезиларли даражада камайишга ва чорва туёқ бош

сонлари ва маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмлари ошишига эришилди.

Мамлакатимизга кейинги йилларда четдан турли зотли қўй-эчкилар ва бошқа чорва ҳайвонлари олиб келинаётганлиги сабабли чорва молларининг турли паразитар (гельминтоз) касалликлари тарқалиш даражасини ўрганиш ҳамда уларга қарши даволаш ва профилактика чора-тадбирларини такомиллаштиришга қаратилган изланишларга алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Кейинги йиллардаги паразитологик илмий тадқиқотларда чорва молларининг гельминтоз касалликлари хусусан, қўйларнинг ичак цестодозлари айниқса, монезиоз кенг тарқалишга эгалиги ҳамда ушбу гельминтоздан қўйчилик хўжаликлари катта иқтисодий зарар кўраётганлиги аникланмоқда.

Қисқача адабиёт манбалар таҳлили. Муаллиф 2009 йилда Россия Федерациясининг Ставропол ўлкасида 1 ёшгача бўлган қўй ва эчкилар гельминтологик текширилганда, улар йилнинг турли мавсумларида 10 фоиздан 95,5 фоизгача монезиялар билан зааралланганигини аниқлаб, инвазиянинг интенсивлиги қўзиларда 1,2-2,2 нусхани ҳамда улоқларда 1,6-2,4 нусхани ташкил этиши, шунингдек, қўзи ва улоқларнинг монезиялар билан заараланиш даражаси йилига икки марта июнь-июль ва сентябрь-октябрь ойларида юкори даражага чиқиши борасида маълумот берган [1].

Муаллиф 2010 йилда Кабардин-Болгар Республикасида 1080 бош турли ёшли қўйларни копрологик текширганда, улардан 505 боши монезиялар билан зааралланганиги тўғрисида маълумот берган. Муаллифнинг тадқиқотларида ёш қўзилар 57,8 фоиз, 1 ёшли қўзилар 41,2 фоиз ва катта ёшли қўйлар 42,8 фоиз монезиялар билан зааралланганиги аникланган. Шунингдек, муаллиф куруқ ўлкаларда қўйлар монезиялар билан 13,5 фоиз, намли ўлкаларда 31,6 фоиз, ўрмон худудларида 26,3 фоиз ва маданий худудлarda 20,3 фоиз зааралланганигини билдирган. Шунинг билан бирга муаллиф томонидан 500 та тупроқ намунаси гельминтологик текширилганда намли тупроқда 96 фоиз, енгил намли тупроқда 78 фоиз, ўрмон тупроқларида 64 фоиз ва очиқ яйлов (куруқ тупроқ) да 29 фоиз монезия тухумлари борлигини аниклаган [2].

2016 йилда Бошқирдистон республикасида қўйлар монезиозини ўргангандар монезиозлар касаллик ўтиришни сурункали ва асаб шаклларида кечиши тўғрисида маълумот берган. Хусусан, касалликнинг ўтириш шакли қўзиларда ҳолсизлик, озуқадан қолиш, сувсизланиш, ич кетиш, вазн йўқотиши каби белгилар ва қўзиларнинг ўлими билан кечиши, асаб шаклида заҳарланиш оқибатида асаб тизимида чуқур ўзгаришлар яъни харакат кординациясининг бузилиши, қўзиларнинг ётиб қолиши, бошини орқага ташлаш каби белгилар содир бўлишини ва сурункали шакли катта қўйларда бўлиб, катта ёшли қўйларни муаллиф асосан касаллик тарқатувчиси деб хисоблаган [3].

Муаллифлар 2016 йилда Краснодар ўлкасида монезиялар билан спонтан заараллангандарни тўғри ичагида

соғлом қўзиларга нисбатан бифидо ва лактобактерияларнинг 1,5-1,7 мартағача, микробиологик текширишда эса ингичка ва йўғон ичакларда фойдали микрофлоранинг 3,4-10,4 марта камайиб кетишини аниклаган [4].

2024 йилда Қозогистон Миллий Аграр университетида ўтказилган копрологик тадқиқотларда 40 бош текширилган қўйларда монезиоз, тизанезиоз, аветилина ва диктиокеула билан аралаш инвазия қайд этилиб, монезиялар билан текширилган қўйларнинг 30 фоизи (ИИ-1-14 та тухум), тизанезиялар билан 20 фоизи (ИИ-1-2 тухум) ва аветилиналар билан 5 фоизи (1-2 та тухум) зааралланганиги борасида маълумот берган [5].

1974 йилда муаллиф берган маълумотга кўра, республикамиз шароитида монезиоз қўйлар орасида кенг тарқалган. 1 ёшгача бўлган қўзиларда 59 фоизгача, 1-2 ёшли қўйларда 31 фоиз ва катта қўйларда 15 фоизгача зааралланган [6].

1997 йилда Ўзбекистон шароитида қўйлар монезиозининг тарқалиши, мавсумий динамикаси ва қўзғатувчисининг преимагинал ривожланишига тупроқ таркиби таъсирини ўргангандар монезиозлар копрологик тадқиқотларда мос равишда 12 в 23,7 фоиз қўйлар монезиялар билан зааралланганини ва инвазиянинг интенсивлиги ўртача 2,5 нусхани ташкил этишини аниклаган. Шунингдек, муаллиф монезияларнинг оралиқ хўжайнлари хисобланган орибатид каналарнинг биологияк ривожланишида тупроқдаги гумус миқдорининг камлиги, тупроқнинг шўрланиши даражаси юкорилиги ва ундаги водород ионлар концентрациясининг кучли кислотали ёки ишқорли бўлиши каналар биологик ривожланишига салбий таъсири этиши тўғрисидаги маълумотларни берган [7].

2018 йилда муаллиф монезиозини қўйларда тарқалиш даражасини тупроқ таркибидаги тузлар миқдорига боғлаб ўргангандар монезиоз билан зааралланганини даражаси республикамизнинг шўрламаган тупрокли худудларида 14,7 фоизни, шўрлган ва ўртача шўрламаган худудларда 7,6 фоизни ва 8,2 фоизни ташкил этиши тўғрисидаги маълумотни маълум қилган [8].

Яна бир муаллифнинг 2023 йилдаги маълумотида сўнгти йилларда Ўзбекистон шароитида қўйлар орасида ичак цестодозлари – монезиоз, тизанезиоз, аветилиноз ва уларнинг қўзғатувчилари тур таркиби, тарқалиш даражаси, диагностикаси, даволаш ва олдини олиш бўйича маҳсус тадқиқотлар ўтказилмаётганлигини билдириб, қўйлар ичак цестодозларининг кенг тарқалиб бораётганлиги, улар ареалининг кенгайиб бораётганлиги, касаллик қўзғатувчиларининг сон жиҳатдан ортиши кузатилаётганлигини, шу сабабли ҳам қўйлар ичак цестодозларини эпизоотик ва фаунистик ҳолатини ўрганиш, улар чақирадиган касалликларга ташхис қўйиш, даволаш, олдини олиш ва карши кураш усувларини такомиллаштиришга қаратилган тадқиқотларни янада жонлантириш зарурлигини қайд этган [9].

Адабиёт маълумотларида кўриниб турибдики, қўйларнинг ичак цестодозлари, айниқса, монезиоз турли худудларида бугунги кунда ҳам кенг тарқалган гельминтоз ҳисобланади ва касалликдан хўжаликлар катта иктисодий зарар кўриб келмоқда. Шу сабабли ҳам биз Тошкент вилояти худудида шу йўналишда илмий тадқиқотлар олиб бордик.

Текшириш жойи ва усули. Копрологик текшириш учун тезак намуналари Тошкент вилоятининг Оҳангарон, Бўстонлиқ, Паркент, Юқоричирчик, Оққўргон, Зангигота, Янгийўл ва Қибрай туманларида параваришланаётган қўйлардан олинди. Жами 2023-2025 йиллар давомида 1775 та қўйларнинг тезак намуналари Ветеринария дори воситалари ва маҳсулотларини синовдан ўтказиш давлат назорат илмий маркази лабораториясида гельминтоовоскопиянинг фюллеборн усулида текширилди[10].

Текшириш натижаси. Текшириш натижаларига кўра, Тошкент вилоятининг 8 та туманида 1775 бош қўйларнинг 237 боши ёки 13,3 фоизи монезиялар билан заарланганлиги аниқланди (*1-жадвалга қаралсин*).

1-жадвал.

Тошкент вилоятида қўйларнинг монезиоз билан заарланганлик даражасини гельминтоовоскопик (флюборн усули) текшириши натижаси

Туман лар	Текширилган қўйлар сони	Шундан, заарланган	
		сони	%
Оҳангарон	176	27	15,2
Бўстонлиқ	180	23	12,7
Паркент	700	77	11,0
Юқоричирчик	174	15	2,1
Оққўргон	165	59	35,7
Зангигота	118	11	9,3
Янгийўл	118	3	2,5
Қибрай	152	22	14,2
Жами	1775	237	13,3

Жадвал маълумотларига эътибор берадиган бўлсак, қўйларнинг монезиялар билан заарланиши Оққўргон туманида энг юқори бўлиб, текширилган қўйларнинг 35,7 фоизида қайд этилди.

Оҳангарон, Қибрай, Бўстонлиқ, Паркент ва Зангигота туманларида мос равища 15.2; 14.2; 12.7; 11.0; ва 9.3 фоиз аниқланган бўлса, Янгийўл ва Юқоричирчик туманларида мос равища 2,5 ва 2,1 фоиз қўйларда монезиялар қайд этилди.

Тошкент вилоятида қўйлар орасида монезияларнинг тарқалиш даражаси бўйича олинган маълумотларимиз биздан олдинги йилларда ўтказилган гельминтологик текширишларда олинган маълумотларга асосан мос келади ва ушбу касалликка қарши кўп йиллардан бўён қурашилиб келинаётганига қарамасдан Тошкент вилоятининг

айрим туманларида қўйлар бугунги кунда ҳам монезиоз билан юқори заарланган.

Хулоса:

1. Тошкент вилоятида парвариши қилинаётган қўйларда монезиоз нисбатан кенг тарқалишга эга бўлган гельминтоз ҳисобланиб, текширишлар олиб борилган 8 та туманда қўйларнинг 13,3 фоизи монезиялар билан заарланган.

2. Қўйларнинг монезиялар билан заарланганлиги юқори даражада Оққўргон тумани (35,7%) да қайд этилиб, Оҳангарон (15,2%), Қибрай (14,2%), Бўстонлиқ (12,7%), Паркент (11,0%), Зангигота (9,3%) туманларида ўрта даражада, Янгийўл (2,5%) ва Юқоричирчик (2,1%) туманларида эса камроқ қайд этилди.

3. Тошкент вилоятида ўтказилган копрологик тадқиқот натижалари асосида олинган маълумотлар келгусида Тошкент вилояти худудида қўйларнинг монезиоз ва бошқа ичак цестодозларини кенг қамровли ўрганиш ва уларга қарши замонавий кураш усусларини ишлаб чикишни тақазо этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- Четвертнев В. И “Монезиоз овец и коз Ставропольском крае-сезонная динамика, терапия. Автореф. Дисс. Канд. Вет. наук 2009. С.17.
- Атаев А. М “Эколого-эпизоотические особенности монезиоза овец” Автореф. Дисс. Канд. Вет наук. Махачкала. 2010. С. 19.
- Доценко О.С., Муллаярова И. Р “Монезиоз овец в Республике Бошкортостан” Межд. Студ. Науч. Вестник. 2016. №4 С.2-4.
- Щербак О. И., Счисленко С. А., Усова И. А., Щербак Р. И “Биоценоз кишечного тракта при монезиозах” Меж. Науч-иссл. Журнал .2016. С.4-16.
- Зияутдинова А., Усмангалиева С., Еспанов Ж “Распространение монезиоза овец” Журнал Животноводства и ветеринария №4.2024. С.9.
- Азимов Ш.А. Фасциолёзы и аноплоцефалятозы овец и крупного рогатого скота в Узбекистане. Изд.-во «ФАН» УзССР, Ташкент, 1974. С.214.
- Темуров У. Э “Влияние состава почв на распространение, сезонную динамику и преимигинальное развитие возбудителей монезиозов овец в Узбекистане” . Автор. Дисс. Канд .вет наук. 1997. С. 21-22
- Юлдашев Н.Э. “Современные методы и средства борьбы с гельминтозами” автор.диссер. док. вет. наук . Самаркан-2018. С.3-37.
- Курбонов Ш. Х. “Ўзбекистон шароитида қўйларнинг ичак цестодозлари ва уларнинг қўзғатувчилари”. Республика илмий-амалий конференция материаллари” 12-13 май, 2023.127-130 Б.
- Орипов А.О, Ғафуров А.Ғ., Юлдашев Н. Э ва бошқ. “Қишлоқ хўжалиги ҳайвонларининг паразитология ва инвазион касалликлари” Дарслик Тошкент -2023.54-127 б.

УДК: 639.3:619.

Хушназарова Мохигул Илхомовна¹, магистр,
Курбанов Феруз Энатиллаевич¹, в.ф.ф.д. (PhD),
Хушназаров Алишер Худойберди ўғли², в.ф.ф.д. (PhD),

¹Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети

²Ветеринария илмий-тадқиқот институти

БАЛИҚЛАР САПРОЛЕГНИОЗ ВА ТРИХОДИНОЗИНИ ДАВОЛАШДА ҚҮЛЛАНИЛГАН ВОСИТАЛАР САМАРАДОРЛИГИ

Аннотация

В статье представлены результаты научно-практической работы, проводимой по развитию рыбного хозяйства в нашей стране, а также других отраслей животноводства, и на основе литературных данных и научных исследований утверждается, что для дальнейшего развития отрасли и укрепления подхода, с учетом возрастающего спроса нашего народа на рыбу и рыбопродукты, необходимо ускоренными темпами развивать рыбное хозяйство на основе новых инновационных технологий, разрабатывать инновационные методы выращивания рыбы на основе интенсивных технологий в отрасли. Кроме того, в статье подробно описаны методы, которые следует использовать для выявления, лечения и профилактики сапролегиноза — заболевания, наносящего значительный экономический ущерб рыболовству.

Ключевые слова: Сапролегниоз, *Saprolegnia parasitica*, *S. mixta*, *S. ferax*, искусственный пруд, клинические симптомы, мицелий, гифы, гриб, плесень, *Trichodina*.

Annotation

This article presents the results of practical scientific work carried out in our country on the development of fisheries, along with other branches of animal husbandry, and the need to further develop the industry and strengthen the approach, taking into account the growing demand of our people for fish and fish products, which in turn requires the rapid development of fisheries based on new innovative technologies and the development of innovative methods of fish farming based on intensive technologies in the industry, based on literature data and scientific research. In addition, this article presents in detail the methods that should be used to detect, treat and prevent Saproleginosis, which causes significant economic damage to fisheries.

Мавзунинг долзарблиги. Чорвачиликнинг бошқа тармоқлари қатори балиқчиликни янада ривожлантиришга балиқ ва балиқ маҳсулотларига бўлган талаблар тобора ортиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида балиқчиликни янги инновацион технологиялар асосида жадал ривожлантириш хамда соҳада интенсив технологиялар асосида балиқ етиширишнинг инновацион усулларини ишлаб чиқаришга ундаётган. Бунга мисол тариқасида Президентимиз томонидан қатор қарор ва фармойишлар амалиётга тадбик қилинмоқда. Жумладан, 2020 йил 29 августдаги “Балиқчилик тармоғини қўллаб кувватлаш ва унинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4816 сонли қарорга мувоғик республикада балиқчилик тармоғини қўллаб-куватлаш, балиқчилик ва балиқ овлаш хўжаликлари фаолияти самарадорлигини ошириш, ушбу соҳада ер ва сув ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланиш хамда интенсив технологияларнинг кенг жорий этилишини таъминлаш мақсадида:

2020 йилдан бошлаб сунъий сув ҳавзаларида балиқ етиширадиган балиқчилик хўжаликларига сув ресурсларидан фойдаланганилик учун солик сув объектларидан олинган ва қайтариб чиқарилган сув ҳажми ўртасидаги фарқдан келиб чиқиб, қишлоқ хўжалиги ерларини суғориш учун белгиланган ставкаларда хисобланади.

Сув хўжалиги вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ва “Ўзбекбалиқсаноат” ўюшмаси билан биргаликда:

2021-2022 йилларда сув танқислиги шароитида дарё ва каналлардан сув олинадиган балиқчилик хўжаликлари томонидан сунъий сув ҳавзаларида босқичма-босқич янги ресурс тежамкор интенсив технологиялардан ва иккимачи сув манбаларидан кенг фойдаланиш амалиёти жорий этилди.

Қарорга кўра республикамизда балиқчилик тармоғини илмий ёндашув асосида интенсив усулда жадал ривожлантириш, соҳага балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг замонавий ва инновацион усулларини жо-

рий этган ҳолда самарадорликни ошириш белгиланган.

Ҳозирда бу қарорнинг ижроси юзасидан республикамизда амалий тадбирлар ўтказилмоқда. Бироқ, балиқ ва балиқ маҳсулотларини кўпайтиришда балиқларда учрайдиган касалликлар, жумладан балиқларнинг замбуруғли касалликлари соҳа ривожига маълум даражада тўсқинлик қилмоқда.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Сапролегниоз билан курашиш учун кўплаб терапевтик воситалар таклиф қилинган. Касалликнинг дастлабки босқичларида балиқлар 5% ош тузи эритмасида 5 дақика ёки малахит яшили таъсирида даволанади (1: 200.000) 20 мин. Бундан ташкари, метилен кўқини 50 мг/л сув ва 12-16 соат давомида ишлатишмиз мумкин [1].

Таҳлил қилинган адабиёт манбаларимизда чучук сув ҳавзаларининг балиқлари касалланади. Бу касаллида тери, сузгичлар, жабра аппарати ва кўпайиш даврида икраларнинг заарланиши кузатиласи. Замбуруғлар балиқларга механик ва токсик таъсири қилади. Сапролегниоз эпидермис хужайраларини парчалайди, кислород киришига тўсқинлик қилади, тўқималарда некроз ҳосил қилади ва балиқларнинг нобуд бўлиши билан хўжаликка катта иқтисодий зарар келтиради [2].

Яхши ривожланган мицелийга эга сапролегния замбуруғлари узоқ вақтдан бери турли тажрибалар обьекти бўлган, шу жумладан замбуруғнинг вегетатив ўсишига, жинссиз ва жинсий кўпайиш жараёни учун қулаги шароитларни аниқлаш тажрибалари ўтказилган. Замбуруғларни текшириш учун ховуз сувидан намуна олиб, турли озиқа муҳитларига экиласи. Бир неча кундан сўнг ушбу субстратларда сапролегния замбуруғларининг гифаларидан иборат оқ момиқсимон ўсиш пайдо бўлади. Ушбу замбуруғ айрим умурткасиз ҳайвонларда, балиқларнинг увилириғида, курбақаларда, сув ўтларида, баъзи ўсимликларнинг илдизларида ўсади [3].

Тадқиқотнинг мақсади. Тадқиқот ишлари 2024

йилнинг мартаидан шу йилнинг ноябрь ойлари давомида Самарқанд вилоятининг Пастандагом, Каттакўрғон, Самарқанд ва Чироқчи туманларида интенсив сув хавзаларида, яъни карпсимонлар оиласига мансуб 1-2 йиллик, замбуругли касалликларга хос клиник белгилар намоён қилган балиқларда олиб борилди.

Сапролегниоз – балиқларнинг кенг тарқалган микологик касаллиги бўлиб, кўзғатувчилари тубан могор замбуруглари Сапролегниалис гурухининг Сапролегниа туркумига киравчи бир неча турлар Сапролегниа параситиса, С.михта, С.фераҳ кабилар кўзгатади. Касаллик балиқларнинг эпидермис хужайраларини парчалаши, кислород киришига тўқсиналиқ қилиши, тўқималарда некроз ҳосил қилиши ва балиқларнинг нобуд бўлиши билан характерланади. Шундай муаммоларни инобатга олган ҳолда, биз тадқиқотчилар интенсив усулда боқилаётган балиқлар орасида кенг тарқалган Сапролегниоз касаллигини аниқлаш ҳамда уни даволашни ўз олдимиизга мақсад қилиб қўйдик.

Триходина чучук сув ва ховуз балиқларининг касаллиги. Юмалоқ киприкли инфузориялар томонидан кўзгатиладиган тери ва жабралар касаллиги.

Тадқиқот материаллари ва услублари. Касалликнинг клиник белгиларини ўрганиш учун аввало касалликка гумон қилинган балиқлар ажратилиб, махсус тайёрланган аквариумда сақланди ва улар доимий кузатувда бўлди. Сувнинг водород кўрсаткичини лакмус қофоз орқали аниқлаш ҳамда заррарланган балиқларга диагноз кўйиш максадида Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Парранда, балиқ, асалари ва мўйнали ҳайвонлар касалликлари кафедрасида, кафедралар аро ОПТАГЕЧ лабораториясида микологик текширувлар ўtkазилиб, кўзғатувчиларнинг гифаларини ва юмалоқ киприкли инфузорияларни топиш асосида кўйилди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Илмий тадқиқотлар Самарқанд вилоятининг учта туманида олиб борилди. Жумладан, Пастандагом, Каттакўрғон, Самарқанд вилояти туманларида интенсив касалликларни уч гурухга бўлиб, учта препаратни кўллаш орқали олиб борилди.

И гурух сапролегниоз ва триходиноз билан аралаш заарланган Сазан балигини 120 бош ажратиб олиб, 10/0,1 нисбатда 10 кг ош тузига 100 грамм мис купороси аралашмаси кун ора икки маротаба кўлланилганда уларнинг 6 донаси (5%), Оқ амурнинг сапролегниоз ва триходиноз билан 115 донаси заарланган бўлиб, 4 донаси (3,5%), Витнам карпининг сапролегниоз ва триходиноз билан 70 боши заарланган бўлиб 3 донаси (4,3%) ва Чироқчи тумани балиқчилек фермер хўжалигидаги Оқ дўнгпешона балигининг 95 донаси заарланган бўлиб, 5 боши (5,3%) нобуд бўлганлиги кузатилди. Кўлланилган даволаш усулининг самарадорлиги мос равишида 95., 96,5., 95,7., 94,7% ни ташкил этди. Ўртacha самарадорлик кўрсаткичи тўрттала тур балиқлarda 95,5 % ни кўрсатди.

II гурухга метилин кўки эритмасини гектарига 300 грамм кўллаш орқали куйидаги натижалар қайд этилди: Пастандагом туманида 100 дона заарланган Сазан балигини ажратиб олиб, уч кун давомида кўлланилганда уларнинг 6 донаси (6%), Каттакўрғон туманида заарланган Оқ амур балигининг 90 донасидан 6 донаси (6,7%), Самарқанд туманидаги хўжаликда сапролегниоз ва триходиноз билан заарланган Ветнам карпи балиги 90 донасининг 9 донаси (10 %) ва Чироқчи туманида заарланган Оқ дўнгпешона балигининг 80 донасидан 6 донаси (7,5%) нобуд бўлганлиги кузатилди. Кўлланилган даволаш усулининг самарадорлиги мос равишида 94,0., 93,3., 90,0., 92,5% ни ташкил этди. Ўртacha самарадорлик кўрсаткичи тўрттала туманда 92,4 % ни кўрсатди.

1-жадвал.

Балиқларнинг сапролегниоз касаллигини даволашда айрим препаратлар самараси

Интенсив усулда боқилаётган балиқлар сапролегниози ва триходинозига қарши кўлланилган препаратлар													
№	Кўлланилган препаратлар	Туманлар кесимида заарланган балиқларни даволаш самарадорлиги								Оқ дўнгпешона			
		Сазан		Оқ амур		Ветнам карпи		Оқ дўнгпешона					
		Заарланган балиқлар сони	Препарат кўлланилгач	Заарланган балиқлар сони	Препарат кўлланилгач	Заарланган балиқлар сони	Препарат кўлланилгач	Заарланган балиқлар сони	Препарат кўлланилгач	Заарланган балиқлар сони	Препарат кўлланилгач	Заарланган балиқлар сони	
1	Ош тузи эритмаси ва мис купороси 10/0,1 нисбатда	120	6	95,0	115	4	96,5	70	3	95,7	95	5	94,7
2	Метилен кўки	100	6	94,0	90	6	93,3	90	9	90,0	80	6	92,5
3	Гипохлорид калций 65%	110	11	90,0	80	9	88,8	80	7	91,3	60	3	95,0
	Назорат гурухи	50	50	-	30	30	-	25	25	-	35	35	-

III гурух гипохлорид калций 65% эритмасини гектарига 14 кг кун ора икки кун кўллаш орқали қуийдаги натижалар қайд этилди: Пастдарғом туманида 110 дона заарланган Сазан балиқларининг 11 донаси (10%), Каттакўргон туманида заарланган 80 дона, Оқ амур балиқларининг 9 донаси (11,2%), Самарқанд туманидаги хўжаликда сапролегниоз ва триходиноз билан заарланган 80 дона Ветнам карпининг 7 донаси (8,7 %) ва Чироқчи туманида заарланган 115 дона Оқ дўнгпешона балифининг 3 донаси (5%) нобуд бўлганилиги кузатилди. Кўлланилган даволаш усулининг самарадорлиги ўртacha тўрттала туманда 91,3 % ни кўрсатди. Назорат гуруҳида ўзгаришлар кузатилмади.

Тажрибалар давомида маълум бўлдики, кўлланилган даволовчи воситалар ва усульнинг барчаси 90% дан юқори самарадорликка эга. Жумладан, 10/0,1 нисбатда 10 кг ош тузига 100 грам мис купороси аралашмаси 95,5 %, метилен кўки эритмасини гектарига 300 грамм кўллаш орқали 92,4 %, гипохлорид калций 65% эритмаси 91,3 % самарадорликка эга эканлиги кузатилди.

Хуносат:

Самарқанд вилояти сапролегниоз ва триходинозга носоғлом эканлиги ва йилдан-йилга ўсиб бориши

балиқчилик тармоғига катта иқтисодий зарар кўрсатиб келмоқда. Биз қўллаган воситалардан 10/0,1 нисбатда 10 кг ош тузига 100 грамм мис купороси аралашмаси даволовчи хусусияти бошқа даволаш усулларига нисбатан (95,5%) самарадорлик ва арzonроқ эканлиги тажрибалаrimизда ўз исботини топди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- Даминов А.С., Насимов Ш.Н., Герасимчик В.А., Эшбуриев С.Б., Курбонов Ф.И. Балиқ касалликлари (ўкув қўлланма). Самарқанд-2020
- Хақбердиев П.С., Курбонов Ф.И., Каршиева В.Ш.. балиқ ва асалари касалликлари. Тошкент 2016 йил.
- Кузнецов А.Ф. “Ветеринарная микология”. Учебное пособие для вузов. 2018 год.
- Переведенцева Л.Г. П 27 Микология: грибы и грибоподобные организмы: учеб. пособие / Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2009.
- Герасимчик В.А., Садовникова Е.Ф. “Болезни рыб и пчёл”, учебное пособие. Минск 2017год.
- ТРАНС Асиан Ресеарч Жоурналштпп: //www.тарж.ин1 АЖМР: А с и а н Ж о у р н а л о ф М у л т и д и м е н с и о н а л Р е с е а р с h ИССН: 2278-4853 Вол 9, Иссуе 2, Фебруару, 2020 Импаст Фастор: СЖИФ 2020 = 6.882 П. 192-197 (Индиа).

УДК: 576.858:619

STAFILOKOKKLARNING UY HAYVONLARIDAN AJRALISH CHASTOTASI VA AJRATILGAN SHTAMMLARNI IDENTIFIKATSİYALASH

Bazarov Adham Xayrullayevich, v.f.f.d. (PhD),

Bazarov Xayrulla Kengashevich, dotsent,

Mamatkulova Nargiza Ikromovna, magistr;

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chovchachilik va bioteknologiyalar universiteti

Summary

Staphylococci occur in donkeys more frequently than in other animals, and only, from donkeys coagulase-negative staphylococci, characteristic of humas (S. hominis, S. capitis, S. cohnii), were isolated. Least frequently staphylococcal carrier state was registered in cats; in these animals only coagulase-negative strains were found to occur. From 30 donkeys coagulase-positive staphylococci belonging to 47 S.aureus strains were isolated. These strains differed from known ecological variants in their biological properties, thus suggesting the existence of S.aureus ecovar specific for donkeys. These strains did not coagulate human, bovine and ovine plasma, but coagulated rabbit plasma in 100% of cases and donkey plasma only in 53% of cases; at the same time they relatively often produced delta hemolysin, rarely phosphatase and hialuronidase and never fibrinolysis. These strains were typed by KPC phages.

Аннотация

У 30 (17,4%) ослов были выделены коагулазоположительные штаммы *S. aureus*, которые по своим биологическим свойствам существенно отличались от всех известных экологических вариантов, что позволило выделять их в отдельную экологическую группу. В отличие от других эквиваров они не коагулировали цитратную плазму человека, коров и овец, в 100% случаев свертывали крольчью плазму и лишь в 53%-ослинную. В 76,7% случаев они вырабатывали дельта-гемолизин, относительно редко (16,7%) обладали фосфатазной и гиалуронидазной (13,3%) активностью; все штаммы не вырабатывали фибринолизин. При определении фагочувствительности международными наборами фагов 36,7% стафилококков из этой группы типировались исключительно фагами из набора для типирования штаммов, выделяемых от крупного рогатого скота.

Kalit so‘zlar: chastota, shtamm, koagulyatsiya, identifikasiya, ekovar, ekologik guruh, fozfataza, gialuronidaza.

Mavzuning dolzarbliği – Stafilokokk infeksiya epizotik jarayonda xo‘jalik sharoitida odamlar orasida va shuningdek hayvonlar orasida ham bir-biri bilan kesishgan holda hayvonlarni kasallantirishi kam o‘rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi – uy hayvonlari tomonidan stafilokokklarni tashish chastotasini aniqlash, xususiyatlarini o‘rganish va ajratilgan shtammlarni identifikasiyalash. Bizlar ot, qo‘y, echki, mushuklar va eshaklarning burun shilliq qavatidan ajratilgan 264 ta stafilokokk shtammlarini o‘rganidik, shulardan eshaklar orasida stafilokokklarni tashuvchani ligi birinchi bor o‘rganildi.

Tadqiqotning vazifalari va uslublari. Material 5% li qon qo‘shilgan tuzli-sariq agarga ekildi. Ajratilgan shtammlarda mannitning fermentatsiyasi, morfologiyasi, Xuyleyfson muhitida 1-5 kun davomida odam, quyon, eshak va qo‘y qon plazmasini koagulyatsiya qilish qobiliyati o‘rganildi. Koagulaza-musbat shtammlar V. Hayek, E. Marsalek, va V. Mayer V. Vitte sxemalari bo‘yicha farqlandi, A.K. Akatov va boshqalar, sxemasi bo‘yicha koagulaza-negativ shtammlar o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tekshiruv natijalariga ko‘ra hayvonlarda stafilokokkning umumiy

tashilish va ajratish darajasi $71,1 \pm 1,8\%$, koagulaza -manfiy shtammlarni tashish darajasi ($42,3 \pm 2,0\%$) koagulaza-musbatshtammlarga nisbatan yuqori ($19,0 \pm 1,3\%$; $p < 1,30$); $p < 0,05$). Eshaklar, echkilar va boshqa hayvonlarga qaraganda tashuvchanlik ko'proq ko'tarilgan (1-jadval).

Stafilocokklarni tashuvchanlik asosan koagulaza-manfiy shtammlar ($p < 0,05$) tashkil etdi. Ot va qo'yillarda bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada past bo'lidi. Stafilocokklar kamdan-kam hollarda mushuklardan ajratilgan bo'lib, faqat koagulaza-manfiy shtammlardir. Shu bilan birga, koagulaza-musbatshtammlarga qaraganda qaraganda tashuvchanlik ko'proq ko'tarilgan (1-jadval).

I-jadval.
Ba'zi tur hayvonlarda stafilocokklarni ajratish chastotasi

Hayvon turlari	Hayvonlar soni	Tashuvchilarning soni, %±m			
		jami	koagulaza-musbatshtafilocokklar	koagulaza-manfiy stafilocokklar	koagulaza-musbatshtammlarga manfiy stafilocokklar
1. Eshak	175	84,6±2,7	206±3,0	59,4±3,4	4,6±1,3
2. Otlar	130	64,6±4,2	30,7±4,0	24,6±3,8	9,2±2,5
3. Qo'yilar	120	64,2±4,4	16,7±3,4	29,2±4,2	18,3±3,5
4. Echki	120	75,8±3,9	17,5±3,4	43,4±4,5	26,7±4,0
5. Mushuklar	70	52,9±6,0	-	52,9±6,0	-
Jami:	615	71,1±1,8	19,0±1,6	42,3±2,0	12,0±1,3

Adabiyotlarda eshaklardan ajratilgan stafilocokklar haqida hech qanday ma'lumot uchratmadik. Yuqorida qayd etilgan stafilocokklar ajratishining yuqori chastotasi faktiga qo'shimcha ravishda ularidan ajratilgan shtammlarning tur tarkibi ham o'ziga xosdir: eshaklardan faqat odamlarga xos bo'lgan koagulaza-manfiy stafilocokklar ajratildi: S. hominis, S. capitis, S. cohnii (11,4%) va kogulazalar, S. hyicus turlarining (12%) koagulaza manfiy va koagulaza musbat vakillarining tabiiy xo'jayinlari cho'chqalar, tovuqlar va sigirlar hisoblanadi [6, 9].

30 ta (17,4%) eshakda S. aureus ning koagulaza-musbatshtammlari ajratilgan bo'lib, ular o'zlarining biologik xossalari bo'yicha barcha ma'lum bo'lgan ekologik variantlardan sezilarli darajada farq qildi, bu esa ularni alohida ekologik guruhga ajratish imkonini beradi. Boshqa ekovallardan farqli o'laroq, ular odamlar, sigirlar va qo'yarlarning sitratlangan plazmasini koagulyatsiya qilmadi; 100% hollarda ular quyon qon plazmasini va atigi 53%, eshak qon plazmasini koagulyatsiya qildi. 76,7% hollarda ular delta-gemolizinlar hosil qildi, nisbatan kam (16,7%) fosfataza va gialuronidaza (13,3%) faolligi; barcha shtammlar fibrinolizin ishlab chiqarmadi.

Faglarning xalqaro to'plamlari yordamida fag sezgirilgini aniqlashda ushbu guruhdagi stafilocokklarning 36,7% faqat qoramoldan ajratilgan asosan, 116 va 117-shtammlarni, tipizatsiya qilishga erishdik.

Xulosalar:

- Echki, qo'y va otlarda stafilocokklarning ekovar va turlari ham keng tarqalgan.
- Eshaklardan ajratilgan stafilocokklar orasida S. aureusning ilgarigi xususiyatlari bo'yicha tasniflamagan shtammlari topildi, bular kelajakda o'rganishni taqazo etadi.
- Mushuklar tomonidan koagulaza manfiy S. haemolyticus oldingi o'rinnarni egallashi, boshqa tur hayvonlarda kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bazarov X.K., Bazarov A.X., Nurgalieva J.S., Sobirov O.O. Mastikasalligining etiopatogenezi va davolash usullari. Chorvachilik hamda veterinariya sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va muammolar: Respublika ilmiy-amalij konferensiya materiallari. I-qism. Samarkand, SamVMI, 22-24 may, 2019-B-183-184.

2. Bazarov X.K., Bazarov A.X., Sobirov O.O. Izuchenie etiologii mastitov korov. Chorvachilik xamda veterinariya soxalarida innovatsion texnologiyalar joriy kilish va muammolar: Respublika ilmiy amalij konferensiya materiallari. I-qism. Samarkand, SamVMI, 22-24 may, 2019-B-184-185.

3. Bazarov X.K., Bazarov A.X., Nurgalieva J.S., Indikatsiya antibiotikov v moloke// Veterinariya va chorvachilikni rivojlanitarish istiqbollar: Respublika ilmiy-amalij konferensiya materiallari to'plami. I-qism Samarkand: SamVMI, 21-22 may, 2020-B-130-133.

4. Bazarov X.K., Bazarov A.X., Sobirov O.O. Mastitis diagnostics and performance monitoring: A practical approach. Uzbeksko-Britansko-Rossiyskoe SPPO «Uz.Biokombinat» Mejdunarodny nauchno-prakticheskii konferensii: «Sostoyanie razrabotki i proizvodstva biologicheskix i veterinarnix preparatov i vozmojnosti rasshireniya ix lokalizatsii» Samarkand: SamVMI, 9-10-Sentabr. 2020.s.14-15.

5. Bazarov X.K., Bazarov A.X., Sobirov O.O. Comparative data of antibiotic sensitivity of staphylococci when determined by two methods. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensii studentov, magistrantov i molodyx uchyonyx «Veterinarnaya meditsina v XXI veke: rol bioteknologiy i sifrovix texnologiy» G.Vitebsk,g.Samarkand 2021g

6. Barkova A.S. Bolezni soskov molochnoy jelezni korov / A.S. Barkova, A.F. Kolchina, A.V. Yelesin // LAP LAMBRET Academic Publishing, Germany.-2012/-233c.

7. Belkin B.L. Cow's mastitis: etiologiya, pathogenesis, diagnostics, treatment and prevention // Monography.-Publishing house OreGAU.2009.

8. Gavrilov V.G. Septogel dlya lecheniya korov pri mastite.// Veterinariya. 200.-№ 6-s.41.

9. Jumanov K.T., Biyashev K.B., Biyashev B.K., "Fagotipirovanie patogennykh stafilokokkov, vydelennykh iz moloka korov". XXIII Mejdunarodny nauchno-prakticheskaya internet-konferensii. Problemy i perspektivy razvitiya nauki v nachale tretego tysyacheletiya v stranax Yevropy i Azii. 28-29 fevralya 2016 g. Pereyaslev-Xmelniskiy-2016. Ukraina.str-8-10.

10. Sviredenko G.M., Semova Ye.G. Mastitsy krupogo rogatogo skota // Molochnaya promyshlennost, 2003, № 10, str. 18-20.

11. Roman L.G. Zasib diagnostika subklinichnogo mastitu u susostuyutx koriv / L.G.Roman, M.M.Broshkov // Agrarniy visnyk Prlychornomorya: Zbirniyk naukovyx pras Odeskogo derjavnogo agrarnogo universitetu.-Odesa, 2006.-Vipusk 32.-S.162-164 (0, 19/0, 18 p.l.).

12. Roman L.G. Veterinarnyy kontrol pri mastite susostoyutx korov / N.I. Polyansev, L.G.Roman, A.I. Afanasev // Nauchno-prakticheskie rekomendatsii.-pos. Persianovskiy, 2007.-17 s. (0, 75/0, 65 p.l.).

13. Devriese L. A., Hayek V., Oeding P. va boshqalar. // Int. J. tizimi. Bact. 1978. jild. 28. -P. 482-490.

14. Kloos V. E. // Ann. Rev. Mikrobiol. 1980. jild. 34. - B. 559-592.

15. Witte W., Hummel R., Mayer W. va boshqalar. // Z. allg. Mikrobiol. S. 639-646. 1977. Bd 17.

TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLAR GEPATODISTROFIYASINING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda jigarning yog'li distrofiyasi ular tuxum berish davrining 42-46 haftalarida ratsion tarkibida hazmlanuvchi protein, vitaminlar, minerallar va aminokislotalar yetishmasligi hamda sifatsiz yog'larning ishlatalishi natijasida kelib chiqishi tajribalarda aniqlanganligi bayon etilgan. Parrandalarda gepatodistrofya gipodinamiya, toj va sirg'alarning oqarishi, tana vaznining kamayishi, pat va parlarning xurpayishi, mahsuldarlikning pasayishi, qorin devori pastki qismining qalinlashuvi bilan kechadi. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlar ratsioniga qo'shimcha ravishda 1 tonna granulalangan omuxta yem tarkibiga 208 g PERMASOL-500 vitaminli-minerallli-aminokislotali premaksi va 1 kg sut qushqo'nmasi (rastaropsha pyatnistaya - Silybum marianum) o'simligining doni talqonidan qo'shib berilishi jigarning yog'li distrofiyasi oldini oladi.

Аннотация

В статье изложены результаты экспериментов, подтверждающих, что жировая дистрофия печени у кур яичного направления возникает в период яйценоскости на 42–46-й неделях. Причинами данного патологического состояния являются недостаток перевариваемого протеина, витаминов, минералов и аминокислот в рационе, а также использование некачественных яиц. У птиц гепатодистрофия проявляется гиподинамией, побледнением гребня и серёжек, снижением массы тела, взъерошенностью оперения, снижением продуктивности и утолщением нижней части брюшной стенки. Профилактика жировой дистрофии печени достигается за счёт включения в рацион кур яичного направления дополнительно к 1 тонне гранулированного комбикорма 208 г витаминно-минерально-аминокислотного премикса PERMASOL-500 и 1 кг порошка из семян пятнистого расторопши (Silybum marianum).

Kalit so'zlar: Gepatodistrofya, vitaminlar, minerallar, aminokislotalar, premeks, rastaropsha (sut qushqo'nmasi), gipodinamiya, anemiya, steatoz, gemoglobin, bilarubin, xolesterin.

Mavzuning dolzarbliji: Parrandachilik chorvachilikning eng intensiv tarmog'i sifatida aholimizga sifatli parhez go'sht va tuxum mahsulotlari yetkazib berishda, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'yaydi. Parrandachilik xo'jaliklarida tuxum yo'nalishidagi tovuqlar orasida moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari, xususan jigarning yog'li distrofiyasi – gepatozi (steatozi) salmoqli o'rinnegallaydi va xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar yetkazib kelmoqda. Iqtisodiy zarar kasallikning ommaviy tusda kechishi, mahsuldarlik va mahsulot sifatining pasayishi, qimmatli mahsulot hisoblangan jigarning tashlab yuborilishi hisobiga kelib chiqadi. Jigar organizm fiziologik holatini, mahsuldarligini ta'minlab turuvchi hayotiy zarur organ hisoblanadi. Parrandalarning mahsuldarlik darajasi har doim yuqori kaloriyalı ozuqlardan foydalanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jigar faoliyatiga uning strukturaviy holatiga bevosita ta'sir qiladi. Jigar organizmda oqsil, uglevod va yog' almashinuvida faol qatnashib, o't ishlab chiqarish va detoksikasiya qilish funkisiyasini bajaradi va ovqat hazm qilish trakti va qon o'rtasidagi aloqani saqlab turadi. Parrandalarni to'g'ri oziqlantirish va to'g'ri texnologiya asosida parvarishlash mahsuldarlik ko'rsatkichlariga va xo'jalik iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Parrandalarni boqish uchun to'yimli, vitamin va minerallar hamda boshqa biologik faol modalarga bo'lgan ehtiyojni qoplaydigan standart to'la qiymatli ozuqlar tavsiya etiladi [2,4,6].

Ayrim parrandachilik xo'jaliklari o'zi ishlab chiqargan donli oziqlarasi asosida aralash omuxta yem tayyorlab, quruq ozuqa aralashmalaridan foydalanishga o'tdilar. Ushbu ozuqa aralashmalarining tarkibi va ozuqaviy qiymati har doim ham parrandalarni boqishning standart parametrlariga mos kelmaydi, bu tabiiy ravishda parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishni kamaytiradi va modda almashinuvi buzilishi bi-

lan bog'liq kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunday kasalliklar orasida gepatodistrofya salmoqli o'rinni egallaydi [3,5].

Organizmda moddalar almashinuvini normallashtirish va jigarning funksional holatini yaxshilash uchun gepatoprotektorlar – hujayra pardalari yo'q bo'lib ketishining oldini oluvchi va gepatositlar regenerasiyasini rag'batlantiruvchi vositalar qo'llaniladi. Ular jigar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5,7]. Gepatoprotektorlar jigarning patologik ta'sirlarga nisbatan chidamliligin oshiradi, uning detoksikasiya (zararli moddalarni zararsizlantirish) funkisiyasini kuchaytiradi va morfofunksional holati buzilishining oldini oladi [8,9].

Shuning uchun mazkur patologiyani erta aniqlab, uni samarali davolash va oldini olish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish va amaliyatga joriy etish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda jigarning yog'li distrofiyاسини keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va etiopatogenetik tamoyillar asosida mazkur kasallik oldini olish uchun gepatotrop, antioksidant xususiyatlari preparatlari va organizmda modda almashinuvini yaxshilovchi vitaminli-aminokislotali-minerallli premikslarni parrandalarni organizmiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini aniqlashdan iborat edi.

Tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari. Tadqiqotlar Samarqand DVMChB Universitetining vivariysida, ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasida mega loyiha doirasida bajarildi. Tajribalar Pastdarg'om tumanidagi "KEldor" fermer xo'jaligidan o'xshash juftliklar tamoyili asosida tanlab olin-gan Loman braun zotli tuxum yo'nalishidagi 26-42 haftalik 45 bosh tovuqlarda o'tkazildi. Tovuqlar 15 boshdan uch guruhga ajratildi. Barcha tovuqlarning saqlash sharoitlari, bino harorati, yorug'lik, ventilyasiya va rasion tarkibi bir-biriga

1-jadval.

Tovuqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari. (n=15)

Guruhrar	Tekshirish vaqtı	Gemoglobin, g/l	Umumiyoqsil, g/l	Glyukoza, mmol/l	Billirubin, mkmol/l	Xolesterin, mmol/l
Nazorat	A	96,2±1,8	44,8±0,14	5,32±0,16	1,18±0,04	3,04±0,4
	B	96,0±1,6	44,0±0,16	5,64±0,14	1,84±0,06	5,44±0,6
	C	94,6±1,6	42,0±0,30	6,88±0,18	2,12±0,05	5,80±0,6
1-tajriba	A	96,6±1,8	44,6±0,24	5,34±0,26	1,20±0,06	3,06±0,6
	B	96,8±2,0	44,8±0,18	5,42±0,20	1,32±0,04	4,04±0,4
	C	98,6±1,8	46,4±0,26	5,46±0,24	1,22±0,04	4,40±0,4
2-tajriba	A	96,4±2,2	44,8±0,18	5,38±0,24	1,18±0,05	3,02±0,4
	B	98,8±1,8	46,0±0,24	5,48±0,22	1,06±0,06	3,02±0,6
	C	102,4±1,8	47,2±0,16	5,48±0,26	1,02±0,04	3,08±0,6

Eslatma: A-tajriba boshida, B-tajriba o'tasida, C-tajriba oxirida

o'xshash edi. Xo'jalikda tovuqlarning kunlik rasioni donli ozuqlar, shrotlar, yog' va boshqa biologik faol moddalarni aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. Birinchi tajriba guruhidagi tovuqlar rasioniga qo'shimcha ravishda 1 tonna granulalangan omuxta yem tarkibiga 208 g (yo'riqnomalar bo'yicha) PERMASOL-500 (CHOONG ANG BIOTECH) – yuqori faol vitaminli-aminokislotali-mineralli premiksdan qo'shib berildi. Demak, bir bosh tovuq 1 kunda 120 g ozuqa qabul qiladigan bo'lsa, preparatning kunlik miqdori 25mg/boshga to'g'ri keladi.

Ikkinchi tajriba guruhidagi tovuqlar raesioniga qo'shimcha ravishda 1 tonna granulalangan omuxta yem tarkibiga 208 g PERMASOL-500 premiksi va 1 kg sut qushqo'nmasi (rastaropsha pyatnistaya - Silybum marianum) o'simligining doni talqonidan qo'shib berildi [1]. Nazorat guruhidagi tovuqlar xo'jalik rasionida oziqlantirildi. Tajribalar tovuqlar mahsuldarlik davrining 26-42 haftaligi davomida o'tkazildi.

Parrandalarda klinik tekshirishlar o'tkazish orqali umumiylot, tana vazni, ishtaha, ko'z shilliq pardalari, toj va sirg'alarining rangi, teri, par va patlar, harakat a'zolarining holati, tuxum berish foizi aniqlandi.

Tovuqlardan olingan qon namunalarini laboratoriya tahlillari "Samarqand Diagnostik" tibbiyot klinik laboratoriysi, Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasining "Gematologiya" laboratoriyalarida o'tkazildi [3]. Qondagi gemoglobin miqdori (gemoglobin-sianidli usulda), glyukoza miqdori (glyukometr analizatorida), qondagi retinol, takoferol miqdorlari (xromatografiya usulida, VEJX) qon zardobidagi umumiyoqsil (refraktometrik usulida (RNC)), karotin (Karr Prays usuli, Yudkin modifikasiyasi), tuxum tarkibidagi retinol va karatinoidlar miqdori biokimyoviy analizator Genvet VP 100 yordamida aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Rasion tarkibili ning tahliliga ko'ra uning 35,15% ni bug'doy yormasi, 26%ni makka doni yormasi, 8% ni soya shroti, 16%ni kungaboqar

shroti, 3,80% o'simlik yog'i, 0,55% monokalsiyfosfat, 9,5% izvestnyak, 1,0% premiks tashkil etdi. Ratsionning umumiyoqsimligi 100 g omuxta yem tarkibida 286,0 kkal almashinuv energiyasi, 17,0 % xom protein, 5,7% kletchatka, 0,66% lizin, 0,25% metionin, 0,35% treonin, kalsiy 3,2%, fosfor 0,60%, retinol 670 XBni, xolekalsiferol 128 XBni, tokoferol 0,62 mgni, vit V₄ 34 mgni tashkil etdi. Oziqlantirish me'yordaliga nisbatan ratsionda almashinuv energiyasi 6 kkal ga, yog' miqdorining 1,30%ga ko'pligi, lizinni 0,14%ga, metioninni 0,15%ga, kalsiyini 0,6%ga, fosforni 0,1% ga, retinolni 330 HB, xolekalsiferolni 72 HB ga, tokoferolni 0,38 mg ga, xolin xlorid (B₄)ni 16 mg ga kamliqi aniqlandi.

Tajribalar boshida (26-hafta) barcha guruhlardagi tovuqlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlar me'yordi ko'rsatkichlariga yaqin edi. Nazorat guruhidagi tovuqlarda tuxum berish davrining 40-42-haftalariga kelib 20-25% parrandalarda gipodinamiya, toj va sirg'alarining oqarishi, tana vazning kamayishi, pat va parlarning xurpayishi, mahsuldarlikning pasayishi, qorin devori pastki qismining qalinlashuvi kuza tildi.

Tovuqlar tuxum berish davrining 42-43-haftalariga kelib nazorat guruhidagi parrandalalar qonidagi gemoglobin miqdori tadqiqotlarning boshlang'ich davridagi (26-hafta) ko'rsatkichlariga nisbatan o'rtacha 1,6 g/l ga pasayganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich 1-tajriba guruhidagi tovuqlarda 2,0 g/l ga va 2-tajriba guruhidagi tovuqlarda o'rtacha 6,0 g/l ga ortganligi tajribalarda isbotlandi (1-jadval).

Qon zardobidagi umumiyoqsil miqdori tajribalar yakuniga kelib nazorat guruhidagi tovuqlarda o'rtacha 2,8 g/l ga kamayganligi va 1-tajriba guruhidagi tovuqlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 2,0 g/l ga, 2-tajriba guruhidagi tovuqlarda o'rtacha 2,4 g/l ga ko'payganligi aniqlandi. Qondagi glyukoza miqdori nazorat guruhidagi tovuqlarda tajribalar oxiriga kelib daslabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha 1,56 mmol/l ga, birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarida o'rtacha 0,12 mmol/l ga va

ikkinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda esa bu ko'rsatkichning o'rtacha 0,10 mmol/l ga ko'payganligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi tovuqlar qonidagi glyukoza miqdorining 29%ga oshganligiga sabab, jigarda yog'li distrofiya rivojlanganligi uchun jigar hazm traktidan tushgan glyukozaning barchasini glikogenga aylantira olmay uning bir qismini periferiya qoniga o'tkazib yuboradi, deb izohlaymiz.

Tajribalar davomida qon zardobidagi umumiyl bilirubin miqdori birinchi tajriba guruhidagi parrandalarda deyarli o'zgarmagan bo'lsada, ikkinchi tajriba guruhidagi parrandalarda dastlabki ko'rsatkichga nisbatan o'rtacha 0,16 mkmol/l ga kamayganligi va nazorat guruhidagi tovuqlarda esa bu ko'rsatkichning o'rtacha 0,94 mkmol/l ga oshganligi xarakterli bo'ldi.

Nazorat guruhidagi parrandalarda bilirubin miqdorining oshganligini jigarda rivojlangan yog'li distrofiya sababli o't ishlab chiqarilishining kamayganligidan deb hisoblasak, rasioniga qo'shimcha ravishda sut qushqo'nmasi – rastropsha pyatnistaya - Silybum marianum o'simligining doni talqonidan (1kg 1 tonna yemga) qo'shilgan ikkinchi guruhidagi tovuqlarda bilirubin miqdori o'rtacha 0,16 mkmol/l ga kamayganligini uning profilaktik samaradorligidan deb izohlaymiz.

Qondagi xolesterin miqdori nazorat guruhidagi tovuqlarda tajribalarning oxiriga (42-hafta) kelib boshlang'ich ko'rsatkichlarga (26-hafta) nisbatan o'rtacha 2,76 mmol/l ga oshganligini ko'rsatdi. Birinchi tajriba guruhidagi tovuqlar qonidagi xolesterin miqdori tajribalar davomida 1,34 mmol/l ga ko'payib, me'yor chegarasida qoldi. Ikkinchi tajriba guruhidagi tovuqlar qon tarkibidagi xolesterin miqdori deyarli o'zgarmadi.

Guruhli profilaktik terapiyaning samaradorligi tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi, mahsuldorligi hamda tirik vaznining ortishiga qarab baholandi.

Tovuqlar tana vazni tajribalarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan tajribalarning oxiriga kelib nazorat guruhidagi tovuqlarda o'rtacha 78 grammga, birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda o'rtacha – 158 grammga va ikkinchi tajriba guruhida o'rtacha – 180 grammga ortganligi tajribalarda aniqlandi.

Tajribalar oxiriga kelib, birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda tuxum massasi o'rtacha $61,2 \pm 1,3$ grammni, ikkinchi tajriba guruhida o'rtacha $61,8 \pm 1,2$ grammni va nazorat guruhidagi tovuqlarda esa tuxumlarning vazni o'rtacha $60,2 \pm 1,2$ grammni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval.

Tovuqlar tana vazni va saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari. (n=15)

Guruhrular	Tana vazni, kg		Tuxumning o'rtacha massasi, g	Saqlanuvchanlik, %
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida		
Nazorat	1698±6,2	1776±8,4	60,2±1,2	86,4
1-tajriba	1696±6,8	1856±8,6	61,2±1,3	97,5
2- tajriba	1696±7,2	1876±6,4	61,8±1,2	98,5

Nazorat guruhidagi tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 86,4% ni, birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda saqlanuvchanlik – 97,5% ni, ikkinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda saqlanuvchanlik – 98,5%ni tashkil etdi.

Xulosalar. 1. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda gepato-distrofiya tuxum berish davrining oxirgi oyolarida (40-50hafta) ko'proq namoyon bo'lib, uning asosiy sabablari tovuqlarni yuqori kaloriyalı ratsionlarda boqish, ratsion tarkibida sifatsiz yog'larning bo'lishi, vitaminlar(A, E, B₄), aminokislotalar (metionin, lizin) va mineral moddalarning yetishmasligi bo'lib hisoblanadi.

2. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda jigarning yog'li distrofiasi surunkali kechib, umumiyl holsizlanish, ishtaha va mahsuldorlikning pasayishi, gipodinamiya, ko'zga ko'rindigan shilliq pardalar, toj va sirg'alarda kamqonlik belgilari va qorin devori pastki qismining qalinlashuvi kabi klinik belgililar bilan xarakterlanadi.

3. Tovuqlar mahsuldorlik davrining 26-42 haftalarida rasionga qo'shimcha ravishda 1 tonna granulalangan omuxta yem tarkibiga 208 g PERMASOL-500 vitaminli-mineralli-aminokislotali premaksi va 1 kg sut qushqo'nmasi (rastropsha pyatnistaya - Silybum marianum) o'simligining doni talqonidan qo'shib berilishi jigar yog'li distrofiyasining oldini oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гусева И.И. Растаропша пятнистая в комбикормах для кур-несушек/Гусева И.И., Ленкова Т.Н. //Птицеводство. -2022.-№12. С.32-35.

2. Кондрахин И.П. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. / И.Кондрахин, В.Левченко. - М.: Аквариум-Принт, 2005. - 830 с.

3. Кузьминова Е. В. Диагностическое значение биохимических показателей крови при гепатопатологиях / Е. В. Кузьминова, М. П. Семененко, Е. А. Старикова, Т. В. Михалева // Ветеринария Кубани. 2013. № 5. С. 11–13.

5. Мухина Н. Мидивет - уникальная кормовая добавка. / Н.Мухина, А.Смирнова, Е.Крюкова, Т.Каблучеева. // Птицеводство. - 2006. - №5. - С.21-22.

6. Семененко М. П. Влияние функциональной кормовой добавки на рост и развитие цыплят-бройлеров /М. П. Семененко, И. С. Жолобова, Т. А. Лымарь //Труды Кубанского государственного университета, 2013.– № 45.–С. 181–182.

7. Семененко М. П. Доклиническое изучение гепатоза защитного средства / М. П. Семененко, Е. В. Кузьминова, Е. В. Тяпкина, О. А. Фомин // Вопросы нормативно-правового регулирования в ветеринарии. 2015. № 2. С. 141–143.

8. Соколов, М. Н. О применении гепатопротекторов в птицеводстве / М. Н. Соколов// Молодой ученый. - 2016. - № 20 (124). - С. 110-113.

9. Хорошилова И.Н. Эффективность лечебно-профилактического действия дипроанемина при гепатозах цыплят и кур-несушек. Автореферат диссертации.1997.

**QO'YLAR JUNXO'RLARIGA QARSHI CYPRA EC PREPARATINING
INSEKTITSIDLIC SAMARADORLIGI**

**A.A. Djalolov, tayanch doktorant,
F.S.Pulotov, v.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim-ilmiy rahbar;
A.Sh.Ismoilov, v.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim,
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti**

Annotatsiya

Maqolada qo'ychilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida qo'ylarning asosiy ektoparaziti hisoblangan Bovicola ovis junxo'rining biologiyasi va ushbu ektoparazit ta'sirida yuzaga keladigan bovikolyoz kasalligining klinik belgilari bayon qilingan. Qo'ylarning Bovicola ovis junxo'riga qarshi kurashishda yangi Cypra EC preparatining insektitsid samaradorligini o'rganish bo'yicha laboratoriya sharoitida sinov tajribalarini o'tkazilgan. Natijada, Bovicola ovis junxo'rlariga qarshi Cypra EC preparatining eng minimal va yugori samara beradigan 0,025 foizli suvli emulsiyalari laboratoriya sharoitida 100 foiz insektitsid samara berishi aniqlangan.

Kalit so'zlar. Bovicola, bovikolyoz, qo'y, junxo'r, parazit, hasharo, nimfa, lichinka, imago, ekstens zararlanish, insektitsid, Cypra EC, dezinseksiya.

Mavzuning dolzarbliyi. Bugungi kunda aholini sifatli go'sht bilan ta'minlash, go'shtga bo'lgan talabini qondirish maqsadida qo'ychilik sohasiga e'tibor qaratilmoqda. Qo'ylardan oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht) va yengil sa-noatga qimmatli xomashyo (jun, teri, mo'yna) yetkazib beriladi. Qo'y juni xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'y jundayn gazmol, trikotaj buyumlar, gilam va h.k., terisidan po'stin, mo'ynasidan turli kiyim-kechaklar tikiladi, go'shti oqsil va yog'ga boy to'yimli hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar asosida veterinariya sohasi ham jadal rivojlanib, bu sohada juda ko'plab ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq qo'ylar orasida keyingi yillarda bovikolyoz kasalligining avj olishi ularning go'sht va jun berish mahsulorliklari kamayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun qo'ylar tanasida parazitlik (tekinox'rlik) qilib yashaydigan hasharotlar, ya'ni junxo'rlar biologiyasini o'rganish hamda ularga qarshi kurashishning yangi bezarar usul va vositalarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Qo'ylar bovikolyozini qo'zg'atuvchisining biologiyasini o'rganish va ularga qarshi kurashishda yangi insektitsid preparatlarning samaradorligini o'rganishdan iborat.

Materiallar va usullar. Ilmiy tadqiqot ishlari Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Araxnoentomologiya va akaralogiya laboratoriyasida olib borildi. Institut vivariyasiidagi qo'ylar entomologik tekshiruvlardan o'tkazildi. Bovicola ovis kasalligining dastlabki tashxisi qichishish va qashinish kabi klinik belgilari bo'lgan qo'ylarni tekshirish orqali aniqlandi. Terining ta'sirlangan joylaridagi teri va jun tolasidan olin-gan namunalar alohida-alohida polietilen paketlarga solindi va laboratoriya keltirildi. Terilgan hasharotlar turlari qo'llanma va aniqlagich jadvallar («Определител пухоедов (Маллофага) домашних животных». Фауна СССР. М.-Л.: изд. АН СССР, 1940; Пухоеды. Част 1. изд. АН СССР, 1959, Д.И.Благовещенский) kabi maxsus adabiyotlar hamda mikroskop MBC yordamida aniqlandi [2,3,4].

Kasallikning klinik belgilari. Yosh qo'zilarga bovikolalar hayotining birinchi kunlarida zararlangan onalaridan yuqadi. Parazitlar xizmat ko'rsatish xodimlari va parva-

Annotation
The article describes the biology of Bovicola ovis, the main ectoparasite of sheep in specialized sheep farms, and the clinical signs of bovicolosis caused by this ectoparasite. Laboratory experiments were conducted to study the insecticidal efficacy of the new Cypra EC preparation in combating Bovicola ovis. As a result, it was found that the 0.025% aqueous emulsions of Cypra EC, which provide the minimum and highest efficacy against Bovicola ovis, provide 100% insecticidal efficacy in laboratory conditions.

rishlash vositalari orqali ham o'tishi mumkin. Bovikolalarning ko'payishi va rivojlanishi uchun qulay davr – qish va bahor fasllari bo'lib, hayvonlar zich boqilganda, qalin jun orasida ko'payish uchun sharoit bo'ladi.

Bovicolyozda qo'ylar bezovta bo'ladi, qattiq qichish, ishqalanish holatlari kuzatiladi, teri va junlarga zarar yetadi va dermatitni boshdan kechiradi. Qo'ylarda bovikolalar asosan to'g'ridan to'g'ri quyosh nuridan himoyalangan joylarida joylashgan bo'lib, bu shoxlar, qulolqar va dumlar, qo'litiq va sonlarini ichki qismida joylashgan bo'ladi. Bovikolalar parazitlik qilishi natijasida termoregulyatsiya buziladi, giperkeratoz paydo bo'ladi, junlar to'kiladi va teri junsiz qolishi kuzatiladi.

Rivojlanish biologiyasi. B.ovisning tana uzunligi – 1,4-1,6 mm, tana dorsoventral tomondan yassilashgan. Ko'zlarini rudimentlashgan va boshning yon tomonlarida joylashgan. Qorin bo'shlig'i 8-10 bo'g'indan iborat.

Bovikolalar rivojlanishi to'liq bo'lmagan metamorfoz bilan sodir bo'ladi. Juftlashgandan so'ng urg'ochisi junlarning ildiz qismiga tuxum qo'yib, ularni bachardon sekretsiyasi bilan biriktiradi. 7-12 kun ichida tuxum lichinkaga aylanadi. Ular uch haftada imagogg'a aylanadi. Imagolarning umri 20-40 kunni tashkil qiladi, bu davrda urg'ochilar 20-100 tagacha tuxum qo'yadi. Bovikolalar hayvon tanasidan tashqarida 5 kundan ortiq yashay olmaydi [1,5,6,7].

Tadqiqot natijalari. Qo'ylarning araxnoentomozlari ga qarshi kurashishda chetdan keltirilayotgan va o'zimizda ishlab chiqarilayotgan yangi piretroid va fitoasosli insektitsid preparatlardan keng foydalanoilmoqda. Shularni hisobga olib toksikologik xususiyatlari yaxshi o'rganilgan va kanserogen, mutagen, embriotoksik xususiyatlari bo'lmagan yangi sintetik piretroid preparatlarning parazotsidlik ta'sirini laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida o'rganib chiqdik. Jumladan, yangi Cypra EC 20% ("Heranza Industries Limited", Mumbai. Ro'yxatga olish raqami: VP-3944-16, 08.09.2016) piretroid preparatining har xil konsentratsiyalardagi suvli emulsiyalari laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida qo'ylarning bovikolyoz kasallik qo'zg'atuvchilari (junxo'rlar)ga qarshi insektitsidlik xususiyati o'rganib chiqildi. Bunda, Cypra EC preparatining har xil konsentratsiyadagi suvli emulsiyalari

tayyorlanib, laboratoriya sharoitida qo'ylar junxo'r (Bovicola ovis)lariga qarshi sinab ko'rildi. Bunda birinchi marotaba o'rganilayotgan yangi Cypra EC piretroid preparatining har xil konsentratsiyalari, ya'ni 0,008, 0,01, 0,015, 0,02, 0,025, 0,03, 0,035, 0,04 foizli suvli emulsiyasi tayyorlanib, Petri idishchasiga joylashtirilgan filtr qog'oziga tajribadagi preparatning suvli emulsiyasidan purkagich dozator yordamida sepildi va ushbu dorilangan filtr qog'ozini yuzasiga yangi terib olingan junxo'rlar 30 nusxdan qo'yib yuborildi va o'tkazilgan sinov tajribalari natijasida ushbu preparatlarning eng minimal va yuqori samarali (100 foizli) konsentratsiyasini aniqlash maqsadida qo'yidagicha sinov-tajriba ishlari o'tkazildi:

1-tajriba. 3 ta Petri kosachasi ichiga mos ravishda filtr qog'ozini joylashtirilib, har bir filtr qog'ozini yuzasi 3,8 ml dan Cypra EC preparatining 0,008 foizli suvli emulsiyasi bilan dorilandi. Shu dorilangan filtr qog'ozini yuzasiga yangi terib olingan 30 nusxdan junxo'rlar qo'yib yuborildi va 10 daqiqadan so'ng ular toza Petri kosachalarga olinib, optimal sharoitga, ya'ni +35 °C haroratdagi termostatda saqlab har 1, 3, 6, 24 saat davomida kuzatish ishlari olib borildi.

2-tajriba. Xuddi yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra EC preparatining 0,01 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi.

3-tajriba. Xuddi yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra EC preparatining 0,015 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi.

4-tajriba. Yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra EC preparatining 0,02 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi.

5-tajriba. Yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra EC preparatining 0,025 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi.

6-tajriba. Yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra EC preparatining 0,03 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi.

7-tajriba. Yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra EC preparatining 0,035 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi.

8-nazorat guruhi. Xuddi yuqorida qayd qilinganidek, tajriba ishlari olib borildi, faqat toza suv bilan ishlov berildi. Tajriba natijalari 24 soatdan so'ng o'lган va tirik qolgan junxo'rlar soni aniqlanib, samara ko'rsatkichi (foiz) hisoblandi.

Natijada preparatni O'K₀ (o'ldirmaydigan konsentratsiya), O'K₅₀ (50 foiz o'ldiradigan konsentratsiya) va O'K₁₀₀ (100 foiz o'ldiradigan konsentratsiya) ko'rsatkichlari aniqlandi.

Har bir konsentratsiya 3 martadan qayta o'rganildi. Bovikolalarning o'lish tezligiga va miqdoriga qarab preparatning ta'sir kuchi ham belgilandi. Bunda,

1-tajriba guruhidagi junxo'rlearning - 0 foizi;

2-tajriba guruhidagi junxo'rlearning -30 foizi;
3-tajriba guruhidagi junxo'rlearning - 50 foizi;
4-tajriba guruhidagi junxo'rlearning - 80 foizi;
5-tajriba guruhidagi junxo'rlearning - 100 foizi;
6-tajriba guruhidagi junxo'rlearning - 100 foizi;
7-tajriba guruhidagi junxo'rlearning - 100 foizi o'lganligi;
8- nazorat guruhidagi junxo'rlearning - 100 foizi tirik ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Laboratoriya sharoitida Cypra EC preparatining suvli emulsiyalarining insektitsid ta'sirini o'rganish tajribasi

Tajriba guruhlari	Preparatni qo'llanish konsentratsiyasi (s.e., %)	Dorilangan junxo'rlar soni (nusxa)	O'lgan junxo'rlar soni (nusxa)			Samara (%)	
			Soatdan so'ng				
			1	6	24		
1	0,008	30	0	0	0	0	
2	0,01	30	0	4	9	30	
3	0,015	30	0	9	15	50	
4	0,02	30	1	19	24	80	
5	0,025	30	3	21	27	100	
6	0,03	30	6	26	30	100	
7	0,035	30	6	27	30	100	
8	Nazorat (toza suv bilan ishlov berildi).	30	0	0	0	0	

Demak, Cypra EC preparatining eng minimal va 100 % insektitsid samara beradigan 0,025 foizli suvli emulsiyasi junxo'rarga nisbatan laboratoriya sharoitida 100 foiz samara berishi aniqlandi hamda Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyalarda mavjud 39 bosh qo'yilda amaly sinov tajriba ishlari o'tkazildi (1-rasm, 2-jadval).



1-rasm. Qo'ylearning junxo'rlari va ularga qarshi dezinfeksiya jarayoni

Ushbu jadvalda keltirilgan laboratoriya qo'ylarining har biriga Cypra EC preparatining 0,025 foizli suvli emulsiyasi maxsus dezinfeksiyon qurilma yordamida 1,0-2,0 l/boshdan 2 marta (12 kun oralig'i bilan) sinov tajribalari o'tkazilganda qo'ylar tanasidagi junxo'rarga nisbatan 100 % insektitsid samara berishi aniqlandi.

2-jadval.

Qo'ylearning junxo'rlariga qarshi Cypra EC preparatining insektitsid samaradorligi

T/r	Xo'jaliklar nomi	Mol turi va bosh soni	Preparat nomi va konsentratsiyasi, %	Topilgan turlar	Qo'llash shakli, dozasi va usuli	Samara (%)
1	"Mikrobiologiya" lab.	Qo'yilar, 16 bosh	"Cypr EC", 0,025 %, s.e.	B.ovis	1,0-2,0 litr /bosh, purkash	100
2	"Tuberkulyoz" lab.	Qo'yilar, 10 bosh		B.ovis	1,0-2,0 litr /bosh, purkash	100
3	"Hududiy diagnostika" lab.	Qo'yilar, 13 bosh		B.ovis	1,0-2,0 litr /bosh, purkash	100

Xulosa. Cypra EC preparatining qo‘ylar junxo‘rlariga nisbatan O‘K₀ (o‘ldirmaydigan konsentratsiya)si – 0,008, o‘rtacha O‘K₅₀ (50 foiz o‘ldiradigan konsentratsiya)si – 0,015 va eng minimal va yuqori samara beradigan O‘K₁₀₀ (100 foiz o‘ldiradigan konsentratsiya)si - 0,025 foizli suvli emulsiyalarning insektitsid samaradorligi aniqlandi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акбаев Р.М., Пуговкина Н.В. “Бовиколёс крупного рогатого скота в животноводческих хозяйствах Московской области” // “Ветеринария”, Изд. “Логос Пресс” (Москва), - 2017.- № 1,- С. 10-13.

2. Бей-Биенко Г.Я. Определител насекомых Европейской части СССР. «Наука», Л., 1969, т.5, ч.2.

3. Благовещенский Д.И. «Определител пухоедов (Маллопхага) домашних животных». Fauna СССР. М.,-Л.: изд. АНСССР, 1940.

4. Благовещенский Д.И. Вши домашних млекопитающих. Изд.АНСССР, М.,Л., Москва, изд. селхозлитературы, 1962.

5. Куртев В.А. Биологическое обоснование средств и методов борьбы с псороптозом, гематопинозом и бовиколезом крупного рогатого скота // В.А. Куртев: автореф. дис.канд. вет. наук. - Тюмен: Ризограф, - 2005.- С.11-13.

6. Ro‘zimurodov A. Evolyusiya qonuniyatlari va zoobioxilmayillik. “Zarafshon” nashriyoti DK, Samarqand, 2008.

7. Рузимурадов А. Паразитизм биологический. Оптимизация животноводства., “Зарафшон” ДК нашриёти, Самарқанд,2011.

УО‘К: 636.592.4

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA KURKALARING TARQALISHI VA QONINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

N.P.Dauletbayev,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali tayanch doktoranti,
<https://orcid.org/0000-0001-6413-1008>,*

R.M.Tashtemirov,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, v.f.n., professor

Аннотация

В данной статье представлены результаты научные исследования проводились в хозяйствах, содержащих индеек разного возраста. В северных районах Республики Каракалпакстан зафиксирована средняя распространенность узбекской палевой индейки.

Во время исследований были выявлены морфологические изменения в крови разных пород индеек в молодом возрасте. Результаты показали, что у узбекской палевой индейки уровень гемоглобина в крови выше, чем у других индеек.

На основании полученных данных предложены мероприятия по планомерному разведению индеек. В данной работе основное внимание уделено увеличению поголовья индеек в птицеводческих хозяйствах и улучшению условий их содержания.

Kalit so‘zlar: O‘zbek och sariq kurkasi, Kegeyli, Bo‘zatov, Chimboy, Qoraq’zak va Taxtako’pir tumanlari, eritrotsit, leykotsit, hemoglobin.

Mavzuning dolzarbliji. So‘nggi paytlarda O‘zbekistonda kurkachilik sanoati parrandachilikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tiborni jalb etib kelmoqda. Zamoniyy kurkachilik komplekslari paydo bo‘lib, kurka go‘shtini ishlab chiqarish yildan yilga o‘sib bormoqda.

Kurka go‘shti tez hazm bo‘lishi va boshqa hayvonlarning go‘shtidan farqli o‘laroq oqsillar miqdori ko‘pligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan kurkalarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida tizimli ko‘paytirishga, ularning organizmini o‘rganishga yetarlichcha e’tibor berilmayapti. Shu sababdan, tadqiqotlarimizning dastlabki bosqichida biz kurkalarini Qoraqalpog‘iston respublikasida ko‘paytirish, tarqalishi va ular qonining ko‘rsatkichlari to‘g‘risida hamda dunyo olimlarining bu borada ma’lumotlari bilan tanishtirmoqchimiz.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Parrandachilikda istiqbolli va jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri kurka yetishtirish – kurkalar qirg‘ovullar oilasining turkumidagi

This article presents the results of scientific research conducted on farms containing turkeys of different ages. In the northern regions of the Republic of Karakalpakstan, the average prevalence of Uzbek fawn turkey was recorded.

During the study, morphological changes in the blood of different turkey breeds at young ages were observed. The results showed that the Uzbek pale yellow turkey had higher hemoglobin in its blood than other turkeys.

Based on the data obtained, measures for systematic breeding of turkeys were proposed. This study focuses on increasing the number of turkeys in poultry farming and their housing conditions.

Annotation

This article presents the results of scientific research conducted on farms containing turkeys of different ages. In the northern regions of the Republic of Karakalpakstan, the average prevalence of Uzbek fawn turkey was recorded.

During the study, morphological changes in the blood of different turkey breeds at young ages were observed. The results showed that the Uzbek pale yellow turkey had higher hemoglobin in its blood than other turkeys.

Based on the data obtained, measures for systematic breeding of turkeys were proposed. This study focuses on increasing the number of turkeys in poultry farming and their housing conditions.

yirik qushdir. Tarixchilarning ta’kidlashicha, 1520-yilga kelib Ispanlar kurkalarini Yevropaga olib kelgan, bu davrda parrandachilik yaxshi rivojlanayotganligi aytilgan [6].

Kurkalarning turli zotlari va krosslarida go‘shtning ta’mi va ozuqaviy xususiyatlarida bir-biridan keskin farq mayjud.

Kurkalar (Meleagris) Amerika qit’asida paydo bo‘lib, 1523-yili ular Yevropa davlatlariga “dengiz orti tovuqlari” nomi bilan Ispanlar tomonidan olib kelingan, keyinchalik Osiyo davlatlariga ham shu yerlardan tarqalgan. Uy parrandalari ichida kurkalar gavdasi eng yirigi hisoblanib, nerv faoliyatining yaxshi rivojlangan darajasiga ega, bu ularga yakka va guruhli harakatlarini bajarishga imkon berib kelmoqda [13, 15].

O‘zbekistonda och sariq va mis rang mahalliy kurkalar tarqalgan. Ular Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlari tumanlarida va Qoraqalpog‘iston respublikasida ko‘proq uchraydi. Zoomuxandislikka doir adabiyotlarda O‘zbekistonda kurkachilik to‘g‘risida ilmiy asarlar deyarli

yo‘q. Ammo aholi bu yirik va tez o‘sadigan parrandalar ni azaldan urchitib kelmoqda. Masalan, “Turkestanskoye sel’skoye xozyaystvo” jurnalining 1906, 1913, 1915-yillarda chiqarilgan sonlarida hozirgi O‘zbekiston hududidagi bir nechta yirik kurkachilik fermalari to‘g‘risida qisqacha tavsif berilgan va mahalliy aholi mis rang, Amerika hamda jaydari kurkalar, ko‘pincha och sariq kurkalarni boqqanligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan [1].

O‘zbekistonda kurkalarни ko‘paytirish bo‘yicha ish 1958-yilda Z.Ashurov va R.Aripdjanovlar tomonidan Samarqand viloyati Nurota tumani “Kommunizm” sovxozida olib borilgan. Ushbu vaqtida qishloqda faqat 300 bosh mahalliy zotli kurka bo‘lgan [2].

Kurkalarning O‘zbek och sariq (палевая; рус.) populatsiyasi juda chiroylı va o‘ziga xos pat rangiga ega. Rangi bir nechta ranglarni birlashtiradi: pushti, oq va qora bilan ochiq jiggarrang [4].

Go‘shtlilik shakli bo‘yicha ular oq kurka va bronza Shimoliy Kavkaz kurkalaridan pastroq keladi. Shunga qaramay, ular aholi orasida katta talabga ega, chunki ular yaylovlarida uzoq vaqt qolishga moyil va shu bilan birga noqulay ob-havo sharoitlariga rezistentligi yuqori [3].

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi vazirligining 2010-2012 yillardagi ma‘lumotlariga ko‘ra. Dunyodagi kurkalar soni 476 481 ming boshga (106 foizga) o‘rtgan. Kurka go‘shtini ishlab chiqarish esa 5290 ming tonnadan 5610 ming tonnaga oshib, yiliga bir kishiga 0,8 kilogrammni tashkil etgan [10].

Kurkachilik xo‘jaliklarining ma‘lumotlariga asoslanib “AGRIFOOD Strategies” kompaniyasining xabariga ko‘ra, Rossiyada 2023-yilda kurka go‘shtini ishlab chiqarish 2022-yilga nisbatan 1,8 foizga o‘sib, so‘yish og‘irligida 414,5 ming tonnadan 422,000 tonnaga yetgan [9].

Kurkalarning klinik holatini aniqlash uchun qonning morfologik ko‘rsatkichlari ko‘pincha qo’llaniladi, chunki ular nafas olish gazlarini tashishni ta‘minlash bilan bog‘liq va shu sababli hayvon organizmida oksidlanish-sorilish reaksiyalarining samaradorligi, shuningdek, uning immunologik reaktivlik darajasini belgilaydi [8].

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kurkalarning tarqalishi, uchrash darajasi va qonining morfologik o‘zgarishlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot joyi va usullari. Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlaridagi aholi qaramog‘ida boqiladigan har xil yoshta mansub kurkalar ustida olib borildi.


Olingan barcha raqamli ma‘lumotlar Styudent va Fisher usullari yordamida Microsoft Excel elektron jadvalida bajarildi.

Tadqiqot natijalari. Ilmiy ishimiz davomida aniqlanishi cha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida 2024-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda (2023-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 1,4 % ga ko‘p), parrandalar soni 5.271,2 ming boshga yetgan. Parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, parrandalar umumiy sonidan 10,2 % fermer xo‘jaliklariga (539,5 ming bosh), 75,6 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga (3985,3 ming bosh), 14,2 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi (746,4 ming bosh) tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda (2023- yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 2,8 % ga ko‘p), parrandalar soni 5.380,6 ming boshga yetgan. Parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari

bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, parrandalar umumiy sonidan fermer xo‘jaliklariga 590,7 ming bosh, dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga 4 023,3 ming bosh va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 766,6 ming boshga to‘g‘ri keladi [14].

Izalanishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi xonodonlarida parvarishlanayotgan mahalliy o‘zbek zotli (O‘zbek och sariq tusli kurkasi - Uzbeks-kaya palevaya indeyka) kurkalarning jami 76,950 ming bosh soni boqilyapti (1-rasm). Shundan, o‘rtacha ko‘rsatkish shimaliy hududdagi tumanlarda, ya’ni 19268 ming bosh songa to‘g‘ri keldi.



1-rasm. Qoraqalpog‘iston respublikasi aholi xonodonlaridagi kurkalar soni

1-rasmida ko‘rinib turganiday, aholi xonodonlaridagi kurkalar bosh soni yuqori ko‘rsatkichi janubiy hududdagi (Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l) tumanlariga, o‘rtacha ko‘rsatkich esa shimoliy hududdagi (Kegeyli, Bo‘zatov, Chimboy, Qora'zak, Tuxtako'pir) tumanlariga va past ko‘rsatkich markaziy hududdagi (Taxiatosh, Xo'jayli, Shumanoy) tumanlariga to‘g‘ri keldi.



2-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi xonodonlaridagi mahalliy kurkalar

Parrandalarning qizil qon hujayralari juda katta bo‘lib, yashovchanligi 28-45 kun. Bu har 4-6 haftada yangi qon hujayralari ishlab chiqarilishini anglatadi [7].

Xorijiy mualliflarning qon tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, tahlil qilingan zotlarning bir xil yoshdagи kurkaldarda qondagi eritrotsitlarning o‘rtacha miqdori $2,75 \times 10^{12}/\text{l}$ bo‘lib, leykotsitlar bo‘lsa o‘rtacha $18,31 \times 10^9/\text{l}$ miqdorda va Kumush rang Shimoliy Kavkaz kurka (uni yaratishda O‘zbek och sariq kurkasi ham qo‘llangan) zotining qondagi gemoglobini boshqa (1-jadval) kurkalarga nisbatan 0,02 – 2,32 g/l ga yuqori bo‘lgan [5].

1-jadval.

Kurka qonining morfologik ko‘rsatkichlari.

Kurka zotlari	Qondagi tarkibi		
	Eritrotsitlar, $10^{12}/\text{l}$	Leykotsitlar, $10^9/\text{l}$	Gemoglobin, g/%
	Fiziologik me’yor (Kudryatsev A.A., 1973)	2,5-3,5	20,0-40,0
Mis rang Shimoliy Kavkaz	$2,77 \pm 0,13$	$18,71 \pm 0,65$	$104,23 \pm 0,24$
Oq rang Shimoliy Kavkaz	$2,76 \pm 0,10$	$18,56 \pm 0,42$	$104,71 \pm 0,73$
Kumush rang Shimoliy Kavkaz	$2,75 \pm 0,09$	$18,51 \pm 0,69$	$104,73 \pm 0,91$
Moskva oq rangli	$2,74 \pm 0,11$	$17,73 \pm 0,64$	$102,41 \pm 0,31$
Mahalliy o‘zbek (O‘zbek och sariq kurkasi)	$2,74 \pm 0,14$	$18,23 \pm 0,84$	$103,73 \pm 0,64$
Qora Trixoretskaya	$2,75 \pm 0,17$	$18,12 \pm 0,66$	$104,33 \pm 0,21$

Ayrim mualliflarning ilmiy ishlariga ko‘ra, Kumush rang Shimoliy Kavkaz kurka zotlaridan foydalanish samaradorligini o‘rganib, Oq keng ko‘krakli zoti bilan urchitib, U2 va O2 liniyalarini ko‘rsatgan. Natijada 140 kunlik duragaylar asl zotlarga nisbatan eritrotsitlar miqdori 5,8 - 6,9 % ga, leykotsitlar esa - 6,2 - 6,9 % ga va gemoglobin miqdori - 9,1 - 10,5 % yuqori bo‘lgan [11].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida ko‘pincha aholi xonadonlarida “Mahalliy o‘zbek zotli” (O‘zbek och sariq tusli) kurkasi boqilyapti. Kurka jo‘jalari birinchi kunlari taxtadan yasalgan yemdonlarda boqilib, ularning o‘lchami 45x45 sm yoki 50x60 sm, tagi fanderdan, devorlar qalinligi 2-2,5 sm, balandligi 4 sm bo‘ladi. Uzunligi 85-100 sm, eni 14-16 sm ga yetadi, balandligi bo‘lsa 10-12 sm bo‘lgan yemdonlarning ichki tomonidan qalinligi 1,5 sm, eni 3 sm bo‘lgan taxta reykasi qoqiladi. Kurkalar yemni sochib tashlamasligi uchun yemdonning ustiga diametri 2 sm bo‘lgan parrak o‘rnatish tavsiya etilgan [12].

Xulosalar:

1. O‘zbekistonda kurkachilik qadimdan ya’ni bir asrdan ziyod vaqtidan avval ma‘lum bo‘lgan.
2. Qoraqalpog‘iston respublikasida kurkachilik shimolda, ya’ni Qorao‘zak va Kegeyli tumanlarida o‘rtacha rivojlangan bo‘lib, asosan mahalliy O‘zbek och sariq kurkasi boqiladi.
3. Har xil zotli kurkalar o‘rtasida qondagi eritrotsitlar, leykotsitlar va gemoglobin miqdorida farqlar mavjud. Qondagi eritrotsitlar va leykotsitlar soni bo‘yicha Mis rang Shimoliy Kavkaz kurka zoti, Gemoglobin miqdori bo‘yicha esa Kumush rang Shimoliy Kavkaz kurka zoti ustunlik qiladi.

Olingen materiallardan veterinariya va zootexnika amaliyotida ish olib borish va tahlil qilishda ma’lumotnomma sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ашуроев, З., Ye.B.Рибина. Куркачилик/ Ўзбекистон ССР давлат нашриёти. Тошкент: -1959. – 46-б.
2. Ашуроев, З. М. Разведение индеек в Узбекистане / З. М. Ашуроев, Р. Арипджанов. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1963. – 48 с.
3. Ашуроев, З. М. Мясная продуктивность индюшат различных линий и типов / З. М. Ашуроев, В. Б. Хон, Р. П. Тян // Сб. рефератов УзНИЖ. 1983. №. 38. С. 3337.
4. Ашуроев, З. Повышение продуктивности индеек местной популяции Узбекистана / З. Ашуроев. Краснодар, 1989. 45 с.
5. Зинченко, Д.А., Беляев, В.А., Епимахова, Е.Э., Л.А. Шинкаренко, Черных, О.Ю. «Морфологические показатели крови индеек различных пород» Известия Оренбургского государственного аграрного университета, по. 6 (68), 2017, pp. 144-147.
6. Зимняков В.М., Гаврюшина И.В. Производство мясных полуфабрикатов функционального назначения – надежный путь оптимизации их потребления // Нива Поволжья. 2015. № 3 (36). С. 59–63.
7. Козлова, С. В. Изучение фона лейкоцитарных индексов цыплятбройлеров / С. В. Козлова – Текст: непосредственный // Сборник статей II всероссийской (национальной) научно-практической конференции «Современные научно-практические решения в АПК», Тюмень, 26 октября 2018 года / Государственный аграрный университет Северного Зауралья. Том Часть 1. – Тюмень: ФГБОУ ВО Государственный аграрный университет Северного Зауралья, 2018. – С. 142-145.
8. Копылова, А. С. Гематологические показатели курнесушек в условиях интенсивных технологий / А. С. Копылова, К. А. Сидорова – Текст: непосредственный // АПК: инновационные технологии. – 2023– № 2(61). – С. 24-33.
9. Консалтинговое агентство «АГРИФУД Стретеджис», Министерства сельского хозяйства РФ и информации Национальной ассоциации производителей индейки (НАПИ). Публикация 2024 г. <https://vnipp.ru/izdaniya/publikatsii-na-sajte/materialy-partnerov/rejting-vedushhih-proizvoditelej-indejki-v-rossii-v-2023-godu/>
10. Мысик А.Т. Развитие животноводства в мире и России / Т. Мысик // Зоотехния.-2015.-№ 1.-С.2-5.
11. Погодаев В.А., Канивец В.А., Шинкаренко Л.А. Гематологические показатели и интенсивность роста молодняка индеек различных генотипов // Ветеринарная патология. 2012. № 4. – С. 36 – 39.
12. Dauletbayev N.P., Tashtemirov R.M. Kurkalarning kelib chiqishi, tarqalishi, saqlash sharoiti va oziqlantirish xususiyatlari. // Veterinariya meditsinasi. 2025. №3, B.13-15.
13. Qurbonov R. Parrandachilik sirlari / To‘plab, nashrga tayyorlovchi: - T.: Meriyus, 2013 y., 96 bet.
14. Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi <https://qrstat.uz/uz/nashrlar/press-relizlar>
15. Tashtemirov R. M., Dauletbaev N. P. Feeding in postnatal ontogenesis of turkeys //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-34.

UDK 619:636.7:616-006:52

J.B.Yulchiyev, doktorant (DSc), PhD,
jasurvet0908@gmail.com,
ORCID ID:0000-0002-6521-1058

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

URG‘OCHI MUSHUKLARNI STERILIZATSIYA QILISHNING JINSIY ORGANLAR VA SUT BEZI O‘SMALARI O‘SISHIGA TA’SIRI

Аннотация

Практика стерилизации и кастрации собак и кошек рекомендована экспертами для сокращения популяции собак и кошек и защиты их от различных заболеваний. В статье представлены результаты исследования, проведенного в Узбекистане по изучению влияния стерилизации кошек на развитие онкологических патологий половых органов и молочных желез. Исследования, проведенные экспертами, сообщали о возникновении, росте и развитии опухолей молочной железы и яичников в результате стерилизации кошек в разном возрасте, а также изучили влияние стерилизации кошек на снижение риска онкологических заболеваний. Результаты исследования также показывают важность процесса стерилизации для общего здоровья кошек, профилактики опухолей молочных желез и яичников, а также дают рекомендации и выводы.

Kalit so‘zlar: kuyikish, jinsiy siki, sterilizatsiya, jinsiy gormonlar, o’sma, ovarioektomiya, ovariotomija, metastaz va retsidiv.

Kirish. Nima uchun it va mushuklarni sterilizatsiya qilish kerak? So‘nggi yillarda mayda hayvonlar veterinariysi sohasida ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishilgan bo‘lsa-da, har yili millionlab itlar va mushuklar, jumladan, ularning bolalari majburiy evtanizatsiya qilinadi [1,5].

It va mushuklar bugungi kunda dunyoda eng ko‘p uy sharoitida boqiladigan hayvonlar guruhini tashkil etib, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, itlarning yer yuzidagi umumiy soni 900 mln. boshga, mushuklar esa 600 mln. boshga yetgan. Daydi va qarovsiz it va mushuklar sonini kamaytirish, ularga insoniy munosabatlarda bo‘lish bo‘yicha Jahon hayvonlar sog‘ligi tashkiloti (JHST) tashabbusi bilan bir qator xalqaro va mahalliy chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Shunday tadbirlardan biri it va mushuklarni sterilizatsiya va kastratsiya qilish bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarda uy mushuklarining sterilizatsiya darajasi 70-90% ga yetadi.

AQShda uy mushuklarining taxminan 80% sterilizatsiya yoki kastratsiya qilingan. Buyuk Britaniyada uy mushuklarining sterilizatsiya darajasi 85% ga yetgan va hukumat tomonidan sterilizatsiya dasturlari faol ravishda qo‘llab-quvvatlanadi. Avstraliyada mushuklarni sterilizatsiya qilish odatdagi amaliyot bo‘lib, uy mushuklari 90% gacha sterilizatsiya qilinadi. Osiyo va Afrika kabi rivojlanayotgan hududlarda sterilizatsiya darajasi nisbatan past (masalan, 10-30% atrofida) bo‘lishi mumkin [2,4]. O‘zbekistonda va sobiq Ittifoq mamlakatlarda sterilizatsiya darajasi hali ham past, ammo yildan-yilga zoovolontyorlar va veterinariya vrachlari tomonidan amalga oshiriladigan sterilizatsiya va kastratsiya qilish foizlari ortib bormoqda.

Urg‘ochi mushuklarni sterilizatsiya qilish – ularning jinsiy faolligini sun’iy yo‘l bilan to‘xtatish jarayoni bo‘lib, asosan jarrohlik usullarida amalga oshiriladi. Bunda ularning tuxumdoni (ovarioektomija) hamda tuxumdon va bachadon-

Annotation

The practice of sterilization and castration of dogs and cats is recommended by experts to reduce the population of dogs and cats and protect them from various diseases. The article presents the results of a study conducted in Uzbekistan to study the effect of sterilization of cats on the development of oncological pathologies of the genitals and mammary glands. Studies conducted by experts reported on the occurrence, growth and development of tumors of the mammary gland and ovaries as a result of sterilization of cats at different ages, and also studied the effect of sterilization of cats on reducing the risk of cancer. The results of the study also show the importance of the sterilization process for the overall health of cats, the prevention of tumors of the mammary glands and ovaries, and provide recommendations and conclusions.

ni birgalikda (ovariogisteroektomija) olib tashlash amaliyoti bajariladi [3].

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Tadqiqot maqsadi urg‘ochi mushuklarni sterilizatsiya qilishning optimal vaqtini aniqlash va shu orqali ularda onkologik kasalliklar paydo bo‘lishining oldini olishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida turli xil yosh va zotga mansub bo‘lgan urg‘ochi mushuklarni sterilizatsiya qilish, ularda kelajakda onkologik kasalliklar paydo bo‘lishini aniqlash bo‘yicha klinik va onkologik tekshiruvlar o‘tkazish, shuningdek o‘sma bilan kasallangan mushuklarni sterilizatsiya qilish orqali kasallikni davolash va oldini olish belgilab olindi.

Tadqiqot material va uslublari. Tadqiqotlar 2015-2025-yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasining hayvonlar klinikasida aholi xonardonlarda saqlanadigan mushuklarda bajarilgan bo‘lib, har biri 10 boshdan iborat jami 5 ta klinik guruh tuzildi. Turli zot va turli yosh toifasiga ega bo‘lgan urg‘ochi mushuklar ovarioektomija va ovariotomija qilindi. Birinchi guruh mushuklari birinchi kuyikish davrigacha (5-6 oylik) bo‘lgan davrda, ikkinchi guruh mushuklari esa birinchi va ikkinchi kuyikish davri oralig‘ida (9-12 oylik), uchinchi guruh mushuklari tuqqandan keyingi davrda (12-60 oylik) va to‘rtinchchi guruh mushuklari asosan 5 yoshdan katta bo‘lgan, sut bezi o’smasi bilan kasallangan davrida ovariotomija operatsiyasi o‘tkazildi. Beshinchi (nazorat) guruh mushuklarida operatsiya o‘tkazilmadi. Barcha guruhdagi mushuklar yiliga 2 marotaba onkologik dispanserizatsiyadan o‘tkazilib, operatsiyadan keyin jinsiy organ va sut bezi o’smalari bor yoki yo‘qligi tekshirib borildi.

Olingan natijalar tahlili. Olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, uy hayvonlarini sterilizatsiya qilish istalmagan hay-

vonlar tug‘ilishining oldini olish hamda ularning uzoqroq umr ko‘rishiga yordam beradi. Sterilizatsiya qilingan it va mushuklar boshqa it va mushuklarga qaraganda o‘rtacha ko‘proq umr ko‘rishadi. Sterilizatsiyaning hayvonlar sog‘ligi uchun foydasi shuki, ba‘zi potensial jiddiy kasalliklardan himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Urg‘ochi it va mushuklarni sterilizatsiya qilish bachadon infeksiyasi oldini oladi va sut bezi va tuxumdon saratoni xavfini kamaytiradi. Erkak hayvonlarni kastratsiya qilish moyaklar saratoni va prostata bezining kengayishi (prostata bezining giperplaziysi) rivojlanish xavfini kamaytirishi mumkin [6,8].

Shu sababli yuqorida bayon etilgan tajriba sxemasi asosida barcha tajriba guruhi mushuklarda ovarioektomiya va ovariotomiyalarda operatsiyalar o‘tkazildi. Jarayonda hayvon egalariga tadqiqot mazmun va mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish va muntazam ravishda tekshiruvlar o‘tkazishga ularning roziligini olish muhim ahamiyat kasb etdi.

Birinchi kuyikish davrigacha, ya’ni 5-6 oylik yoshida aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilgan holda, umumiyoq ‘riqsizlantirish ta’siri ostida, o‘ng tomondan lateral laporatomiya qilinib, faqatgina har ikki tuxumdon va tuxum yo‘llari birgalikda olib tashlab sterilizatsiya qilindi. Tadqiqot davomida operatsiya qilingan urgo‘chi mushuklar uy sharoitida boqilganda, hayotining turli davrlarida jinsiy organlar patologiyalari, jumladan endometrit, tuxumdon kistalar, tuxumdon o‘simalari, anoreksiya, yolg‘on homiladorlik kabi yallig‘lanish va gormonal kasalliklar shuningdek, sut bezi kasalliklari va o‘simalari uchrash holati umuman kuzatilmadi.

Ikkinci tajriba guruhudagi 9-12 oylik yoshida ya’ni birinchi va ikkinchi kuyikish davri orasida operatsiya qilingan 10 bosh mushukning 2 boshida bachadonning yiringli yallig‘lanishi – piometrit rivojlandi (operatsiyadan 5 yil o‘tib), 1 boshida sut bezining adenokarsinomasi (beshinchi juft sut bezida o‘lchami $2.1 \times 0.8 \times 1.7$ sm bo‘lgan tuguncha), 1 boshida sut bezining fibrosarkomasi (ikkinci juft sut bezida o‘lchami $3.2 \times 1.2 \times 1.9$ sm bo‘lgan tuguncha) paydo bo‘lganligi qayd qilindi. Bachadon kasalligi bilan kasallangan mushuklarda qaytadan gisterotomiya qilinib, 10-12 kun davomida gormon va antibiotiklar yordamida davolandi.

Sut bezi o‘smasi bilan kasallangan mushuklarda esa regional mastektomiya operatsiyasi o‘tkazilib, zararlangan sut bezi va o‘sma to‘qimasi hamda atrof limfa turunlari olib tashlandi. Shu bilan birgalikda siklofosfan (siklofomid) 2-5 mg/kg miqdorida jami 5 marta inyeksiya qilindi.

Operatsiyadan 10 oydan keyin adenokarsinoma bilan kasallangan mushuk sut bezlarida va jigar hamda o‘pka to‘qimasida tugunsimon metastazlar kuzatilib, hayvon egalaringin talabi asosida eftanaziya qilindi.

Tuqqandan keyingi davrda (12-60 oylik) sterilizatsiya qilingan uchinchi guruhi mushuklarda tuxumdon va bachadon to‘liq olib tashlanganligi uchun bachadon va tuxumdon kasalliklari kuzatilmadi. Faqatgina 3 bosh mushukda turli davrlarda sut bezining alveolyar fibrosarkomalari kuzatildi. Ushbu mushuklarda kasallik o‘z vaqtida aniqlanib, mastektomiya va limfa tugunlar rezeksiyasi operatsiyasi o‘tkazildi,

o‘smaga qarshi doskrubitsin antibiotigi 1 mg/kg miqdorida har 2 haftada bir marta jami 5 marta inyeksiya qilindi. Retsidiv va boshqa organlarda metastaz holati kuzatilmadi.

To‘rtinchchi guruhi mushuklarda (5 yoshdan katta bo‘lgan, sut bezi o‘smasi rivojlangan davrida) ovariotomiyalarda operatsiyasi o‘tkazildi. Bu guruhi hayvonlarda ham bachadon va tuxumdon kasallanishi kuzatilmadi. Ammo 5 bosh mushuklarda turli xildagi sut bezining o‘smalari rivojlanishi qayd etildi. Bir bosh mushukning qin yo‘lida tanosil sarkoma o‘sishi kuzatildi. Barcha o‘sma to‘qimalari zararlangan va atrof sut bezlari bilan birgalikda olib tashlandi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan siklofosfan va doskrubitsin antibiotiklari bilan kompleks monoklanal holda adyuvant davolash olib borildi (yuqorida keltirilgan doza va sxema asosida). Buning natijasida 2 bosh mushuklarda o‘sma retsidivi va metastazlanish holatlari kuzatilmadi. Faqatgina xavfli sut bezi o‘smasi bilan kasallangan 3 bosh mushuklarda (6-8 oy) ma’lum vaqt o‘tib, o‘pka bo‘laklari va taloqda nekroz holatida metaztzalar kuzatildi.

Operatsiya qilinmagan nazorat guruhi mushuklarga jinsiy kuyikish davrini sun‘iy ravishda oldini olish maqsadida har 6 oyda bir marta kastril gormonal kontraseptik dori vositali muskul orasiga inyeksiya qilib borildi. Natijada mushuklarning 4 boshida 6-va 7-inyeksiyadan keyin chot sohasi limfa tugunlarining hamda oxirgi juft sut bezlarning dastlab giperetrofysi, keyinchalik esa o‘sma to‘qimasining o‘sish holati qayd etildi. Qolgan 3 bosh mushuklarda esa 7-8 yosh davrida sut bezlarida yuqoridagi o‘smaga hos o‘zgarishlar yuzaga keldi. Shuningdek guruhdagi jami 8 bosh mushuklarda turli xil darajadagi endometrit va piometrit, 2 bosh mushuklarda esa tuxumdon kistasi hamda karsinomasi yuzaga kelganligi qayd etildi.

Barcha sut bezi o‘smasi bilan kasallangan mushuklarda regional mastektomiya operatsiyasi o‘tkazildi. Shuningdek, endometrit va piometrit bilan kasallangan mushuklar ham konservativ va jarrohlik usullarida davolandi.

Xulosha:

1. Mushuklar sut bezi o‘smalarining rivojlanishida qonda jinsiy gormonlar miqdorining ortishi va ularning muntazam jinsiy organlar va sut bezi to‘qimalariga ta’siri asosiy etiologik omil sanaladi.

2. Mushuklar sut bezi o‘smalarining oldini olish ovarioektomiya va ovariotomiyalarda operatsiyasi o‘tkazish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, operatsiyani o‘z vaqtida o‘tkazish kasallikning yuzaga kelish xavfini kamaytiradi.

3. Tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra birinchi kuyikish davrigacha ovarioektomiya qilingan mushuklarda jinsiy organlar va sut bezi o‘smalari kuzatilmadi. Birinchi va ikkinchi kuyikish davri oralig‘ida ovarioektomiya qilingan mushuklarning 60% ida, tuqqandan keyingi davrlarda ovariotomiyalarda qilingan mushuklarning 70% ida, o‘sma rivojlangandan keyingi ovariotomiyalarda qilingan mushuklarning 40% ida, operatsiya o‘tkazilmagan muhsuklarning esa 20% ida o‘smaga hos patologiya belgilari qayd qilinmadi.

4. Tajriba natijalaridan kelib chiqib, potensial onkologik xavflarning oldini olish va kamaytirish uchun mushuklarni

5-6 oylik davrida ovarioektomya, keyingi davrlarda esa ovariohysterotomiya qilish hamda imkon qadar gormonal kontraseptik vositalardan foydalanmaslik tavsiya etiladi.

Foydalanimagan adabiyotlar ro'yxati:

1. de Melo EH, Câmara DR, Notomi MK, Jabour FF, Garrido RA, Nogueira AC, Júnior JC, de Souza FW. Effectiveness of ovariohysterectomy on feline mammary fibroepithelial hyperplasia treatment. *J Feline Med Surg.* 2021 Apr;23(4):351-356. doi: 10.1177/1098612X20950551. Epub 2020 Aug 19. PMID: 32812465; PMCID: PMC10812215.

2. Overley B, Shofer FS, Goldschmidt MH, Sherer D, Sorenmo KU. Association between ovariohysterectomy and feline mammary carcinoma. *J Vet Intern Med.* 2005 Jul-Aug;19(4):560-3. doi: 10.1892/0891-6640(2005)19[560:aboafm]2.0.co;2. PMID: 16095174.

3. Dagher, E., Abadie, J., Loussouarn, D., et al. (2019a) Feline invasive mammary carcinomas: prognostic value of histological grading. *Veterinary Pathology* 56, 660-670. <https://doi.org/10.1177/0300985819846870>

4. Gemignani, F., Mayhew, P. D., Giuffrida, M. A., et al. (2018) Association of surgical approach with complica-

tion rate, progression-free survival time, and disease-specific survival time in cats with mammary adenocarcinoma: 107 cases (1991-2014). *Journal of the American Veterinary Medical Association* 252, 1393-1402. <https://doi.org/10.2460/javma.252.11.1393>

5. Nordin, M., Osman, A., Shaari, R., et al. (2017) Recent overview of mammary cancer in dogs and cats: classification, risk factors and future perspectives for treatment. *IOSR Journal of Agriculture and Veterinary Science* 10, 64-69. <https://doi.org/10.9790/2380-1008026469>

6. Overley, B., Shofer, F. S., Goldschmidt, M. H., et al. (2005) Association between ovariohysterectomy and feline mammary carcinoma. *Journal of Veterinary Internal Medicine* 19, 560-563. [https://doi.org/10.1892/0891-6640\(2005\)19\[560:aboafm\]2.0.co;2](https://doi.org/10.1892/0891-6640(2005)19[560:aboafm]2.0.co;2)

7. Bakhodirovich, Y. J., & Bobokulovich, D. N. (2022). Treatment and prevention of transmissible venereal sarcoma in dogs. *Eurasian Medical Research Periodical*, 7, 81-85.

8. J.B. Yulchiyev, B.D. Narziyev, Influence of Sex Hormones in Dogs on the Development of Breast Tumors, International journal of biological engineering and agriculture, 2022, 1, #5, pages 7-9.

ИБРАТ

БОР БЎЛСИН ОҚИБАТ

Журналинизнинг узок йиллик муштариylаридан бири шаҳрихонлик акамиз Маҳмуд Усмонов тажрибали ветврач сифатида ишлашга ҳам дўстлару якинларни сўреклаб туришга ҳам вақт топади.

– Аллоҳга шуқр, денг, соҳамиз ривож топаяпти, кўмитамиз раиси барча шарт-шароитларни яратиб беряятиларки, шу касбни эгаллаганинг ошиғи олчи, доимий даромади бор, – дейди Маҳмуд дуҳтири. – Шундай экан шогирдларни кўпайтириб, ёшларни шу соҳага қизиктириб янада мазмунли яшамофимиз керак-да.

У яқинда институтда бирга ўқиган дўстлари тошкентлик Искандар Расуловни, самарқандлик Раббим Файзиевни, андижонлик Абдувосит Нуриддиновни, Хонобод шаҳрида Носир Сулаймонов ва Камирмоҳун Ўринбоевларни бориб кўрди, улардан хол- аҳвол сўради. Бу учрашувдан завқланган фарғоналик ветврач акамиз Маҳмуд дуҳтирини бағрига босдию унга бағишлаб шеър ёзди. Мана ўша лутф:

*Хотинидан безганми, кеча- кундуз йўлдадир,
Ҳаёли тозу тошда, боғда ёки чўлдадир.
Ҳар жойда пайдо бўлар, асло қўним топмайди,
Бир боксангиз Қаршида ёки Қоракўлдадир.*

*Иши жойига дўпписин қолдириб келганмикан?,
Гўштга тамгалар босиб, дўндириб келганмикан?
Бола-чақа, рўзгорни янгаларга топшириб,
“Кўки”дан кўпроқ бериб, қўндириб келганмикан?*

*Қойил қолдим қадрдоннинг тинмайин юришига,
Дўстларнинг даврасида тиржайиб туришига.
Садоқатда тенгсиз, шаҳрихонлик дўхтири Маҳмуд,
Яна ками 50 йиллар кўз тегмасин бўлишига.*



UDK. 619:615:636.5:637:547.1:614.3

INTROVIT-ES-100-ORAL PREPARATINI BROYLER JO‘JALAR ORGANIZMIGA TERAPEVTIK TA’SIRI

Y.Salimov *v.f.d. professor,*
O.E.Nematullayev, *v.f.f.d.,(PhD),*
Sh.S.Doniyorov, *magistr;*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya

Zamonaviy parranda yetishtirish texnologiyalari, jo‘jalarning intensiv o‘sishi, qisqa muddatda yuqori tana vazniga ega bo‘lishi, ozigdan foydalish samaradorligi va kasalliklarga chidamlilik darajasining yuqori bo‘lishini talab etadi. Bunday intensiv o‘sish jarayonida broylerlarning organizmi katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shu bois ularning sog‘lom rivojlanishi uchun vitamin va mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Mazkur maqolada Intovit-es- 100-oral preparatining broyler jo‘jalar organizmiga terapevtik ta’siri o‘rganildi. Preparat broyler jo‘jalarga suviga qo‘shib berilganda jo‘jalar organizmida umumiy fiziologik holat, immun tizimi, o‘sish ko‘rsatkichlari va metabolik jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Shuningdek, preparat antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, organizmdagi stress darajasini kamaytiradi hamda kasalliklarga chidamlilikni oshiradi.

Kalit so‘zlar: Intovit-es-100-oral, vitamin, 1,0% li premiks, analitik tarozi, ROSS-308, broyler jo‘ja, mg/kg.

Mavzuning dolzarbliji. Bugungi kunda barcha davlatlar qatori mamlakatimizda ham aholi sonining o‘sishi sezilarli ravishda davom etmoqda. Natijada aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji ham oshib bormoqda. Sifatli va ekologik jihatdan toza oziq-ovqat, xususan chorvachilik mahsulotlarini talab doirasida yetishtirish va ishlab chiqarish asosiy vazifalardan biriga aylandi. Shunga muvofiq hukumatimiz tomonidan ushbu vazifalarni bajarish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2018-yil 13-noyabrdagi “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4015 va 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146 sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-iyuldagagi “Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risida”gi qarori chorvachilik va parrandachilik sohalarini rivojlantirishda dasturil amal bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamizda parrandachilik sohasini ilmiy asoslangan holda rivojlantirish va ushbu sohada mahsulorlikni oshirish bilan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Intovit-es-100-oral preparatini ROSS-308 zotli broyler jo‘jalarning organizmiga terapevtik ta’sirini tajribalar asosida asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari Intovit-es-100-oral preparatining ROSS-308 zotli broyler jo‘jalar organizmiga terapevtik ta’sirini tajribalar asosida asoslashdan iborat.

Tajriba obekti va uslublari. Tadqiqotlar Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi “Darg‘om parranda fayz” parrandachilik fabrikasida 150 bosh ROSS-308 zotli broyler jo‘jalarida o‘tkazildi. Broyler jo‘jalarning o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash analitik tarozi yordamida, o‘lchash orqali amalga oshirildi. [9; b- 283-286.]

Annotatsiya
Modern poultry farming technologies require intensive growth of chicks, high body weight in a short period of time, efficiency of feed utilization and high resistance to diseases. During such intensive growth, the body of broilers undergoes significant changes. Therefore, the need for vitamins and microelements for their healthy development increases. This article studies the therapeutic effect of the drug Intovit-es-100-oral on the body of broiler chicks. It was found that when the drug was added to the water of broiler chicks, it had a positive effect on the general physiological state, immune system, growth indicators and metabolic processes in the chicks. The drug also has antioxidant properties, reduces the level of stress in the body and increases resistance to diseases.

Birinchi tajriba guruhiga 50 bosh 10 kunlik ROSS-308 zotli broyler jo‘jalarga kunlik ozuqa ratsioniga qo‘shimcha ravishda 1,0% li premiks, 1 tonna to‘yimli ozuqaga, 10 kg qo‘shgan holda tayyorlanib berildi.

Ikkinci tajriba guruhiga 50 bosh 10 kunlik ROSS-308 zotli broyler jo‘jalarga kunlik suviga qo‘shimcha ravishda Intovit-es-100-oral, preparatidan 4000 litr suviga 1 litr hisobida qo‘shgan holatda ichirib borildi. [3; b-363-366;]

Uchinchi 50 bosh 10 kunlik ROSS-308 zotli broyler jo‘jalar nazorat guruhini tashkil qilib, ular tajriba davomida doimiy xo‘jalik ratsionida belgilangan ozuqalar bilan oziqlantirilib borildi. Tajribalar 20 kun davomida olib borildi. [8; b- 761-764]

Tajribalar 25 kun davomida Intovit-es-100-oral preparati berib boqilgan broyler jo‘jalarining o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlari analitik tarozi yordamida o‘lchab borildi va nazorat guruhidagi broyler jo‘jalarini o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan taqqoslandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Birinchi tajriba guruhdagi jo‘jalar har kuni Intovit-es-100-oral preparatidan ixtiyoriy holda doimiy qabul qilish ta’minlanishi bilan dastlabki kunlaridan boshlab har bir bosh jo‘jalarda kunlik rivojlanishi va tana vaznining holati o‘rganib turildi. Ushbu tajriba guruhi jo‘jalarning birinchi 10 kunlikda o‘rtacha o‘sish vazni 340 gramm, 20 kunlikda esa 950 gramm, 30 kunligida 1625 gramm hamda 35 kunlikda esa 1735 grammni tashkil qildi. Ikkinci ozuqasi bilan vitamin majmuasi qabul qilgan tajriba jo‘jalarida esa tirik o‘sish vazni quyidagicha ko‘rinishda bo‘ldi. 10 kunlik jo‘jalar 310 gramm, 20 kunligida 875 gramm, 30 kunligida 1535 gramm hamda 35 kunligida esa 1605 grammni tashkil etdi.

Uchinchi nazorat guruhi jo‘jalarida esa bu ko‘rsatkichlar 10 kunlikda 290 gramm, 20 kunlikda 785 gramm, 30 kunlikda 1345 gramm va 35 kunligida esa umumiy 1485 grammni tashkil etdi.

I-jadval.
Nazorat va tajriba guruhlari broyler jo‘jalari vazninining o‘rtacha o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlari (gr/bosh)

Guruhlari	Oziqlantirish kunlari			
	10	20	30	35
Intovit-es-100-oral preparatidan qabul qilgan tajriba guruhi jo‘jalari vazn ko‘rsatkichlari	340	950	1625	1735
Vitamin jamlamasi qabul qilgan tajriba guruhi jo‘jalari vazn ko‘rsatkichlari	310	875	1535	1605
Umumiyo‘z uzoqqa ratsioni asosida oziqlangan nazorat guruhi jo‘jalari vazn ko‘rsatkichlari	290	785	1345	1485
Parrandalar bosh soni	75	75	75	75

Intovit-es-100-oral preparati qabul qilgan jo‘jalarda umumiy o‘sish vazni, ikkinchi tajriba guruh jo‘jalariga nisbatan 8 % ga, nazorat guruhidagi jo‘jalarga nisbatan esa 16 % ga yuqori bo‘lganligini ko‘rsatdi. [2;4;5;]

Xulosalar

Intovit-es-100-oral preparati qabul qilgan jo‘jalarda umumiy o‘sish vazni, ikkinchi tajriba guruh jo‘jalariga nisbatan 8 % ga, nazorat guruhidagi jo‘jalarga nisbatan esa 16 % ga yuqori bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Shunga muvofiq Intovit-es-100-oral preparati doimiy ravishda broyler jo‘jalari suviga qo‘sishma ravishda berilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Intovit-es-100-oral preparatini qabul qilgan ROSS-308 zotli broyler jo‘jalari organizmida oziqalarning hazm bo‘lish darajasi oshishi natijasida o‘sish va rivojlanishi ko‘rsatkichlariga nisbatan ijobjiy ta’siri mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beknazarovich Y. H. et al. Application Of Common Chlorella In Poultry Industry And Determination Of Its Effectiveness //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 3452-3456.

2. Erkin o‘g‘li N. O. The Effect of Chlorella Suspension on Morphological and Biochemical Blood Parameters of Broiler Chickens // Online-conferences” platform. – 2023. – C. 24-28.

3. Erkinugli N. O., Yunus S. The Effect of Chlorella Suspension on the Growth, Development and Blood Parameters of Broiler Chickens //Barqarorlik va yetakechi tadqiqotlar onlayn ilmiy journali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 363-366.

4. Salnikova M. Ya. Chlorella - a new type of food. – M.: Kolos, 1977. – p.87.

5. Shaligo N.V., Melnikov S.S. Economically useful types of algae and their use in the national economy // Science and innovation. –2009. –№ 3. – p. 34-36.

6. Bogdanov N.I. Суспензия хлореллы в рационе сельскохозяйственных животных. Пенза, 2006.

7. Melnykov C.C., Manankina E.E. Использование хлореллы для кормления сельскохозяйственных животных // Наука и инновации. 2010. №8. С.40-43.

8. Nezmatallaev O., Salimova I., Salimov Yu. Хлорелла суспензияни бройлер жўжалар маҳсулдорлиги ва маҳсулоти сифатига таъсири //agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy journali. – 2022. – C. 761-764.

9. Romashko A.K., Manankina E.E., Eraшevich B.C. Влияние суспензии хлореллы на племенные качество птицы// Молекулярные, мембранные и клеточные основы функционирования биосистем: м-лы Междунар. науч. конф. и XII съезда БООФИБ.- Минск, 2016. Ч.2.С.283-286.

UDK: 636.5:637.4:636.087.7:614.3

TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLAR TUXUM MAHSULDORLIGI VA SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA INNOPROVET PROBIOTIGINING TA’SIRINI VETERINARIYA-SANITARIYA JIHATDAN BAHOLASH

**Z.I. Ilyosov, mustaqil izlanuvchi,
X.B. Yunusov, ilmiy rahbar; b.f.d., professor; F.B. Ibragimov, v.f.n., dotsent,
Samargand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti**

Аннотация

В данной статье 60 кур были разделены на экспериментальные и контрольные группы, по 30 кур в экспериментальной и контрольной группах. Цыплятам опытной группы дополнительно к фермерскому рациону скармливали пробиотик «Иннопроповет», произведенный на основе инновационного проекта № РЗ - 2020123121 из расчета 1 мл на 1 л воды, а контрольной группе - фермерский рацион. Испытания проводились в течение 120 дней. Представлены результаты исследования процента яйценоскости, толщины скорлупы, оперенности, яйценоскости и общих показателей качества яиц, которые были разделены на категории (сортма) в зависимости от массы яйца, по 168 яйцам, взятым от кур опытной и контрольной групп.

Kalit so‘zlar: parranda, tovuq, tuxum, orgonoleptik ko‘rsatkich va nav.

Mavzuning dolzarbliji. Bugungi kunga kelib mammakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatlari va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta’minlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

In this article, 60 hens were divided into experimental and control groups, 30 hens in each experimental and control group. In addition to the farmer’s diet, the chickens of the experimental group were fed the probiotic «Innoprovet», produced on the basis of the innovative project No. РЗ - 2020123121 at the rate of 1 ml per 1 liter of water, and the control group was fed the farmer’s diet. The tests were carried out for 120 days. The results of the study of the percentage of egg production, shell thickness, feathering, egg production and general indicators of egg quality are presented, which were divided into categories (grades) depending on the weight of the egg, for 168 eggs taken from hens of the experimental and control groups.

Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga ilg‘or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarining turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish parrandachilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shular jumlasidan raqobatbardosh parranda mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda



1-rasm. Tuxumni tarozida tortish jarayoni

parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan foydalangan holda parrandachilik klasterlarini tashkil qilish, bunda innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, sohaga faol investitsiya jalg'etish orqali parranda mahsulotlarini, shu jumladan, yuqori qo'shilgan qiymatlari parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish, ozuqa bazasini kengaytirish, import o'rnnini bosuvchi ozuqa va vitaminlarni ishlab chiqarish, parrandachilik sohasida yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash kabi kamchiliklar parrandachilik sohasidagi asosiy dolzarb muammolarga sabab bo'lmoqda.

Mavjud muammoni hal etishda ijobjiy yondashib, o'zimizning keyingi tadqiqotlarimizda "Parranda va quyonlar kasalliklarining oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotiklar yaratish" mavzusidagi PZ - 2020123121-raqamli innovatsion loyiha asosida ishlab chiqilgan "Innoprovet" probiotigini tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda o'tkazib qator ilmiy-amalii xulosalar olindi.

Tadqiqot joyi, obyekti va uslublari. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda Innoprovet probiotigini qo'llash natijalarini o'rganish maqsadida Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi "Qorasuv parranda fayz" parrandachilik fermer xo'jalikdagi "Lohman sandi" zotli tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda klinik va ulardan olingen tuxumlarda orgonoleptik tekshirishlar olib borildi. Tekshirishlar uchun tuxum beradigan tovuqlardan 30 boshdan tajriba va nazorat guruhlarida jami 60 bosh tajriba va nazorat guruhlari ajratilib, tajriba guruhiga xo'jalik ratsioniga qo'shimcha ravishda 1 litr suvga 1 ml miqdorida Innoprovet probiotigidan qo'shib berildi. Nazoratdagi guruh esa xo'jalik ratsioni asosida boqildi. Tekshirishlar 120 kun mobaynida olib borildi. Tovuqlar xo'jalik ratsioni bilan oziqlantirildi. Tovuqlarda tuxum berish foizi, tuxum po'chog'i yupqaligi, bir-birini patlarni cho'qishi, tuxumlarni cho'qishi belgilari bor-yo'qligi aniqlanib, tovuqlar va tuxumlarni vazni o'lchab borildi. Laborator tekshirishlari "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" kafedrasi laboratoriyasida olib borildi. Tuxumlarning vazni FALKON tarozisi bilan o'lchandi.



2-rasm. Tuxumni ovoskopda tekshirish jarayoni

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarimiz davomida parrandalarning tuxum mahsuldorligi aniqlanib, 168 dona tuxumga nisbatan tuxum po'chog'ining og'irligi, yupqaligi, og'irligiga asosan kategoriya (nav)larga ajratilishi aniqlandi.

Tekshirishlar natijasiga ko'ra tajriba guruhidagi tovuqlarning tuxum mahsuldorligi tajribalarimiz boshi – 135 kunlikda o'rtacha 80,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, tajribalarimiz oxiri – 255 kunlikka kelib esa 86,6 % ni tashkil etganligi aniqlandi. Tuxumining og'irligi esa o'rtacha 55 gr dan 69 gr gacha, tuxum po'chog'ining og'irligi o'rtacha 5,12 gr dan 6,04 gr gacha oshganligi aniqlangan bo'lsa, yupqa po'choqli tuxumlar tajribalarimizning boshida 10,4 % gacha uchraganligi aniqlandi.

Tajribalarimizning oxirida tajriba guruhidagi tovuqlarda yupqa po'choqli tuxumlar uchrashi 8,6 % ni tashkil etganligi aniqlandi. Tajriba boshiga nisbatan yupqa po'choqli tuxumlarning uchrashi 1,8 % ga kamayganligi, sifati yaxshilanganligi aniqlandi.



3-rasm. Tuxumning orgonoleptik tekshirish natijalarini tahlil qilish jarayoni

Nazorat guruhidagi tovuqlarning tuxum mahsuldorligi 135 kunlikda o'rtacha 76,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 255 kunlikka kelib 80,5 % ekanligi aniqlandi. Xuddu shunday tuxumining og'irligi o'rtacha 53,8 gr dan 63,2 gr gacha, tuxum po'chog'ining og'irligi o'rtacha 5,24 gr dan 5,72 gr gacha o'zgarishi aniqlandi. Tajribalar boshida yupqa po'choqli tuxumlarning uchrash ko'rsatkichi 9,7 % ni tashkil etgan, tajribalar oxirida esa 10,4 % ga yetgan. Bu belgilar kalsiy-fosfor yetishmovchiligiga xos bo'lган belgilar bo'lib, mahsuldorlikka va mahsulot sifatiga ta'sir qiladi, inkubatorga tuxumlar ni saralashda aksariyat qismi qo'yilmasligiga olib keladi.

I-jadval.**Tuxumlarni orgonoleptik tekshirish natijalari**

No	Guruhrar	O'rtacha mahsul-dorlik %	Olingen tuxumlar og'irligi gr	Tuxum po'chog'i-ning og'irligi %	Yupqa po'choqli tuxumlar %
Tajribalar boshida (135-kunlik)					
1.	Tajriba guruhidan olingen tuxumlar	80,1	55	5,12	10,4
2.	Nazorat guruhidan olingen tuxumlar	76,7	53,8	5,24	9,7
Tajribalar oxirida (255-kunlik)					
1.	Tajriba guruhidan olingen tuxumlar	86,6	69	6,04	8,6
2.	Nazorat guruhidan olingen tuxumlar	80,5	63,2	5,72	10,4

Tajribalarimiz natijasida olingen tuxumlarni og'irligiga nisbatan kategoriya (nav)larga ajratib, quyidagicha natijalar olindi:

2-jadval.**Tuxumlarni og'irligiga nisbatan kategoriya (nav)larga ajratish**

Guruhrar	Saralangan oliy navli tuxumlar (dona)	1-navli tuxumlar (dona)	2-navli tuxumlar (dona)	3-navsliz tuxumlar (dona)
	Tajribalar boshida (135-kunlik)			
Tajriba guruhi	10	99	50	9
Nazorat guruhi	11	96	55	7
Tajribalar oxirida (255-kunlik)				
Tajriba guruhi	18	138	22	4
Nazorat guruhi	14	107	50	7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'riniб turibdiki tadqiqot natijalari boshiga nisbatan tajriba guruhida tajribalarimizning oxiri 225 kunlikda saralangan tuxum 6 % dan

9,9 % ga, 1-navli tuxumlar foiz ko'rsatkichi 58,9 % dan 75,8 % gacha oshganligi aniqlandi.

Tajriba guruhidan olingen tuxumlarning orgonoleptik ko'rsatkichlari yaxshilanganligi, past navli tuxumlar chiqish ko'rsatkichi kamayganligi aniqlandi.

Xulosa. Parrandachilik sohaning rivojlanishida mustahkam ozuqa bazasi yaratish, tovuq zoti va gala strukturasini yaxshilash, tovuqlarni saqlash va oziqlantirish, ilg'or, zamonaliviy texnologiyalarini amalgal oshirish bilan bir qatorda, tovuqlardan sifatlari mahsulot olish xo'jalikning iqtisodiy samaradorligi yaxshilanishini amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tajribalarimizning natijasi bo'yicha xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Innoprovet" probiotigini tuxum yo'nalishidagi tovuqlar ratsioniga kiritish orqali sifatlari, yuqori navli, kamchiliklarsiz tuxum olish bilan birgalikda mahsulorlikni ham oshirish mumkin.

Foydalanimilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2022 yildagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2. Z.I.Ilyosov, X.B.Yunusov va F.B.Ibragimov. Evaluation of Egg Quality in Poultry. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE (2023-12-06, № 2, 9-13 P.).

3. Z.I.Ilyosov, X.B.Yunusov va F.B.Ibragimov. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni (Adabiyot tahlili). Veterinariya meditsinasi ilmiy-ommabop jurnalni (Toshkent -2023, № 3, 108-109 B.).

4. A.X.Kolmatov Tuxum yo'nalishida parrandachilik «Agrobank» ATB.-Toshkent: "TASVIR" nashriyot uyi, 2021.

5. Raxmatillayev P.E., Nurmuxammedov X.N. "Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni parvarish qilish". – Toshkent 2013-yil.

6. Murodov S.M., Xolikov S.F., & Po'latova N.M. (2022). Tovuq tuxumi ekspertizasi va orgonoleptik usulida tekshirish. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnalni, 498-500.

7. Murodov C.M., & Xoliqov S.F. (2022). Broyler tovuqlar go'shtini orgonoleptik va laboratoriya usulida tekshirish. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnalni, 494-497.

HAR XIL ZOTDAGI KARPSIMON BALIQLAR GEMOTOLOGIYASI**Аннотация**

В данной статье исследовано влияние различных биоэкологических условий – экстенсивной, интенсивной технологии, бассейна, искусственного водоема и замкнутой водной системы — на морфологические, физиологические и гематологические показатели крови головокarpов карпа (*Cyprinus carpio*). Результаты эксперимента показали, что количество эритроцитов, их средний объем, содержание гемоглобина и уровень лейкоцитов в крови рыб значительно различаются в зависимости от технологии содержания и гидрохимических свойств водной среды. Эти изменения связаны с адаптацией организма к интенсивным условиям и активацией иммунной системы. Полученные результаты имеют важное научное и практическое значение при определении оптимальных условий содержания рыб, получении здорового потомства и повышении продуктивности в рыбоводных хозяйствах.

Kalit so'zlar: Eritrosit, 1012/l, Gemokrit, Eritrositdagi gemoglobin miqdori, pg, Eritrositning o'rtacha hajmi, mkm, Leykotsit x1012/l, Keng texnologiya, Intensiv texnologiya, Sun'iy hovuz, Hovuz sharoitidagi gemoglobin, Cheklangan suv havzasi.

Mavzuning dolzarbligi. Chorvachilikning boshqa tarmoqlari qatori baliqchilikni yanada rivojlantirish va xalqimizni baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan talablari tobora ortib bormoqda [1. 101-105-b., 4. 137-141-b.]. Bu esa o'z navbatida baliqchilikni yangi innovatsion texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish hamda sohada intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirishning innovatsion usullarini ishlab chiqarishga keng ko'lamda tatbiq etib borilmoqda [2. 152-158-b.]. Bunga misol tariqasida, Prezidentimiz tomonidan bir qator qaror va farmoyishlar amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Jumladan, 2020-yil 29-avgustdag'i "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4816 sonli qarorga muvofiq respublikada baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilonva va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta'minlash maqsadida:

2021-2022-yillarda suv tanqisligi sharoitida daryo va kanallardan suv olinadigan baliqchilik xo'jaliklari tomonidan sun'iy suv havzalarida bosqichma-bosqich yangi resur tejamkor intensiv texnologiyalardan va ikkilamchi suv manbalaridan keng foydalanish amaliyoti joriy etildi [6. 40-45-b.].

Muammoning o'rganilanlik darajasi. Baliqlarni suvdan chiqarib dokaga o'rash kerak. Faqat dumning asosi tashqarida qolishi kerak. Punksiya qilinadigan joyni 70 % li spirit eritmasi bilan paxtali tamponda tangacha suyuqligi tozalanadi. Qon olish uchun sterilangan igna va shprits qo'llaniladi [3., 5. 377-381-b.]. Asboblar Natriy sitrat va heparin eritmalar bilan ishlov beriladi. Umurtqa pog'onasi bo'ylab anal teshigining yuqorisidan 45° qiyalikda kuch bilan kirkaziladi. Qon olingan joyni qisish mumkin emas. Chunki ajralib chiqqan suyuqlik ichkariga kirmsaligi uchun. Qon olingan joydan yana qayta qon olish tavsiya etilmaydi [4. 137-141-b., 3.].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi jadvalda qonning morfologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, sog'lom baliqlarda gemoglobin miqdori o'rtacha 91 g/l ni yuqorisi 103 g/l va rasti 85 g/l ni tashkil etishi tajribalar

Annotation

This article examines the effects of various bioecological conditions — including extensive and intensive technologies, pond, artificial reservoir, and closed water systems — on the morphological, physiological, and hematological parameters of yearling carp (*Cyprinus carpio*). Experimental results revealed that the number of erythrocytes, their average volume, hemoglobin content, and leukocyte levels in fish blood vary significantly depending on the rearing technology and the hydrochemical characteristics of the water environment. These variations are attributed to the organism's adaptation to intensive conditions and the activation of the immune system. The findings hold significant scientific and practical value for determining optimal rearing conditions, obtaining healthy offspring, and achieving high productivity in fish farming enterprises.

davomida aniqlandi. Suvga ta'sir etuvchi omil bilan zararlangan karp balig'ida qonning morfologik ko'rsatkichlari tekshiruvdan o'tkazilganda, bioekologiyasi (suvning ayniganligi, kislordaning kamligi, organik birikmalar ko'pligi) buzilgan suvda parvarishlangan baliqlarning gemoglobin miqdori o'rtacha 62 g/l, maksimal 63 g/l va minimal 56 g/l ni tashkil yetdi. Saqlash sharoiti (artizan suvidan foydalanilgan beton havzalar) buzilganda esa gemoglobin miqdori mos ravishda 46,3; 54,1; 44,2 g/%ni, gidroximiyasi buzilganda, gemoglobin miqdori mos ravishda 39,2; 41,3; 33,8 g/l ni tashkil etdi. Karp balig'ida saqlash sharoitining gidroximik buzilishlarida gemoglobin miqdorining kamayib borishi tajribalar davomida kuzatildi.

Xuddi shuningdek eritrotsitlar miqdori ($x 10^9/l$) tekshirilganda, o'rtacha 1,75, maksimal 2,28 va minimal 1,43 ni tashkil etdi.

Ushbu yoshdagagi baliqlarga suvga ta'sir etuvchi omil bilan zararlangan karp balig'ida qonning morfologik ko'rsatkichlari tekshiruvdan o'tkazilganda, bioekologiyasi (suvning ayniganligi, kislordaning kamligi, organik birikmalar ko'pligi) buzilgan suvda parvarishlangan baliqlarning eritrotsitlar miqdori o'rtacha 1,17 %, maksimal 1,27 % va minimal 0,93 % ni tashkil yetdi. Saqlash sharoiti (artizan suvidan foydalanilgan beton xavzalar) buzilganda yesa o'rtacha, maksimal va minimal gemoglobin miqdori mos ravishda 0,76; 0,86; 0,51 %ni, gidroximiyasi buzilganda, gemoglobin miqdori mos ravishda 0,51; 0,89; 0,33 % ni tashkil yetdi. Karp balig'ida saqlash sharoitining gidroximik buzilishlarida gemoglobin miqdorining ortib borishi tajribalar davomida kuzatildi.

Leykotsitlar soni ($\times 10^9/l$) tekshirilganda, sog'lom baliqlarda o'rtacha 23,7, maksimal 31,9, minimal 18,4 ni tashkil yetdi, bioekologiyasi (suvning ayniganligi, kislordaning kamligi, organik birikmalar ko'pligi) buzilgan suvda parvarishlangan baliqlarniki o'rtacha 43,1, maksimal 56,9 va minimal 32,6 ni tashkil yetdi. Saqlash sharoiti (artizan suvidan foydalanilgan beton havzalar) buzilganda esa o'rtacha 57,1, maksimal 75,1 va minimal 45,3 ni tashkil etdi. Gidroximiyasi buzilganda mos ravishda 98,2; 175,3; 63,3 ni tashkil etdi. Karp balig'ida saqlash sharoitining buzilishlari ortib borishi

bilan birlgilikda leykotsitlar sonining ham ortib borishi tajribalar davomida kuzatildi.

Tajriba davomida saqlash sharoitiga mos ravishda baliqlar organizmining morfofiziologik xususiyatlari o'rganildi.

Baliqlarning morfofiziologik ko'rsatkichlari "Do'rmonsoy baliqlari" baliqchilik fermer xo'jaligidan tutilgan zog'ora baliq baliqlarida organoleptik, morfofiziologik usullarda tekshirildi. Tadqiqotlarimizda normal va suvning muhitni buzilgandagi baliqlar qiyosiy o'rganilganda, ularning morfofiziologik va gemitologik ko'rsatkichlari keskin farqlanishi kuzatildi.


Jadval ma'lumotlariga ko'ra qonning morfologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, sog'lom baliqlarda gemoglobin miqdori o'rtacha $91,8 \pm 5,58$ gramm/litr ni yuqorisi $99,7 \pm 4,1$ gramm/litr va rasti $83,3 \pm 3,41$ gramm/litrni tashkil etishi tajribalar davomida aniqlandi. Suvga ta'sir etuvchi omil bilan zararlangan karr balig'ida qonning morfologik ko'rsatkichlari tekshiruvdan o'tkazilganda, bioekologiyasi (suvning ayniganligi, kislorodning kamligi, organik birikmalar ko'pligi) buzilgan suvda parvarishlangan baliqlarning gemoglobin miqdori o'rtacha $74,8 \pm 2,83$ gramm/litr, maksimal $80,1 \pm 4,85$ gramm/litr va minimal $59,3 \pm 3,6$ gramm/litrni tashkil etdi. Saqlash sharoiti (artizan suvidan foydalananligan beton havzalar) buzilganda yesa gemoglobin miqdori mos ravishda $63,8 \pm 3,13$; $72,1 \pm 2,42$; $48,6 \pm 2,13$ gramm/litrni, gidroximiyasi buzilganda, gemoglobin miqdori mos ravishda $41,2 \pm 1,69$; $56,7 \pm 2,86$; $37,9 \pm 2,31$ gramm/litr ni tashkil yetdi. Karr balig'ida saqlash sharoitining gidroximik buzilishlarida gemoglobin miqdorining kamayib borishi tajribalar davomida kuzatildi.

Xuddi shuningdek eritrositlar miqdori ($x 10 /l$) tekshirilganda, eritrositlar soni o'rtacha $1,73 \pm 1,21$, maksimal $2,22 \pm 1,61$ va minimal $1,56 \pm 1,32$ ni tashkil yetdi.

Ushbu yoshdag'i baliqlarga suvga ta'sir etuvchi omil bilan zararlangan karr balig'ida qonning morfologik ko'rsatkichlari tekshiruvdan o'tkazilganda, bioekologiyasi (suvning ayniganligi, kislorodning kamligi, organik birikmalar ko'pligi) buzilgan suvda parvarishlangan baliqlarning eritrositlar miqdori o'rtacha $1,48 \pm 0,14$ %, maksimal $2,5 \pm 0,18$ % va minimal $1,41 \pm 0,12$ % ni tashkil etdi. Saqlash sharoiti (artizan suvidan foydalananligan beton havzalar) buzilganda esa o'rtacha, maksimal va minimal gemoglobin miqdori mos ravishda $1,35 \pm 0,13$; $1,85 \pm 0,12$; $1,21 \pm 0,12$ %ni, gidroximiyasi buzilganda, gemoglobin miqdori mos ravishda $1,22 \pm 0,14$; $1,69 \pm 0,16$; $1,73 \pm 0,19$ % ni tashkil etdi. Karr balig'ida saqlash sharoitining gidroximik buzilishlarida gemoglobin miqdorining ortib borishi tajribalar davomida kuzatildi.

Leykositlar soni ($\times 10^9/l$) tekshirilganda, sog'lom baliqlarda o'rtacha $24,6 \pm 2,11$, maksimal $32,3 \pm 2,42$, minimal $14,8 \pm 1,09$ ni tashkil etdi, **bioekologiyasi** (suvning ayniganligi, kislorodning kamligi, organik birikmalar ko'pligi) buzilgan suvda parvarishlangan

Baliqlarniki o'rtacha $43,3 \pm 2,41$, maksimal $52,2 \pm 3,31$ va minimal $28,3 \pm 1,18$ ni tashkil etdi. Saqlash sharoiti (artizan suvidan foydalananligan beton havzalar) buzilganda esa o'rtacha $54,1 \pm 2,22$, maksimal $72,1 \pm 4,31$ va minimal $38,3 \pm 1,78$ ni tashkil etdi. Gidroximiyasi buzilganda mos ravishda $90,3 \pm 9,51$; $96,3 \pm 7,1$; $63,9 \pm 4,1$ ni tashkil etdi. Karr balig'ida saqlash sharoitining buzilishlari ortib borishi bilan birlgilikda leykositlar sonining ham ortib borishi tajribalar davomida kuzatildi (1-rasm).



1-rasm. Sog'lom va gidroximiyasi buzilgan muhitda boqilgan bir yillik sazan baliqlar qonining solishtirma ko'rsatkichlari

Xulosalar

1. Saqlash sharoitlari qon tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom baliqlarda gemoglobin va eritrotsitlar miqdori nisbatan yuqori bo'lib, suv muhiti bioekologik va gidrokimiyoviy jihatdan buzilganda bu ko'rsatkichlar keskin kamayadi, bu esa organizmnning kislorod tanqisligiga uchrashini ko'rsatadi.

2. Leykositlar soni stress holatiga javoban ortadi. Suv sifatining yomonlashuvi (masalan, kislorod tanqisligi, organik ifloslanishlar) va saqlash sharoitining buzilishi bilan leykositlar sonining ortishi kuzatildi, bu immun javobning faollashganini ko'rsatadi.

3. Gemitologik o'zgarishlar muhitga sezgir indikator sifatida xizmat qiladi: Eritrositlar va gemoglobin darajasining kamayishi, leykositlarning esa ortishi baliqlar sog'lig'i va parvarish muhitining holatini baholashda muhim diagnostik mezon bo'lib xizmat qiladi.

4. Optimal saqlash sharoitlari mahsuldarlik uchun zarur: Baliqlarda yuqori fiziologik ko'rsatkichlarni saqlab qolish va sog'lom nasl yetishtirish uchun suvning bioekologik va gidrokimiyoviy muvozanatini ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Haqberdiyev, P. S., Qurbonov, F. I., & Qarshiyeva, B. (2018). Baliq va asalari kasalliklari. O 'quv uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 4, 101-105.
- Kurbanov, F. E. (2022). Baliqlar saprolegniozining epizootologiyasi va qarshi kurash chora-tadbirlari. Educational research in universal sciences, 1(7), 152-158.
- Yunusov, K., Kurbanov, F., Yuldashev, X., Asomiddinov, U., & Xolova, U. (2024). Diagnosis of saproligniosis and protozoa of fish and veterinary and sanitary assessment of their meat (Uzbekistan). In BIO Web of Conferences (Vol. 95, p. 01024). EDP Sciences.
- Сатторов, Д., Курбонов, Ф., & Салимов, И. (2022). Грибные заболевания рыб. Сапролегниоз. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 137-141.
- Sattarov, J. M., & Sh, A. A. (2022). Baliqchilik xo'jaliklarida saprolegnioz kasalligining tarqalish yo'llari va profilaktikasi. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 377-381.
- Курбанов, Ф. И., Саттаров, Д. М., & Хушназарова, М. И. (2023). Меры лечения Сапролегниозом и Триходинозом. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 2(4), 40-45.

UDK: 636.014

UDK: 636.064

Pardayev Ro'ziboy Gulmurod o'g'li,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti v.b. q.x.f.f.d. (PhD)

TURLI ZOT VA ZOTDORLIKDAGI SIGILAR YELININING MORFOLOGIK BELGILARI

Аннотация

У коров общий объём вымени образуют молочные железы, молочные протоки и молочная цистерна. Молочные железы развиты по-разному в зависимости от направления продуктивности коров. В данной статье приведены сведения о морфологических особенностях вымени потомства красных эстонских и голштинских коров, привезенных из-за границы в Миришкорский район Кашикадарынской области, который считается южным регионом нашей республики с теплым климатом, и их помесей с различным процентным содержанием крови. Были получены следующие измерения вымени: окружность вымени, длина вымени, ширина вымени, глубина передней части вымени, глубина задней части вымени, длина передних сосков, длина задних сосков, высота вымени от земли и диаметр сосков.

Kalit so'zlar: yelin, morfologik belgi, yelin aylanasi, yelin eni, so'rg'ichlar diametri, sut bezlari.

Mavzuning dolzarbligi. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli sut va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa, qishloq joyralida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, hududlardagi ishlarning hozirgi holati mazkur tarmoq korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ozuqa bazasini ko'paytirish, naslchilikni yaxshilash, shu jumladan, sun'iy urug'lantirishni rivojlantirish va naslchilik xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida aniq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Xalqimizning chorvachilikni rivojlantirish borasidagi tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ushbu tarmoqda ilmiy yondashuvlar va ilg'or zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni yanada rag'batlantirish, pirovardida aholi farovonligini yuksaltirish va daromadlarini ko'paytirish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston respublikasining janubiy issiq iqlim sharoitida, chetdan keltirilgan golshtin va qizil eston zotli sigirlarning avlodlari va ulardan olingan qon ulushi turlicha bo'lgan duragaylarning yelinini morfologik belgilarini o'rganish.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqotlar 2022–2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanida joylashgan “Toshatov Normumin M” fermer xo'jaligining qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaligida olib borilgan.

Tajribadagi I guruhgaga sof zotli golshtin, II guruhgaga sof zotli qizil eston, III guruhgaga $\frac{1}{2}$ golshtin va $\frac{1}{2}$ qizil eston, IV guruhgaga $\frac{1}{4}$ golshtin va $\frac{3}{4}$ qizil eston, V guruhgaga $\frac{3}{4}$ golshtin va $\frac{1}{4}$ qizil eston sigirlari kiritilgan. Barcha tajriba guruhlaridagi

Annotation

In cows, the total volume of the udder is formed by the mammary glands, milk ducts, and milk cistern. The mammary glands are developed differently depending on the productive orientation of the cows. This article presents information on the morphological characteristics of the udders of the descendants of Estonian Red and Holstein cows imported from abroad to the Mirishkor district of the Kashkadarya region, which is considered a southern region of our republic with a warm climate, and their hybrids with different blood fractions. The following udder measurements were taken: udder circumference, udder length, udder width, front udder depth, back udder depth, front teat length, rear teat length, udder height from the ground, and teat diameter.

sigirlarning birinchi laktatsiyasida yelinining morfologik belgilarini o'rganilgan.

Tajriba guruhlaridagi sigirlar yelinining morfofunksional xususiyatlari “Оценка вымени и молокоотдачи коров молочных и молочно-мясных пород” uslubiy qo'llanmasiga binoan o'rganildi.

Sigirlarning yelin o'lchamlari zootexniyada umumqabul qilingan usullar yordamida aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga Microsoft Excell 2010 dasturida A.Ploxinskiy usulidan foydalanih biometrik ishlov berildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Sut mahsulorligi sigirlar yelinining tuzilishi va faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Yelin bezlarining sekretsiyasi sut chiqishi va uning ajralishi bilan davriy ravishda uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Yelin o'zida hosil bo'lgan suttan vaqt vaqt bilan bo'shatib turilsa, sutning hosil bo'lishi uzlusiz davom etadi. Yelinda hosil bo'lgan sut avvalo alveolalarda to'planadi. Undan mayda sut naychalari, ular qo'shilib sut kapillyarları, ingichka va yo'g'on sut yo'llarini hosil qilib ular to'rt bo'lmadagi sut sisternasiga quyiladi. Undan keyin esa so'rg'ich kanallari orqali tashqariga chiqadi. Yelining sut to'planadigan qismi yelin sig'imi deb yuritiladi. Unda sog'imiralar oralig'ida sut to'planadi.

Sut yo'nalişidagi sigirlarni baholashda asosiy baho yelin ko'rsatkichlariga beriladi. Shuni e'tiborga olgan holda, biz ham o'z tadqiqotlarimiz davomida yelinining morfologik ko'rsatkichlarini o'rgandik va 1-jadvalda havola qildik.

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, olingan yelin o'lchamlari bo'yicha guruhlararo farq kuzatilgan. Bunda I guruhga mansub golshtin zotli sigirlar boshqa guruhlaridagi tengqurlariga nisbatan ustuvorlik qilgan. Jumladan, yelin aylanasi I guruh sigirlarida 118,6 sm ni tashkil qilib, o'z tengdoshlari II, III, IV va V guruh sigirlarini tegishlichcha; 7,8 sm; 6,2 sm; 6,6 sm va 3,9 sm ga ortda qoldirgan. Xuddi

1-jadval.

Tajriba guruhlaridagi sigirlar yelinining morfologik belgilari (n=20), ($X \pm Sx$)

Ko'rsatkich	Guruhanlar									
	I		II		III		IV		V	
	n=5									
	$X \pm Sx$	Cv%	$X \pm Sx$	Cv%	$X \pm Sx$	Cv%	$X \pm Sx$	Cv%	$X \pm Sx$	Cv%
Yelin aylanasi	118,6±3,42*	5,77	110,8±2,57	4,63	112,4±2,84	5,05	112,0±2,71	4,85	114,7±2,71	4,73
Yelin uzunligi	34,5±1,30	7,52	29,9±1,04	6,93	31,7±1,02	6,45	31,1±0,81	5,18	32,9±0,98	5,96
Yelin eni	29,4±0,64**	4,38	26,7±0,60	4,50	27,8±0,93	6,72	27,5±0,72	5,23	28,0±0,80	5,72
Yelining oldingi qismi chuqurligi	26,8±0,75*	5,57	23,3±0,65	5,57	24,4±0,56	4,61	24,1±0,61	5,07	25,3±0,63	4,98
Yelining orqa qismi chuqurligi	30,1±0,68*	4,54	27,0±0,83	6,11	28,3±0,76	5,38	27,9±0,85	6,09	29,0±0,87	5,98
Yelining shartli hajmi, sm ³	3178,48	-	2581,64	-	2742,56	-	2699,2	-	2901,91	-
Oldinigi so'rg'ichlar uzunligi	7,14±0,07*	2,08	6,06±0,10	3,42	6,35±0,13	3,95	6,28±0,13	4,21	6,60±0,09	2,69
Orqa so'rg'ichlar uzunligi	7,46±0,14	3,78	6,30±0,12	3,69	6,68 ±0,10	2,97	6,56 ±0,12	3,56	6,92 ±0,06	1,83
Yelining yerdan balandligi	51,3±2,08	8,12	44,10±1,60	7,27	46,36±1,39	6,00	46,06±1,14	4,95	48,46±0,98	4,06
So'rg'ichlar diametri,sm	2,03±0,03	2,56	1,97±0,02	2,35	2,00±0,02	2,32	2,00±0,03	2,85	2,01±0,03	2,49

shunday tendensiya qolgan yelin o'lchamlari bo'yicha ham kuzatilgan. Xususan, yelin uzunligi bo'yicha shunga mos ravishda; 4,6 sm; 2,8 sm; 3,4 sm va 1,6 sm, yelin eni bo'yicha 2,7 sm; 1,6 sm; 1,9 sm va 1,4 sm, yelining oldingi qismi chuqurligi bo'yicha 3,5 sm; 2,4 sm; 2,7 sm va 1,5 sm, yelining orqa qismi chuqurligi bo'yicha 3,1 sm; 1,8 sm; 2,2 sm va 1,1 sm, yelining shartli hajmi bo'yicha 596,84 sm³; 435,92 sm³; 479,28 sm³ va 276,57 sm³, oldingi so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 1,08 sm; 0,79 sm; 0,86 sm va 0,54 sm, orqa so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 1,16 sm; 0,78 sm; 0,9 sm va 0,54 sm, va so'rg'ichlar diametri bo'yicha 0,06 sm; 0,03 sm; 0,03 sm va 0,02 sm bo'lgan.

Xulosa. Sigirlarda laktatsiya davri tugashi bilan yelin kichrayadi, bez to'qimasi funksional tinchlik holatga qaytadi. Alveolalari torayib, bo'shliqlari yo'qoladi. Alveolalari va kichik sut yo'llarining birikishi kuchayib, atrofiyaga uchraydi. Bez to'qimasining bez qismi yog' to'qimasi bilan almashtinadi. Yelining involyutsiyaga uchrashi deb mana shunga aytildi. Bunday funksional tinchlik jinsiy sikl munosabati bilan biroz o'zgarib turadi. Hayvon yana bo'g'oz bo'lganidan keyin ma'lum vaqt o'tishi bilan sut bezi yana rivojlanib, faol holatga qaytadi. Bo'g'ozlik necha marotaba takrorlansa, sut bezining involyutsiyasi va faol holatga qaytishi ham shuncha marta takrorlanadi. Yosh sigirlarning bir necha yil davomida

ustma-ust bo'g'oz bo'lib, sog'ilaverishi natijasida yelin ham takomillashib boraveradi.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning yelin o'lchamlari zot andozasi talablari darajasida bo'lgan. Yelin o'lchamlari bo'yicha I guruh sigirlari qolgan tengqurlariga nisbatan ustuvorlik qilgan. Golshtin va qizil eston zotli qoramollarning qon ulushi turli darajada bo'lgan sigirlarning yelin o'lchamlari ham farq qilganligi kuzatildi. Bunda farq V guruh sigirlari foydasiga bo'lgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аширов М.Э., Сутдор корамоллар селекцияси. Тошкент. "Наврӯз." 2017. 379-6.
2. Оценка вымени и молокоотдачи коров молочных и молочно-мясных пород. Латвийская СХА. М. Колос., 1970. 39 с.
3. Прохоренко П.Н., Логинов Ж.Г. Потенциал молочного скота // Животноводство России.-2005.- №1.-с.29-31.
4. Соатов У. Сигирларнинг елин шакллари ва сут маҳсулдорлиги. // "Агро илм". 2012, №4 (24), 34-35 б.
5. Шокиров К., Маматалиев Ш. Голштин зотли сигирларни иқлимлашиб жараёнида маҳсулдорлик сифатларини намоён бўлиши. //Зооветеринария. №7 2015.с. 28-29-б.

ВЕТЕРИНАРИЯ ХИЗМАТИГА КЎМАҚДОШМИЗ

Бозор ўзноми бозор, бу ерга келаётган кишилар гоҳ сотовчи, гоҳ харидор. Айникса якшанба кунлари бозор қайнайди. Чунки иш куни эмас-да. Кўпчилик рўзгорининг бир ҳафталиқ нозу неъматларга, мева-чевага бўлган талабини қондирсам дейди. Чўнтағига пулини соладиу бозорга отланади. Ана шу маҳал сифатсиз маҳсулот сотовчисига дуч келиб қолса борми, ана сизга галва, асаббузарлик. Шу боис бозорга сифатсиз маҳсулотлар кириб келмаслигини таъминлаш учун доимо хушёрмиз. Давлатобод тумани марказидаги деҳқон бозори маъмурияти, туман ветеринария ва чорвачиликни риовжлантириш бўлими бошлиғи Эркин Абдулҳамидович Тўйчиев бизга яқиндан ёрдам бермоқда. Барча қассоблару сотовчилар билан сұхбатлар ўтказдик. Маҳаллий матбуотда, радио ва ижтимоий тармоқларда ҳам сифатсиз маҳсулот ташвишу жарима келтиради деган мазмунда сұхбатлар, чиқишлар қилдик. Тарғибот-ташвиқот ишлари узлуксиз давом этмоқда. Мақсад ветеринария ва чорвачиликни риовжлантириш бўлими билан узвий хамкорликда ветеринария-санитария коидалари ва нормаларига қатъий амал қилинишини таъминлашдир.



**Иброҳим Анарбоев, Наманган вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ
Карантин тадбирларини таъминлаши гуруҳи сафдор ходими**

ХОТИРА

ТАЛАБЧАН УСТОЗ ЭДИ

Олимлар тўғрисида гап кетганда биз шогирдлар устозимиз Унгар Каҳоровични ўзига хос меҳр ва ҳурмат билан тилга оламиз. Чунки устоз мана шундай эъзозга сазовор бўлган буюк олимлардан бири эди. Ўз соҳасининг билимдони сифатида талабаларга таълим бериш жараёнда улар меҳрини қозонганди.

Афсуски шавқатсиз ўлим устозни 2024 йил август ойининг 11 санасида 88 ёшида орамиздан олиб кетди.

Унгар Избасаров асли чорвачилик тумани хисобланган Форишдан. Самарқанд қишлоқ хўжалик институтида замонасининг етук олимларидан илм олган ёш ийгит 1964 йил Бутуниттифок Қоракўлчилик илмий-текшириш институтининг Эндокринология лабораториясига ишга юборилган. Илмга бўлган қизикиши туфайли у ерда академик Т.В.Зверева раҳбарлигига “СЖК ва ЛИДАЗА препаратларини қоракўл қўчкорларининг чидамлилигини оширишга таъсири” мавзусида муддатидан олдин номзодлик диссертациясини химоя қилган.

Иzlанишлардан бир кун ҳам тўхтамаган ёш фан номзоди қалбида докторлик даражасини олиш мавжланаверади ва у 1988 йилда “Зоогигиенические мероприятия в повышении резистентности и воспроизводительной функции каракульских баранов-производителей” мавзусида докторлик диссертациясини муваффақиятли химоя қилди.

Устознинг илмий педагогик фаолияти СамДВМЧБ (собиқ СамҚҲИ) универсиети зоогигиена кафедраси билан чамбарчас бөглиқ. Ушбу кафедрага 28 йил мудирлик қилган, илм-фанга бекиёс хизмат қўшган, 1998 йилдан то умрининг охиригача кафедра профессори лавозимида самарали ишлаган.

Устоз ёшлигидан шифобахш гиёҳларга қизикиди ва табиий доривор ўсимликларнинг ўзига хос фойдали



хусусиятлари кўплигини бизга дарс берган пайтлари ҳам айтиб ўтарди. Устоздаги ана шу қизикиш умрининг охиригача давом этди.

У.Избасаров томонидан зоогигиенага алоқадор 25 та тавсиянома, 5 та монография шунингдек, 4 та дарслик ва 500 дан ортиқ мақола нашр қилинган. Домлат доривор гиёҳлардан табиий дори воситаларини тайёрлаб, тери касалликларини даволаш ва олдини олиш мақсадида амалда кўллаш бўйича Ўзбекистон ва Россия Федерациясининг 10 дан ортиқ патентлари муаллифлигига сазовор бўлган. Устоз 3 та номзодлик ҳамда 1 та докторлик илмий ишларига раҳбарлик қилган.

Профессор У.К.Избасаровнинг тиббиёт соҳасидаги кўп ийлилк изланишлари самараси кўплаб ҳалқаро олимлар томонидан эътироф этилганлиги туфайли у киши 2013 йил ЮНЕСКОнинг академиги юксак унвонига ҳамда лауреат деган номга сазовор бўлган эдилар.

Устоз сермаҳсул ҳаёт кечирдилар, десам муболага бўлмайди, мен дастлабки иш фаолиятимни айнан зоогигиена кафедрасида бошлаганимдан, устоз билан ҳамнафас бўлганимдан доимо фахрланаман. Жоиз бўлса устознинг бир одатини айтишни лозим топдим. У.К.Избасаров йилнинг қайси фасли бўлишидан қатъий назар доим рўза тутар, беш вақт намозни канда қилмас, ёшларга кўмакчи, жойи келса моддий кўллаб-куватловчи эдилар.

Ушбу хотира маколамиз орқали устозни ёд олиш биз шогирдларнинг бурчимиз. Устознинг охирати обод бўлсан.

Хушназаров Алишер Ҳудойберди ўғли, ветеринария фанлари фалсафа доктори, Ветеринария илмий-тадқиқот институтининг касаба уюшмаси раиси